

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**QOSIMOV KOZIMJON ISOQOVICH
EGAMNAZAROV AZAMJON IMOMNAZAROVICH**

OLAMNING FALSAFIY MANZARASI
MONOGRAFIYA

FARG‘ONA 2025

UO‘K 101.1(09)
KBK 87.3
Q 61

Olamning falsafiy manzarasi. Monografiya - Farg‘ona: 2025. - 113 bet

Ushbu monografiya olamning falsafiy manzarasini har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda insoniyat tafakkuri rivoji jarayonida shakllangan asosiy falsafiy konsepsiyalar, dunyoqarash tizimlari va ularning ilm-fan, madaniyat hamda ijtimoiy hayotga ta’siri yoritilgan. Asarda qadimgi davrlardan zamonaviy davrgacha bo‘lgan falsafiy maktablar, ularning olamni idrok etishdagi yondashuvlari hamda konseptual farqlari tizimli tarzda bayon qilingan.

Monografiyada falsafiy dunyoqarashning ilmiy, diniy va estetik yo‘nalishlari, shuningdek, tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar falsafiy tahlil asosida o‘rganiladi. Muallif olamning yaxlit manzarasini yaratishda tabiiy va ijtimoiy fanlar yutuqlarini uyg‘unlashtirish, shuningdek, zamonaviy global muammolarni falsafiy jihatdan anglash zarurligini asoslaydi.

Asarda falsafiy kategoriyalar — materiya, ong, harakat, vaqt, makon, sababiyat kabi tushunchalar yangi ilmiy yutuqlar kontekstida qayta talqin qilinadi.

Monografiya oliy ta’lim muassasalari talabalari, falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha tadqiqotchilar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, zamonaviy falsafiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAQRIZCHILAR:

Q.R. Ro‘zmatzoda	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori, falsafa fanlari doktori
I.To‘xtarov	Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

ISBN 978-9910-8082-7-2

Qosimov Kozimjon Isoqovich
Egamnazarov Azamjon Imomnazarovich. 2025
«ALPHA BRAND» nashriyoti. 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
BORLIQ MUAMMOSINING HAYOTIY ILDIZLARI VA FALSAFIY MA’NOSI	11
OLAM BORLIG’I - OLAM BIRLIGINING SHARTIDIR	16
NARSALAR, TABIAT JARAYONLARI VA HOLATLARI BORLIG’I	22
INSON TOMONIDAN YARATILGAN NARSALAR BORLIG’I.....	25
NARSALAR OLAMIDAGI ODAM BORLIG’I	28
INSON BORLIG’INING XUSUSIYATLARI	30
INDIVIDUALLASHTIRILGAN MA’NAVIYAT BORLIG’I	35
OBYEKTIVLASHTIRILGAN MA’NAVIY BORLIQ.....	39
MATERIYA VA SUBSTANTSIYA TUSHUNCHASI.....	41
HARAKAT VA RIVOJLANISH.....	69
FAZO VA VAQT.....	87
ONG MATERIYANING XUSUSIYATI, VOQELIK IN’IKOSINING OLIY SHAKLI	102
GLOSSARIY	105
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	111

KIRISH

Yangi tafakkurdan kelib chiqib, falsafaning asosiy masalasi nimadan iborat ekanligini ham qaytadan ko'rib chiqmog'imiz kerak. Hozirgi paytgacha mavjud bo'lgan adabiyotda falsafaning asosiy masalasi tafakkurning borliqqa, ruhning tabiatga munosabati deb ta'kidlab kelinmoqda.

Falsafaning asosiy masalasiga bunday yondashish ongni, ruhni insondan ajratib, inson muammosini, uning tabiatga, jamiyatga va borliqqa bo'lgan munosabatini falsafa maydonidan chetga chiqarib qo'yish demakdir. SHu paytgacha falsafaning eskicha ta'rifidan kelib chiqib, jumladan N.CHernishevskiy, L.Feyerbaxning, inson - falsafaning asosiy predmetini tashkil etadi, degan g'oyasini tanqid ostiga olib, bunday fikrlar falsafada antropologik qarashlar tamoyilining ifodalanishi deb hisoblab kelindi.

Falsafa jahon madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, inson dunyoqarashi va uning ongini takomillashtirishga qaratilgan fandir. SHuning uchun ham falsafaning asosiy masalasi insondan ajratib qo'yilgan - ongning, ruhning borliqqa, tabiatga munosabatini emas, balki Insonning tabiatga, jamiyatga, kishilarning bir-biriga, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan jarayonlarga, qadriyatlarga munosabati, ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini ongli ravishda bilishdan iborat deb tushunmog'imiz kerak. Falsafaning asosiy masalasiga biz ko'rsatganday yondashish uning muammolari doirasi markazida inson muammosi turadi, deb qarashga imkon beradi¹.

Dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etish, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi, maslak-muddaolarini bilish uchun falsafa fanini keng va atroflicha o'rganish darkor. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish – davr talabi.

Falsafaning mohiyati haqida so'z ketganda, ayrim mutafakkirlar uni haqiqatni izlashda, boshqalari - haqiqatni o'z shaxsiy manfaatlariga moslashtirishda deb tushunadilar; bir xillari o'z fikrlarini osmon tomon, boshqalari esa - Yerga

¹ Tulenov J., G'afurov 3. Falsafa. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun T.: O'qituvchi, 1997, 18-bet

yo‘naltiradilar; bir xillari Ollohgga, boshqalari esa - odamga murojaat qiladilar; bir xillari uchun falsafa o‘z-o‘zicha ahamiyatga ega, boshqalari aytadiki, falsafa jamiyat va insonga xizmat qilishi kerak va h.k. Bularning barchasi falsafaga yondashuvlarning xilma-xilligi, uning predmetini tushunishda turlicha qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Falsafiy bilimlarga xos eng muhim jihatlar quyidagilarda ifodalanadi:

Birinchidan, borliqning eng umumiy masalalarini tadqiq etish. Bunda borliq muammosi universal ma’noda tushuniladi: borliq va yo‘qlik; moddiylik va ideallik; tabiat, jamiyat va inson borlig‘i. Borliq to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot ontologiya (ontos - mavjudlik, logos - ta’limot) nomini oldi.

Ikkinchidan, bilishning eng umumiy masalalarini tahlil etish. Olamni bilish mumkinmi, mumkin emasmi; bilishning imkoniyatlari, usullari, metod va maqsadlari; bilishning mohiyati nimada, haqiqat nima; bilishning obyeksi va subyekti qanday ma’noga ega h.k. Bilish to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot gnoseologiya (gnosis - bilim, logos - ta’limot) nomini oldi.

Uchinchidan, jamiyat mavjud bo‘lishi va rivojlanishining eng umumiy masalalari. Sirtidan bu masala borliq to‘g‘risidagi ta’limotda o‘z aksini topadi. Modomiki, jamiyat shaxs taraqqiyotiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan, uning sotsial sifatlarini shakllantirar ekan, shu bois falsafada bu sohani alohida ajratib ko‘rsatish mantiqan to‘g‘ridir. Falsafada ijtimoiy hayotni tadqiq etadigan soha ijtimoiy falsafa (sotsial falsafa) deb ataladi.

To‘rtinchidan, insonning eng umumiy va muhim masalalarini o‘rganish. Inson falsafiy donishmandlikning asosi va so‘nggi nuqtasi bo‘lganligi sababli uni maxsus o‘rganish taqozo qilinadi. Hayotda mavhum ruh emas, balki konkret inson ijod qiladi, harakat qiladi. Inson falsafasi falsafiy antropologiya deb ataladi.

Demak, falsafa borliq, bilish hamda inson bilan olam o‘rtasidagi munosabatlarning eng umumiy tamoyillari to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Albatta, bu qisqa ta’rif yanada kengroq talqin qilinishi va rivojlantirilishi lozim. Eng muhimi, falsafa hamma vaqt nazariya bo‘lib, o‘z kategoriyalarini, ularning tizimini, tadqiqot qonuniyatlarini, metodlari va printsiplarini nazariy

ko‘rinishda aks ettirgan. Falsafiy nazariyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning qonunlari, kategoriya va printsiplari eng umumiy xarakterga ega bo‘lib, tabiat, jamiyat, inson va tafakkur hodisalariga nisbatan qo‘llaniladi. Iboradagi so‘nggi holatni ko‘zda tutadigan bo‘lsak, falsafa tafakkur to‘g‘risidagi tafakkur hamdir. Falsafaning predmeti shubhasiz yana falsafaning o‘zini, uning tarixini o‘rganish masalasini ham o‘z ichiga oladi.

Borliqdagi ikki muhim element: nimaningdir mavjudligi va uning ahamiyati bir-biridan farqlanishi bilan qadriyat to‘g‘risidagi tushuncha va uni o‘rganuvchi fan sohasi (aksiologiya) vujudga keldi.

Boshqacha qilib aytganda, obyekt bilan subyektning o‘zaro munosabatida subyekt obyektga o‘zi uchun qandaydir ahamiyatli tomon mavjudligini kashf etdi va o‘shani “qadriyat” tushunchasi orqali ifoda etdi.

Qadriyatlar - voqelikdagi narsa va hodisalarning subyekt uchun ahamiyatini ifoda etadigan falsafiy tushunchadir.

Insoniyatning ulug‘ mutafakkirlari, donishmandlari inson va uning hayoti uchun, ijtimoiy totuvlik uchun nimaiki zarur bo‘lsa, o‘shani buyuk ne‘mat, qadriyat sifatida e‘zozlab kelganlar, yosh avlodga hayot uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni qadrlash hissini tarbiyalashga alohida e‘tibor berganlar. Qadriyatlar jamiyatni insonparvarlashtirishga, xalqlar, millatlar va davlatlar o‘rtasidagi ziddiyat va ixtiloflarni oqilona hal etishga, butun jahonni tashvishlantirayotgan urush va tinchlik muammosi, ekologik tanglik, qashshoqlik, SPID, giyohvandlik, terrorizm singari global muammolarni, mintaqaviy mojarolarni oqilona hal etishga yordam beradi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson omilining roli ortib borayotir. SHu sababga ko‘ra falsafa fani ham inson muammosiga katta e‘tibor berayotir. Ayniqsa, uning falsafiy tafakkur madaniyati va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu vazifani ijobiy hal qilishda olamni falsafiy tushunishga bag‘ishlangan mavzuni yoritish va o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

Borliqdagi narsa va hodisalarning ichki mohiyati, mazmun, amal qilish

doirasi, ularning bir-biri bilan uzviy dialektik birligi, o‘zaro aloqasi va ta‘sirini to‘g‘ri tushunish va tushuntirish har qanday yangi paydo bo‘lgan jamiyat fani, xususan falsafa fani oldidagi eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mana shu jarayonda ijtimoiy hodisalarni makon va zamonda to‘g‘ri talqin etish uchun tadqiqotchiga bevosita metodologik asos, manba zarur bo‘ladi. Mustaqillik sharoitida ana shunday metodologik asos va manba bo‘lib ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda SH.M.Mirziyoyevning asarlari xizmat qiladi. Prezidentimiz asarlarida bayon etilgan fan, xususan falsafa fanining qonun - kategoriyalari, inkorni inkor, vorislik, qarama – qarshilik, ziddiyat, dialektika, miqdor va sifat, taraqqiyotning evolyutsion yo‘li, murosa tamoyillari, liberallashtirish, erkinlik, zaruriyat, mas‘uliyat, majburiyat kabi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish ulardagi o‘z Vatani, tarixi, buguni va kelajagi to‘g‘risidagi bilimlarining mustahkamlanishiga, o‘zliklarini tanishlariga hamda milliy ong va milliy g‘ururning shakllanishiga olib keladi.

O‘tmishdagi “... faylasuflarning ta‘limotiga hali ham shubha bilan qarab, ularni o‘rganmaydigan bo‘lsak, bilib qo‘yinglar, o‘zimizni, falsafiy tafakkurimizni ancha cheklab, g‘arib-kambag‘al qilib qo‘ygan bo‘lamiz. Qaysidir faylasuf, bizga yoqadimi-yo‘qmi, bundan qat‘iy nazar, uning asarlarini baribir bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Albatta, falsafa makon va zamon bilan bog‘liq murakkab fan ekanini tushunamiz. SHu bois haqiqatni topish uchun qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlaylik, muhokama qilaylik. Talabalar, ziyoli yoshlarimizning o‘zi kerakli xulosani chiqarib olsin”¹.

Ma‘lumki, yangi o‘quv rejasiga binoan falsafa fanidan o‘tiladigan mavzularning ko‘pchiligi o‘zgardi, jamiyatshunoslar zimmasiga yangi vazifalar yuklatildi. Ularni hal qilish oson emas, albatta. Yangi mavzularni chuqur o‘rganish va tahlil qilish ma‘lum tavsiyalarga muhtoj. SHunga muvofiq talaba va yosh o‘qituvchilarga metodik maslahatlar berishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

¹ Xaitov Sh. Murosa va O‘zbekiston falsafasi tarixiga kirish. -T.: Falsafa va huquq , 2010.

Buning sababi o'zbek tilida zarur adabiyotlarning yetarli emasligidir. Ayniqsa borliq muammosi bo'yicha deyarli adabiyot yo'q. Fikrimizcha, borliq mavzusi eng murakkab va kam ishlangan soha. Mavjud adabiyotlarda u materiya kategoriyasi bilan ayni bir xil tushuncha sifatida ta'riflangan. Qizig'i shundaki, beshta kitobdan tashkil topgan falsafiy qomusda ham ayni shu fikrga duch kelamiz. Unda ta'kidlanishicha, borliq ongdan mustaqil bo'lgan obyektiv olam, materiya, tabiatni, jamiyatda esa, kishilarning moddiy hayotini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir¹. Bu ta'rifga ko'ra borliq materiya bilan ayniydir. SHuningdek, u ongdan tashqarida va mustaqil. Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ong borliq tarkibiga kirmagan. Nahotki ong borliq bo'la olmaydi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Biz bunday holatga bir jiddiy falsafa lug'atida ham duch kelamiz. Borliq "ongga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektiv olamni, materiyani bildiruvchi falsafiy tushuncha"². Falsafaning asosiy masalasini hal qilishda ham bu jumboqqa duch kelamiz. U yerda ham borliq va tafakkurdan holi deb qaraladi. SHuning uchun falsafaning asosiy masalasi tafakkurning borliqqa bo'lgan munosabati masalasi deb yuritiladi. Ko'rinib turibdiki, borliq tafakkurni, demak, ongni o'z ichiga qamrab olmaydi. U holda borliq o'zi nima? degan savol tug'iladi. Uning falsafiy ta'rifi nimalarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrimizni rivojlantirib, agar ong ham borliq deb qaraladigan bo'lsa, u holda avvalgi ta'riflarda kamchilik bor. SHu jihatdan borliq kategoriyasini ta'riflashda materiyadan tashqari ong hodisasini ham qamrab olish zarur. Bu sohada xayrli qadamlar qo'yilganligini ko'ramiz. I. T. Frolov tahriri ostidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun chiqarilgan falsafa darsligida borliq muammosiga tamomila yangicha yondashilgan. Ammo unda ham borliqning falsafiy ta'rifi aniq yoritilmagan. Ushbu maqolaning borliq haqidagi bo'limida uning ta'rifini berishga harakat qildik. Ammo buning o'zi yetarli emas. O'qituvchi va talabalar yana qo'shimcha adabiyotlarni o'rganadilar, ijodiy fikr yuritadilar deb umid qilamiz. Borliqning falsafiy ta'rifini yaratish katta ilmiy umumlashmalarni talab qiladi. SHuning uchun bu masalani har tomonlama yoritilganligiga da'vo qila olmaymiz.

¹ Qarang. Falsafa qomusi, M., 1960 y. 1 tom, 207-bet

² Qarang "Falsafa lug'ati". Toshkent, „O'zbekistoni, 1976, 74-bet

Ushbu tavsiyalar I. T. Frolov tahriri ostidagi yangi darslik asosida yozildi. Ayrim masalalar aynan keltirildi, o'zbek tiliga o'girildi. SHu bilan birga, qo'lga kiritilgan tajriba va kuzatuvlar jarayonida hosil qilingan xulosalardan ham foydalanildi.

Mazkur tavsiyalarni yoritishda materiya, harakat, makon, vaqt hamda ong masalalarini yoritishga ma'lum darajada yangicha yondashdik; hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyot tajribalari, fan yutuqlarini hisobga oldik. O'ylaymizki, ushbu risola yosh o'qituvchilar va talabalarga yordam beradi, o'zbek tilidagi ma'ruzalar javonining bo'sh joylarini to'ldirishda kamtarona xizmat qiladi. Metodik tavsiyalar so'ngida amaliy mashg'ulotlarning rejasini berdik, referat mavzularini keltirdik va nihoyat takrorlash uchun savollar kiritdik.

“Olamning ilmiy - falsafiy tushunish” degan mavzudagi ushbu monogrifiya qayta ishlangan va to'ldirilgan qayta nashr bo'lib, avvalgi nashrni tayyorlashda hammualliflik qilgan marhum falsafa fanlari nomzodi, FarDUda xizmat ko'rsatgan dotsent M.Xusanboevga, muharrirlik qilgan falsafa fanlari doktori, professor T.SH.SHaripovlarning yorqin xotiralari oldida o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. SHuningdek, monografiyani tayyorlashda va nashr etilishiga katta yordam ko'rsatgan FarDU falsafa fanlari nomzodi, dotsent N.Sobirovga ham o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz.

“Olamning ilmiy- falsafiy tushunish” degan mavzu bo'yicha, o'quv dasturiga ko'ra ma'ruza bilan birga amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ma'ruzaning rejas ixtiyoriy bo'lishi mumkin, ammo har bir ma'ruzada ko'riladigan masalalar 3 tadan oshib ketmasligi lozim, aks xolda 2 soatlik dars yakunlanmay qoladi. SHunga erishish kerakki, ma'ruzada tavsiya etilgan har uchala savol yoritilgandan so'ng qisqacha xulosa bilan yakunlanadi. Savollar ixcham, aniq qilib qo'yilishi kerak. Ularni tuzishda o'quv dasturi va darsliklardan foydalanish mumkin. Eng muhim masalalar tanlab olinadi. Har bir savol falsafaning asosiy masalasi bilan bog'lab turib yoritilsa, mantiqiy izchillikka amal qilingan bo'ladi. Zero falsafaning har bir kategoriyasi asosiy masala bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, borliq, materiya, harakat, ong tushunchalarini yoritishda asosiy masala markaziy o'rinda turmog'i lozim. Ana shu qoidaga amal qilgan taqdirdagina o'qituvchi falsafa -

kategoriyalarning yaxlit sistemasi ekanligini, izchil ilmiy qarashlar majmuasi ekanligini anglaydi va talabalarga ham buni anglatadi.

BORLIQ MUAMMOSINING HAYOTIY ILDIZLARI VA FALSAFIY MA'NOSI

Yuqorida aytilganidek, o'qituvchi o'quv dasturida borliq tushunchasi keng ma'noda, ya'ni materiyadan tashqari ongni ham o'z ichiga oluvchi kategoriya sifatida talqin qilinayotganligini eslatib o'tishi maqsadga muvofiqdir.

“Borliq” ontologiyaning asosiy kategoriyasi bo'lib, uning atrofidagi bahs-munozaralar hozirgacha davom etib kelmoqda. “Ontologiya” (yunoncha ontos – borliq, logos – ta'limot) – borliq haqidagi falsafiy ta'limot, falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi sohasidir.

Borliq - obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falsafiy tushuncha. U moddiy-predmet olamidangina iborat emas. Ya'ni, aniqroq qilib aytganda borliq o'z real strukturasiga ega. Kengroq ko'rinishda u “materiya” kategoriyasi bilan aks ettiriladigan obyektiv borliq va “ong” kategoriyasi bilan aks ettiriladigan subyektiv borliqqa bo'linadi.

Obyektiv borliq moddiy holatdagi narsa, predmetlar ko'rinishida ifodalanadi va u turli darajalarda namoyon bo'ladi: organik va noorganik tabiat, biosfera, ijtimoiy borliq, inson turmushi kabilar.

Subyektiv borliq esa bu, bevosita inson ongi bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni tushuncha va kategoriyalar tarzidagi hayoliy borliqdir (madaniy qadriyatlar, ilmiy bilimning umumiy printsiplari, tushunchalari va h.k.).

Obyektiv (real) va subyektiv (hayoliy) borliq o'rtasida alohida tafovut bor. Real borliq mavjudlikni, xayoliy borliq mohiyatni belgilaydi. Real borliq narsalar, jarayonlar, shaxslar, xatti-harakatlar va boshqalarning realligini bildiradi; u makon va zamon xarakteriga ega, u alohida, betakror. Xayoliy borliq (g'oya ma'nosida) vaqtinchalik, haqiqiy, tajribaviy xarakteridan mahrum, u fakt bo'la olmaydi; u qat'iy o'zgarmas (qotib qolgan), abadiy mavjud (N. Gartman), hayoliy borliq bu ma'noda qadriyat, g'oya, matematik va mantiqiy tushuncha sifatida yuzaga chiqadi. Platon unda chin, xususiy «real» borliqni ko'radi. Umumiy ma'nodagi borliqdan muayyan borliq farq qiladi. Geraklit fikricha, hech qanday qotib qolgan borliq yo'q, doimo o'zgaruvchan borliq bor. Metafiziklar «haqiqiy» borliq transtsendent, narsa

o‘zidadir deb biladilar. Barcha mavjud narsalarning yig‘indisini, umuman olamni borliq deb ataydilar. J. Berkli, D. Yum borliq faqat subyektda, ondagina mavjud deb biladilar. Ba’zi faylasuflar borliqni qandaydir dunyoviy ruhning, g‘ayri moddiy kuchning ko‘rinishlaridan iborat, deb hisoblaydilar. Xususan Hegel falsafasida borliq mutlaq g‘oyaning o‘zligidan, mavhumlikdan konkretlikka tomon yuksalib boruvchi dastlabki, bevosita va juda noaniq bosqichi hisoblanadi. Borliqni ruh mahsuli sifatida qarash XIX asrning oxiri - XX asrning boshidagi falsafaga ham xos. L. Feyerbax, A. I. Gertsen, N. G. CHernishevskiy borliq obyektiv, u harakatdagi materiya bilan bog‘liq deb ta’kidlaydilar. Ba’zi falsafiy oqimlar mavjud olamning realligini, borliqning obyektivligini e’tirof etadilar. Borliqning eng muhim xususiyati - moddiyligida ekanligini alohida ta’kidlaydilar.

Hozirgi zamon ontologiyasiga ko‘ra, borliq - barcha mavjudotning turli-tuman ko‘rinishlari bilan aynandir¹.

Ontologiya masalalari SHarqda, ayniqsa bizning yurtimizda “Avesto” zamonlaridan boshlab falsafiy qarashlarning tarkibiy qismiga aylangan. Ontologiya qadimgi yunon falsafasidayoq u yoki bu obyektlarning borlig‘i, borliqning o‘zi haqidagi ta’limot sifatida ajralib chiqdi. Parmenid haqiqiy bilim – bu haqiqatan ham mavjud narsalar haqidagi bilim, deb hisoblaydi. Borliqni abadiy va o‘zgarmas narsa sifatida talqin etdi. Olamning o‘zgarishi Eley maktabi tomonidan yolg‘on hodisa sifatida talqin etiladi. Platon ilk yunon ontologiyasini g‘oyalar haqidagi ta’limotida umumlashtirdi. Uning fikricha, borliq narsalar olamining turli-tumanligi aks etadigan, aql orqali erishiladigan shakl va mohiyatlar – g‘oyalar yig‘indisidir. Platon borliq va uning boshlang‘ich asosi o‘rtasiga ham muayyan chegara qo‘ydi. O‘rta asr mutafakkirlari ontologiyani teologik muammolar yechimiga moslashtirdilar. O‘rta asr ontologiyasida borliq mavhum Xudo tushunchasi bilan ayniylashtirildi. Yangi davr falsafasi o‘z e’tiborini bilish muammolariga qaratdi. XVII asrda avval Goklenius (1613), keyinroq Glauberg (1656), so‘ngra esa Xristian Volf ontologiyani borliq va narsalarning metafizikasi sifatida talqin qildilar. Hegel ontologiyani

¹ «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, TOSHKENT, 2 – jild.

“absolyut ruh mohiyatining abstrakt ta’rifi haqidagi ta’limot” sifatida talqin etdi. Eski va hozirgi zamon ontologiyasining bir-biridan farqi shundaki, birinchisi, butun olamni insonga nisbatan talqin qilganida dunyoni inson uchun yaratilgan, unga moslashtirilgan, deb qaraydi. Bunday qarashda inson dunyo tuzilishining asosiy maqsadi sifatida namoyon bo’ladi. Zamonaviy ontologiyada esa voqelik va olam nihoyatda keng ma’noda ishlatiladi, ya’ni nafaqat moddiy borliq, balki ma’naviy borliq, ruhiyat, yo’qlik kabi tushunchalar ham ontologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Eski ontologiya voqelikni asosan moddiylik bilan tenglashtirar, abadiylikni borliqning oliy shakli sifatida tushuntirar edi. Yangi ontologiyada bu kategoriyalar borliq tushunchalari bilan chambarchas bog’liqlikda tahlil qilinadi. Hozirgi zamon tabiatshunosligidagi yutuqlar bugungi kundagi ontologik qarashlarning tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolmoqda¹.

Borliq falsafa tarixida turlicha talqin qilingan. Yaqin va O’rta SHarq falsafasida Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar borliqni ikkiga - vujudi mumkin va vujudi vojibga bo’ladilar. Ularning falsafasida borliqning dastlabki sababchisi Alloh (vujudi vojib), lekin Alloh bilan Borliqni bir-biridan ajratib tasavvur qilib bo’lmaydi, bular sabab-oqibat shaklida bir-birlari bilan uzviy bog’liq, degan tushuncha yotadi.

Borliq to’g’risidagi ilk qarashlar qadimgi xalqlarda, ularning doston va ertaklarida, diniy madhiyalarda, olamning paydo bo’lishi to’g’risidagi tasavvurlarda uchraydi. Bu masalada qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunoniston boy madaniy merosga ega. Qo’hna Hindistonda yaratilgan diniy madhiyalarda borliq haqida qimmatli fikrlar berilgan. Ayniqsa, “Mahobxarat”, “Rigveda”, “Upanishad” larda olamning yaratilishi to’g’risida mushohada yuritilib, “borliq” va “yo’qlik” haqida ma’lumotlar berilgan. “Rigveda” da aytilishicha, olamning paydo bo’lishida “asat”, ya’ni imkoniy borliq, ya’ni yo’qlik demakdir. “Asat” asta-sekinlik bilan “sat” ga, ya’ni, mavjudlikka aylanadi. Demak, “yo’qlik” “borliq”qa aylanadi.

Qadimgi Xitoyda daosizm keng tarqalgan bo’lib, uning asoschisi Lao-TSzi

¹ Falsafa qomusiy lug’at. “Sharq”, T. 2004, 317 b.

fikricha, borliq asosida “dao” yotadi hamda “tsi” elementi bilan hayot negizini tashkil etadi.

Qadimgi yunon falsafasida ham “borliq” masalasiga e’tibor berilgan bo’lib, Geraklit ta’limotida ayniqsa, muhim o’rin egalladi. Geraklit fikricha, ayni bir jism ham mavjud hamda mavjud emas, borliq va yo’qlikdir. Demokritning ta’kidlashicha, borliq yo’qlikning bo’lishligini talab etadi. Borliq qattqliq va moddiylikdir, noborliq esa bo’shliqdan iboratdir, ammo har ikkisi ham mavjuddir.

Platon esa borliq deganda, odatdagi moddiy jismlarni tushunadi. Narsalar borlig’ini g’oyalar borlig’idan farq etadi. U borliqni “chin” va “nochin”ga bo’ladi. G’oyalar dunyosi chin, narsalar borlig’i esa nochin, ya’ni uning jilosi, soyasi hisoblanadi.

Borliq va yo’qlik haqidagi tasavvurlar insoniyatning hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan davridan boshlab shakllanib kelgan. Olam azaldan bormi yoki u yaratilganmi? Odamlarchi? Odam tug’iladi, yashaydi, voyaga yetadi. Bir kun kelib bu olamdan ko’z yumadi. U bor edi, mavjud edi. Endi esa, u – yo’q, lomakon bag’riga singib ketdi, yo’qlik sari yo’l tutdi. Tug’ilish bor ekan, o’lim ham bor. Bu hayot qonuni hisoblanadi. Ozarbayjon shoiri Samad Vurg’un aytganidek, “to’rt faslni o’tkazmoqlik tabiatga bir qonun, tug’ilmoqlik va o’lmoqlik bu hayotga qonun”.

Inson hayotidagi eng katta fojia bu - o’limdir. O’lim vahimasi odamlar irodasini o’ziga rom etgan. O’lim nima? U borliqmi yoki yo’qlik? Odamlar bu savollarni bilishga qiziqqanlar, ularga javob izlaganlar. Bu hayotiy savollar bilan olimlar, nazariyotchilar, adiblar, dramaturglar, faylasuflar shug’ullanganlar. Masalan, V.S.Hekspir o’zining “Gamlet” fojiasida bu masalani mohirlik bilan o’rtaga qo’ygan. U borliq va yo’qlik masalasini o’zicha hal etgan. Borliq yashash demak, yo’qlik esa o’lim demakdir. SHuning uchun Gamlet o’z-o’ziga shunday savol beradi: “Yashash kerakmi, o’lish kerakmi? Nedur afzal? Mana masala! O’lish unutilish, u qandayin diyorki, unga borgan yo’lchi ko’p, ammo undan qaytgan biror yo’lchi yo’q?!”.

Borliq haqidagi gapni muxtasar etmay turib, noborliq ya’ni, yo’qlik haqida

ham fikr yuritish joizdir. Borliq qancha bo'lsa yo'qlik ham shuncha. Yo'qliklar ichida eng dahshatlisi, bu o'lim dedik. Inson hayotida yana bir yo'qlik borki, u ham juda dahshatlidir Bu farzandsizlikdir. Farzand yo'qligini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Farzandsiz odam mevasiz daraxt degani. Inson borlig'ida salomatlik ham katta rol o'ynaydi. Sog'liqni yo'qotish katta yo'qotishdir. Uni yoshlikdan asrash kerak. Dono xalqimiz aytganidek, ust - boshni yangiligidan, sog'liqni esa yoshlikdan saqlash lozim. Borliq yomonmi yoki yo'qlikmi?

Borliq va yo'qlik muammosi shu qadar hayotiyki, u hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Global muammolar kuchayib borayotgan hozirgi davrda, insoniyatning yashab qolishini (borlig'ini) ta'minlash, termoyadro urushi yo'qlik sari dahshatli qadam qo'yilishini oldini olish muammosi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

OLAM BORLIG'I - OLAM BIRLIGINING SHARTIDIR

Olam borlig'i vaqt ichra abadiymi yoki o'tkinchi? Fazodachi? Makonda cheklanganmi yoki chegaralanmaganmi? Hayot va mamot masalasi-chi? Bu savollar borliq kategoriyasini ilmiy o'rganishni talab qiladi. Bir butun yaxlit olam borlig'i bilan odam borlig'ini qiyoslasak, odam hayoti kapalak umriga qiyos etgulik. Hayot shu qadar tez o'tadiki, alohida odam hayoti juda qisqa ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Biz odamlarning o'tkinchi umri bilan doimiy olam borlig'ini solishtiramiz. Ba'zan savol qo'yamiz: aql - farosatga ega bo'lgan odam nahot hayotga qayta kelmaydi? Odam borlig'i va olam borlig'i o'rtasida nahot shunday adolatsizlik bo'lsa? Borliq problemasining qo'yilishi va hayotiy ma'nosi ana shunga o'xshash savollardir.

Demak, borliq muammosining keskinligi va hayotiyliги o'tkinchi va doimiy borliqning mavjudligida, borliqning ana shu ziddiyatligidadir. Borliqning bir necha jihatlari bor.

Borliqning birinchi jihati - bir butun yaxlit olamning doimiyligi va alohida narsalar, organizmlar, odamlar, ular hayot faoliyatining o'tkinchi ekanligi, borliqning o'ta ziddiyatligidadir, Boshqa so'z bilan aytganda, olam o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik birligidan iborat.

Falsafa olam o'z borlig'i va mavjudligiga ko'ra rang-barang ekanligini, bir jinsli emasligini kashf qilgan. Olamning yaxlit birligi dunyoda mavjud bo'lgan narsalar borlig'idan ajralmasdir. Ammo ular o'rtasi farq ham bor. Olam uzviy birlik, universal yaxlitlikka ega. Demak, olam borlig'ining ikkinchi jihati uning borlig'ida ekan. Olamning mavjudligi esa uning borlig'ining shart-sharoitidir.

Olam o'tkinchi emas, borliq sifatida odamning iroda va ongidan tashqarida va mustaqil yashaydi. Ammo odam o'z aqli, bilimi. mehnati bilan o'tkinchi emas, u tabiat va o'tkinchi jismlarni o'z faoliyati bilan bog'lab turadi. SHu bilan birga jism va ruh tabiat va jamiyat o'rtasida, odam o'zi bilan o'zga odamlar o'rtasidagi muhim tafovutlar borligini ravshan anglaydi. Bunda u atrof olamdagi turli xil yaxlit birliklar o'rtasidagi umumiylikni topishi va undan foydalanishi juda muhim. Insonning o'zida tana va ruh tabiiylik va ijtimoiylik qo'shib, ajralmas birlikni tashkil qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, olamda birlik mavjud. Xo‘sh, bu birlik nimada? Busiz olamga tegishli borliqning mazmunini ochish mumkin emas. O‘qituvchi shu yerda, olamning borlig‘i haqidagi g‘oyani keltiradi. Garchi olamning borlig‘i uning birligi uchun zarur shart bo‘lsa-da, (chunki olam bir bo‘lishdan ilgari mavjud bo‘lishi lozim), olamning birligi uning borlig‘ida emasdir, olamning haqiqiy birligi uning moddiyligidadir, bu moddiylik esa bir-ikki nayrangbozlik iborasi bilan emas, balki tabiatning uzoq va qiyin rivojlanish davri bilan isbotlanadi. Demak, xilma xil narsalar, tabiat, odam, fikrlar, g‘oyalar, jamiyat o‘zaro birlashib o‘tkinchi emas, balki, cheksiz olamning yaxlit birligini tashkil qiladi. Borliqning yana bir jihati, olam borlig‘ining realligi – mavjudligidir. Olamda tabiat, odam, odam yaratgan barcha narsalar, uning fikri, g‘oyalari, jamiyat teppa teng mavjud. Tabiatda odam, jamiyat bo‘lgan, ular real voqelikdir. Demak, olam real mavjuddir. Bunda ong ham real ekanligini ta’kidlash joiz. Ong anglangan borliq ekanligini, kishilar borlig‘i ular hayotining real jarayoni ekanligini qayd etmoq zarur.

Olamdagi xilma xil narsalar turli to‘plam, majmualardan iborat. Ular real bo‘lganligi sababli kompleks reallik deyiladi. Unga narsa-buyumlar, tabiat jarayonlari, yer va osmon jismlari, odam tomonidan yaratilgan narsalar, ijtimoiy hayot (odamlar va h.k.) kiradi.

Inson kompleks reallik ko‘rinishidagi yaxlitlikni hisobga olishi kerak bo‘ladi. Reallik bilan hisoblashmaslik volyuntarizm va subyektivizmga olib keladi. Mustaqilligimizni mustahkamlash jarayonida bu masala yanada dolzarb bo‘lib boradi. Chunki har bir kishining hayoti o‘zi uchun ham boshqalar uchun ham reallikdir. Har birimizning tanimizga, ruhimizga (qobiliyatimiz, odatlarimiz, hulq-atvorimiz, istaklarimiz, g‘oya-fikrlarimiz, mamlakatimiz) o‘tmishimiz, hozir va kelajagimizga, boshqa odamlar bilan munosabatlarimizga maxsus reallik deb qarash lozim bo‘ladi. Boshqa odamlar ham biz uchun muhim reallikdir. Inson ongi, o‘z-o‘zini anglash insonning individual borlig‘ini tashkil etadi. Ana shu borliq tufayli kishilar borlig‘ining umumiy belgilari ham uqib olinadi.

Amaliyotda tabiiylik bilan bir qatorda ma’naviylik, ideallik ham maxsus reallik tarzida e’tirof qilinadi. Ma’naviylik, ideallikni ham kompleks reallikka

qo'shish inson hayotining muhim tarkibiy qismidir.

Demak, moddiy predmetlar, moddiy olamgina (materiyagina) real bo'lmagan fikrlar ham voqedir, ya'ni real mavjuddir. SHunday qilib, olamning realligi uning real mavjudligidadir.

Borliq kategoriyasini tushunishda turli qarashlar mavjud. Ayrimlar borliq kategoriyasini asosiy tushuncha deb qabul qilmaslik uchun ikkita e'tirozni keltiradilar.

Birinchi e'tiroz: borliq narsalarning konkret belgilarini qamray olmaganligi uchun ham keraksiz, deyiladi. Bunday e'tirozga o'rin yo'q, sababi, falsafiy kategoriyalar olamning eng umumiy aloqalarini aks ettiradi. SHunga ko'ra borliq kategoriyasi yashash huquqiga ega.

Ikkinchi e'tiroz: Borliq "mavjudlik" kategoriyasi bilan ta'riflanganligi uchun ham uning keragi yo'q, chunki mavjudlik bilan qiyoslanganda borliq biror yangilik bera olmaydi. Bu e'tiroz ham mantiqsiz, chunki borliq mavjudliknigina ko'rsatib qolmasdan, yanada murakkab va kompleks mazmunni ham o'zida qamrab oladi.

Borliqning falsafiy tushunchasini ta'riflashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Borliq o'zi nima, balki u real narsadir? Balki u mavhum tushunchadir? Uni ta'riflashda hayotdagi borliq haqidagi tasavvurlardan ham, fan erishgan yutuqlardan ham foydalanish o'rinli bo'ladi.

Kundalik turmushda turli-tuman so'z va iboralarga duch kelamiz. Ularda borliq tushunchasi ifodalanishini ba'zan o'ylab ham ko'rmaymiz. Masalan, "Hormang – bor bo'ling!", "Totuvlik – boylikdir", "Do'stlik – kuchdir" va h.k. Bu o'rinda "boylik", "kuch", so'zlari borliq ma'nosini bildiriyapti. Ularda ishtirok etayotgan "dir" bog'lovchisi ularda nimadir borligini, demakki, borliqni ifodalaydi. Boshqa misolni olib qaraylik, "Ahmad odamdir", "Gul qizildir". "Ahmad", "Gul" so'zlari xukmning egasi, ya'ni subyekt, "odam", "qizil" tushunchalari esa predikat, ya'ni kesimni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan bu ikki xukmda egasiga (subyektga) nisbatan qandaydir borliq mavjudligini, ega to'g'risida yangi bilim borligini anglaymiz. "Ahmad odamdir" xukmida Ahmadga xos umumbashariylik sifati – odamiylik, onglilik borligini ko'ramiz. "Dir" bog'lovchisi orqali ayrimlik

umumiylik bilan bog‘lanyapti, ayrimlikdan umumiylikka o‘tilayapti. Subyekt (Ahmad) yanada kengroq yaxlitlik (odam) ga tegishli ekanligini bildiradi. Demak, ayrim narsalar yoki hodisalarda biror bir sifat, aloqa yoki munosabat mavjud bo‘lib, ular ana shu tufayli o‘zidan kattaroq uyushma (guruh yoki sinfga kiradilar. Demak, narsalardagi borliq (aloqa, munosabatlar) ularni o‘zga narsalar bilan bog‘laydi. Borliq tushunchasi, bu o‘rinda, sifat, aloqa va munosabat tushunchalariga yaqin ekanligini ko‘ramiz. Biz endi kundalik turmushdagi va formal mantiqda uchraydigan borliq tushunchasidan falsafiy ma‘nodagi borliqqa o‘taylik.

Har bir falsafiy kategoriya o‘z mazmuni bilan boshqasidan farq qiladi. SHu bilan birga boshqa kategoriyalar orqali ta‘riflanadi. Borliq ham noborliq (yo‘qlik), mavjudlik, makon, vaqt, materiya, shakllanish, sifat, miqdor, me‘yor kategoriyalari orqali o‘z mazmunini namoyon qiladi. SHu bilan birga ularning biri ikkinchisi o‘rnini bosa olmaydi. Ya‘ni materiya ham, mavjudlik ham borliq bo‘la olmaydi va aksincha. Masalan, mavjudlik va borliq nisbatini olsa, ular bir xil ma‘noli emas. Borliq mavjudlikdan keng, u murakkab va kompleks mazmunga ega. Mashhur nemis faylasufi I. Kant borliqqa quyidagicha ta‘rif beradi: “U narsani faraz (taxmin) qilishdir yoki o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ba‘zi bir belgisidir”. Gegelʼ ham shunga o‘xshash fikr bildirgan: “Bu gul-qizildir”, - demak qizillik xususiyatini tashqaridan majburiy kirita olmaymiz, bu narsaniig o‘z belgilaridan iborat. Boshqa bir misol: hayot – tabiat mo‘‘jizasi. Bu xususiyatni inson ato eta olmaydi. Odamni hayotdan mahrum etib, uni qayta tiriltirib bo‘lmaydi”. V.SHekspir bu qonuniyatni chuqur anglagan. SHuning uchun u Otello tilidan so‘zlab shunday deydi: “Gulni uzib u shoxidan, unga ko‘karishlik xosiyatini bera olmayman, u so‘ladi, so‘lmay turib bir iskab olay”. Demak, hayotiylik jonli organizmlarning o‘z xususiyati, o‘z belgisi. SHu belgi borliq belgisi, hayotiylik jonli organizmlar borlig‘i demakdir. Demak, falsafa narsalar olamda mavjudliginigina qayd etmaydi, balki eng umumiy aloqalarni ochadi. Narsalarning barcha umumiy va ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini birlashtiradi. Bu aloqalar borliq tushunchasi tomonidan qamrab olinadi. Borliq narsalar mavjudligi va ular aloqalarini ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu borliqning bitta tomoni. Aniqrog‘i uning boshlang‘ich, “oddiy”, "sof" borliq

shaklidagi ko‘rinishi. Borliqning keng ma’nodagi ifodasi ham bor. Bu ma’nosi boshqa falsafiy kategoriyalarni ham o‘z ichiga oladi. Borliq kategoriyasi barcha boshqa falsafiy kategoriyalar tasdiqlagan xulosalar birligining ifodasidir. Borliq kategoriyasi yordamida olamning mavjudligi haqidagi asosiy g‘oyalar umumlashtiriladi. Borliq kategoriyasi olamning mavjudligini, cheksiz va o‘tkinchi emasligini, yaxlit butunligini, moddiy va ma’naviylikni hamda individ va jamiyatning bab-baravar, teng mavjudligini, birligini, realligini ifodalaydi.

Borliq muhim xususiyatlarini o‘z ichiga olgan olamning mavjudligi birligi, realligi, olamshumul aloqalarning ifodasidir. Borliqni narsa bilan tenglashtirish mumkin emas. Borliq olam mavjudligi, moddiy va ma’naviylik realligi, umumiy va keng hamda jahon miqyosidagi aloqalar ifodasidir.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib quyidagicha ta’rif berish mumkin: *Borliq deb, bir butun olam va undagi moddiy va ma’naviy mavjudotlar realligi va ular o‘rtasidagi eng umumiy aloqalar, xilma-xillikdagi yaxlit bir butunlik, narsalarga barqarorlik baxshida etuvchi belgilar va sifatlar majmuasiga aytiladi.*

Borliqni tushunishda materiyaga berilgan ta’rifdan foydalanish mumkin. Materiyaning yagona xususiyati, uining obyektiv ekanligidir. Modomiki, shunday ekan borliqning ham yagona xususiyati bo‘lishi mumkin. Agar borliq mavjud, birlik, yaxlitlik, aloqalar, belgilar, sifatlar, ziddiyatlar, inkorlar, makon, vaqt, taraqqiyot va h. k tushunchalar bilan harakterlansa, u holda ulardan birortasini yagona xususiyat sifatida ajratib olish mumkin. Bunday yagona xususiyat borliqning realligidir. Reallik moddiy bo‘lishi yoki ma’naviy bo‘lishi mumkin. Biroq borliq reallikning bir o‘zi emas, ayni vaqtda u ham mavjudlik, ham voqelik, ham borliq ham umumiy aloqalardir. Borliq kompleks reallikdir, umuman biror bir narsaning mavjudligini bildiradigan eng umumiy jahonshumul aloqalarni ifodalovchi abstrakt tushunchadir.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadimiy Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda, qadimiy O‘rta Osiyo va Yunonistonda faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki unsur yotadi deb hisoblashgan. Ularning ba’zilari bu unurni olov, boshqalari - suv yoki havo, ayrimlari - tuproq deb bilishgan. Ba’zi falsafiy ta’limotlarda esa olamning asosida 4

unsur - olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar shu 4 ta unurning birikishidan hosil bo'lgan, deb ta'kidlanadi. Yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit olamning asosida eng kichik bo'linmas unsurlar - atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-biridan farq qiladi, deb hisoblashgan. SHunday qilib, moddiy olamning asosida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk, azaliy materiyani, materiyaning "bobokaloni" (substantsiya)ni axtarish vujudga keldi.

XX asr boshlarida faylasuflar materiyaga sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, sezgi uyg'otuvchi obyektiv reallikdir, deb ta'rif berishgan. Bu ta'rif aytilgan davrda materiya tuzilishining murakkab shakllari haqidagi tasavvurlar u qadar rivojlanmagan edi. XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va relyativistik kosmologiya sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishning imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqot olib bora boshladilar.

SHunday qilib, materiya kategoriyasining funktsiyalari qo'yidagilar:

- onga, ma'naviy kuchlarga bog'liq bo'lmagan obyektiv borliqning mavjudligi haqidagi fikrni ifodalaydi;
- barcha narsalarda mavjud bo'lgan umumiy xossalarni tavsiflaydi;
- barcha narsalarni bilishga eltuvchi yo'lni, ularni bilishda amal qilish lozim bo'lgan umumiy dastur yoki strategiyani umumiy ko'rinishda belgilaydi.

Bu funktsiyalarni materiya kategoriyasi falsafaning keyingi rivojlanishi jarayonida saqlab qoldi.

Falsafa va tabiatshunoslik tarixida materiyani tushunishga nisbatan ikki xil yondashuv: falsafiy va tabiiy ilmiy yondashuvlar rivojlangan. Falsafiy yondashuv materiyaga narsalar va hodisalar butun rang-barangligining ichki yagonaligi zahirida yotuvchi mohiyat – substantsiya sifatida yondashishni nazarda tutadi.

NARSALAR, TABIAT JARAYONLARI VA HOLATLARI BORLIG'I

Tabiatdagi narsalar borlig'i bilan bir qatorda inson qo'li bilan yaratilgan narsalar borlig'i mavjud. Inson paydo bo'lgunga qadar tabiat narsalari mavjud bo'lgan. Ular inson ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda obyektiv ravishda mavjud edi. Inson paydo bo'lgach, ularga ta'sir eta boshladi. Inson qo'li bilan bunyod etilgan narsalar olami paydo bo'lib, ular "ikkinchi tabiat" deb ataldi. Avval birinchi tabiatni qarab chiqamiz. Birinchi tabiat borlig'i mavjudligini, uni inson ongidan tashqarida mustaqil ekanligini insonning o'zi ochgan. Uni inson ongidan tashqarida obyektiv yashashini kishilar amaliy faoliyati umuminsoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi tasdiqlagan. Bu yerda shubhara o'rin yo'q. Bilishning uch gnoseologik xulosasida ham "Narsalar obyektiv mavjuddir", - deyilgan edi.

SHunday qilib "birinchi tabiat" borliqning maxsus shaklidir. Bunda bir butun tabiat borlig'ini, uning alohida narsalari, jarayonlari, holatlari borlig'idan farq qilish kerak. U inson ongiga qadar, unga mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda mavjud.

Bir butun tabiat borlig'i makon va vaqt ichida cheksizdir. U doimo va hamma joyda bo'lgan, bor va bo'ladi. Bu nodir xislat tabiatning alohida narsalariga, jarayonlariga, holatlariga xos emas. Ular hamma yerda hamma vaqt bo'lishi ham, bo'lmashligi ham mumkin. Ularning noborliq (yo'qligi) borlig'i bilan almashib turadi. Ular vujudga kelish, o'zgarish, taraqqiyot jarayonini boshidan kechirib turadi. Ular borlig'i saqlanishi ham, barham topishi ham mumkin. Geraklit, Hegel ular dialektikasini genial tarzda faraz qilgan edilar. Tabiat bir butun o'tkinchimas deb qarasak, uning alohida narsalari o'tkinchi. Demak, tabiat o'tkinchimas, o'tkinchilikning dialektik birligidan iborat.

"Birinchi tabiat" – o'zining alohida borlig'i bilan reallikning maxsus shaklini tashkil etadi. U obyektiv va birlamchi reallikdir. Bu materializm uchun g'oyat muhim bo'lgan xulosadir. Yer, tabiat, butun zamin odam zoti paydo bo'lganiga qadar bir necha milliard yillar mavjud bo'lgan. Inson va uning ongi tabiat borlig'i ichra ancha keyin paydo bo'lgan jonzotdir.

Tabiat tushunchasi juda keng ko'lamda ishlatiladi. Tabiat mavjud narsalarni - yulduzlar, galaktika va metagalaktika sistemalari, kvazerlar, pulsarlar. makon va

zamondagi eng kichik zarrachalardan tortib o‘simliklar, insonlar olami - hamma-hammasini o‘z ichiga qamrab oladi. Tabiat tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: “Tabiat – g‘oyat xilma xil shakllari, tarkibiy qismlari bilan insoniyatni qurshab turgan organik va noorganik olamlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi. Insoniyat esa undan paydo bo‘lib, ajralib chiqqan mavjudotdir. SHu bois uning bir mohiyati tabiiy (biologik), ikkinchisi esa ijtimoiydir. Biroq tabiat tushunchasining torroq ma’nosi ham bor. Bu inson va insoniyat yashashining tabiiy sharoitlari majmuidir. Bu tabiiy muhit yoki geografik muhit deb ham yuritiladi.

Odatda tabiat o‘ziga xos qonuniyatlar asosida taraqqiy etuvchi organik va anorganik moddalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, tabiatshunoslik fanlari o‘rganadigan va tadqiq qiladigan obyektidir.

Tabiatning ajralmas qismi bo‘lgan Yer organik moddalar, tirik mavjudotlar olamga kelmasdan avval kosmik jismlarning murakkab harakatlari natijasida paydo bo‘lgan. Tirik tabiat anorganik tabiatning milliard yillar davomida taraqqiy etishi natijasida Yer, Quyosh va boshqa planetalar o‘rtasidagi uzluksiz modda almashuvining mahsuli sifatida muayyan shart - sharoitda paydo bo‘lgan.

Hozirgi zamon ilmiy tasavvurlarga ko‘ra Yerdagi hayot belgilari 3-8 mlrd. yil avval vujudga kelgan. Taxminan 2 mlrd. yil avval fotosintezga layoqatli birinchi hujayra paydo bo‘ldi. Dunyoda qotib qolgan, o‘zgarmaydigan, rivojlanmaydigan hech bir narsa yo‘q. Masalan, Yer va Quyosh atrofidagi boshqa planetalar tabiatshunos olim O.Yu.SHmidt gipotezasiga binoan juda ham uzoq rivojlanish jarayonida jismlar to‘planishidan kelib chiqqandir. Radioaktivlik natijasida Yerdagi turli o‘zgarishlar yuz berib turishi, uzoq rivojlanish jarayonida tabiatda kimyoviy o‘zgarishlar natijasida organik qo‘shilmalar (jismlar) paydo bo‘lgan. Organik jismlar, oqsil moddalar, nuklein kislotalar vujudga kelgan. Vaqt o‘tishi bilan tabiiy holatda hosil bo‘lgan organik moddalar o‘zgarib, murakkab oqsil molekulalarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lgan. Yuqori molekulyar moddalarning asta - sekin evolyutsion rivojlanishi modda almashuv qobiliyatiga ega bo‘lgan tirik oqsillarning tarkib topishini ta’minlagan. O‘z navbatida bu hayotning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tabiatdagi hamma narsa va hodisalarning o'zgarib, takomillashib, rivojlanib turishi odamning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lgan.

Odam tirik tabiatning keyingi evolyutsion taraqqiyoti mahsuli sifatida hayvonot dunyosining sut emizuvchilar sinfiga kiruvchi odamsimonlardan kelib chiqqanligi e'tirof etilgan. Odamsimonlarning odamga aylanishi ham bir necha million yillarni o'z ichiga olib, uzoq bosqichlarni bosib o'tib, ularning so'nggilari mehnat qilishga o'rganishlari tufayli hozirgi zamon odamlari kelib chiqqan. SHunday qilib, inson va jamiyat tabiatning ajralmas bo'lagi, uning alohida ongli qismidir.

Tabiat - tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar (yonilg'i, havo, suv, har xil xom-ashyolar) bo'lmasa, inson, jamiyat yashay olmaydi, sanoat, qishloq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

Hozirg kunda Respublikamizda vujudga kelgan havfli vaziyatning quyidagi ko'rinishlari farqlanadi: yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibining pastlashib borishi; yer osti va usti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanishi; Orol dengizi muammosi; havo bo'shlig'ining ifloslanishi. Ayni vaqtda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning 6 ta yo'nalishi farqlanadi. Bular: tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; qayta tiklanadigan zahiralarini qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlash, tabiiy zahiralarining hamma turlaridan oqilona foydalanish; katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralaridan kompleks foydalanish uchun ilmiy asoslangan holda o'zgartirish; jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga baza sifatida saqlab qolish; aholi punktlarida yashash uchun qulay sharoit yaratish; jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish.

Tabiatning birlamchiligi yana shundaki, usiz inson hayoti ham, faoliyati ham bo'lishi mumkin emas. Tabiat bo'lmasa, inson yaratgan ikkinchi tabiat ham bo'lmas edi. Ikkinchisi birinchisiga qaram. Ular o'rtasida o'xshashlik ham, umumiylik ham bor, shuningdek o'ziga xoslik ham bor.

INSON TOMONIDAN YARATILGAN NARSALAR BORLIG'I

Insonni “qurshab olgan olamga” tabiatdan tashqari inson yaratgan buyumlar ham kiradi. Ular “ikkinchi tabiat” deb ataladi. Ular “birinchi tabiatdan” nima bilan farq qiladi? Inson qo‘li bilan yaratilganligi, inson mehnati va bilimi sarflanganligi ularning farqidir. “Ikkinchi tabiatda” Marks hamda Hegel so‘zlari bilan aytganda Inson mehnati va bilimlari “predmetlashgan”. Marks ta’kidlaganidek, unda “sotsial ruh” ham mujassamlashgan. Ikkinchi tabiat buyumlari muayyan vazifalarni bajaradi. Masalan, dastgoh - mato to‘qishi mumkin.

Birinchi tabiat jismlari “ikkinchi tabiat”ning real materiali hisoblanadi. “Ikkinchi tabiat” buyumlari borlig‘i o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu tabiiy-ma’naviy-sotsial reallikdir.

“Ikkinchi tabiat” - tsivilizatsiyalashgan borliq. Masalan, telemarkazlar, muzeylar, teatr, ust-boshlar, kiyim-kechaklar va h. k. Har ikki borliq ayniyat va tafovut birligidan iborat. Birinchi tabiat - cheksiz, chegarasiz, o‘tkinchi bo‘lmagan borliq, ammo alohida odam – o‘tkinchi. Ularning har ikkisi o‘zaro bog‘langan. “Ikkinchi tabiatda” tabiat qonunlari amal qilmaydi. U insonning qayta quruvchilik faoliyati bilan bog‘langan. Bu har ikki tabiat borliqning yagona shakliga bir butun olam birligiga tegishlidir. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan birga, ular o‘rtasida to‘qnashuv darajasiga yetib borish mumkin bo‘lgan munosabat ham bor. Hozirgi davrda paydo bo‘lgan ekologik, energetik va boshqa muammolar tarzidagi konfliktlarni eslash kifoya. Buni hal qilishning turli yo‘llari borki, bu haqida insoniyat jiddiy o‘ylashi va oqilona yo‘l bilan bartaraf etishi kerak.

Jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrida odamlar asosiy e’tiborni birinchi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi munosabati bilan keyinchalik ikkinchi omilga qaratganlar. Demak, insonning tabiiy muhitga munosabatining xarakteri nafaqat tabiiy komponentlar, ayni ishlab chiqarish taraqqiyotining darajasi bilan ham belgilanadi. Bu esa ishlab chiqarishning muhim natijasi sifatida sun’iy atrof-muhitni vujudga keltirishdan iboratdir.

Sun’iy muhit tabiatda tayyor xolda uchramaydigan, faqat ijtimoiy mehnat jarayonida hosil etiladigan narsa va hodisalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Bunga

notirik jismlar bilan bir qatorda sun'iy tanlash yo'li bilan vujudga keltiriladigan yangi o'simlik navlari, hayvon turlari ham kiradi. Jamiyatning taraqqiy qilishi bilan sun'iy yashash muhitining roli oshib boradi. Bunga insonning sun'iy yo'l bilan ulkan suv omborlar qurganligini, atmosferani o'zlashtirishi va hatto sun'iy energiya ta'sirida Yerni yoritishini misol qilib keltirish mumkin.

SHunday qilib tabiiy muhit insonning hayot faoliyati uchun faqat moddiy sharoitgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarishning dastlabki, shuningdek estetik va axloqiy munosabatlarning ham obyektidir. Demak, insonning faqat jismoniy hayotigina emas, ma'naviy hayoti ham tabiat bilan uzviy bog'langan.

Xulosa qilib aytsek, birlamchi va ikkilamchi tabiat to'g'risida fikr yuritilganda farqlar, qarama-qarshiliklardan ko'ra ko'proq ularning uyg'unligi, mutanosibligi haqida gapirish kerak. Chunki tabiatga nafaqat moddiy, balki ma'naviy manba sifatida, insoniylik nuqtai nazaridan qarash maqsadga muvofiqdir.

SHuni ham alohida ta'kidlash kerakki, endi inson tabiatdan foydalanibgina qolmasdan, uni saqlash va himoya qilishni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yishi kerak. Tabiatni e'zozlashda va saqlashda hech qanday hududiy to'siqlar bo'lishi mumkin emas, chunki bir mamlakatda ro'y berayotgan ekologik inqiroz boshqa joylarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. 2024 yilda Toshkent shahri dunyoning ekologik reytingida eng yuqori o'rinni egallaganligi ta'kidlab o'tildi. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo bamisoli ona quchog'i, inson uchun beshikdir. Biz yashab nafas olib, kun kechirib, tirikchilik o'tkazib turgan tabiat, uning tarkibiy qismi bo'lmish Yerimiz - hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir. SHunday ekan, uni ko'z qorachig'idek saqlash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik umumdavlat, umumiy insoniyat ishidir.

Ekologik inqiroz ishlab chiqarish inqirozi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda ijtimoiy-siyosiy muammo hamdir. Chunki tabiatni muhofaza qilish - bu rivojlanish va xalq farovonligini oshirishning zaminidir. SHuning uchun ham respublikamizda tabiatni muhofaza qilishni davlat yo'li bilan boshqarish va nazorat qilib turishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Tabiatni muhofaza qilish Davlat

qo‘mitasining, Orolni saqlash, EKOSAN va boshqa jamg‘armalarning ta‘sis etilishi, tabiatdan unumli foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga oid mintaqaviy, jahon ilmiy-amaliy anjumanlarining o‘tkazilishi, tabiatni muhofaza qilish ishlariga - mamlakatda yashil zonalar tashkil etish milliy siyosatiga jamoatchilikni jalb qilinishi ham bejiz emas.

XX asr o‘rtalarigacha, hatto 90 yillargacha ham inson tabiatga hokim, uni o‘zi istaganicha o‘zgartirishi, irodasiga bo‘ysundirishi mumkin, degan noto‘g‘ri fikr ustunlik qilib keldi. O‘sha sharoitlarda bu fikr dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan, o‘zimizda ham qo‘llab-quvvatlandi. Natijada qancha-qancha loyihalar vujudga keldi. Daryo va ko‘llardagi baliq va parrandalar, hayvonlar ehtiyojidan ortiqcha ovlandi va ko‘pchiligi yo‘q bo‘lib ketdi. Qachonlardir Amudaryoning o‘zidagina 140 dan ortiq baliq turi bo‘lganiga endi ishonish qiyin. O‘rmonlarga nisbatan ham ko‘r-ko‘rona munosabatda bo‘lish tufayli Yer sharida 100 yil avval 7200 million gektar o‘rmondan hozir 4100 million gektari qoldi. SHu sababli ham tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi planeta miqyosida tabiat jarayonlaridan oqilona foydalanish insoniyat uchun hayotiy zaruratga aylanmoqdaki, faqat shu narsagina insonni yerning chinakam sohibi qila oladi. Bu zarurat tabiat bilan jamiyatning ongli inson faoliyati vositasida tashkil qilingan, o‘zaro ta‘sirning sohasi bo‘lgan, tabiat fani tomonidan ishlab chiqilgan “noosfera” tushunchasida ham o‘z ifodasini topgan. I. V. Vernadskiyning ta’kidlashicha, XX asr biosferasi avvalo fanning o‘sishi, ilmiy tushuncha va insonning unga asoslangan ijtimoiy mehnati tufayli vujudga keladigan noosferani yaratish barcha mamlakatlar va qit‘alar miqyosida tabiat kuchlaridan rejali foydalanishni ko‘zda tutadi.

Mintaqamizdagi ekologik vaziyat ham ancha murakkabdir. Ayniqsa, paxtani parvarish qilish uchun ko‘p miqdorda va bir necha yillar mobaynida ishlatilgan zaharli kimyoviy moddalar tufayli yer, suv, havo zaharlanishi, Orol muammosi, Semipalatinsk poligonidagi yadroviy qurollarni portlatish natijasida necha ming kilometr atrofdagi vaziyat yomonlashmoqda.

NARSALAR OLAMIDAGI ODAM BORLIG'I

Yakka odam borlig'i va insoniyat borlig'i o'ziga xos va nodirdir. SHuningdek, ularda umumiylik ham bor. Inson jismi - tabiat jismi. SHu ma'noda u jismlar ichidagi alohida jism. Uning jismi tabiatira tegishli bo'lgani uchun u o'tkinchi (o'ladigan) mohiyat. Odam umrini uzaytirishga qancha intilmaylik, uning jismi tabiat jismi bo'lib qolaveradi. Ammo odam inson bo'lganligi, insoniy mohiyatga ega bo'lganligi, odam sifatida ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lganligi uchun unga "narsa" deb, "obyekt" deb qarash mumkin emas. Ma'lumki, turg'unlik yillarida odamga ishlab chiqarishning "vinti", bo'lagi yoki narsa deb qaraldi. Bugungi kunda bunday yondashuvga barham berilib, unga ijodkor omil sifatida baho beralayotir. Hozirgi davrda inson omilining roli tobora o'sib borayotir.

Odam tanasi, jismi oziq-ovqatga, sovuqdan himoya qilishga ehtiyoj sezadi. Insoniy borliq qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmasin, tananing yashashi birinchi va asosiy shartlardan biri. Tana yashamasa – odam yashamaydi. Materializm bu narsaga katta e'tibor beradi, birinchidan, bu yerda materiya birlamchi, ong ikkilamchi degan qoida yana o'z tasdig'ini topadi. Odam fikrlashi uchun avvalo uning o'zi jismining hayotini ta'minlashi kerak. Ikkinchidan, bu holat materializm uchun har bir individ o'z hayotini saqlab qolish huquqiga ega, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Bunday huquqning boshlang'ich nuqtasi hayotni: individ hayotini saqlash, insoniyatni yashab qolishini ta'minlashdan iborat. Bu shuning uchun boshlang'ich nuqtaki, uni amalga oshirmay turib, odamning boshqa ehtiyoj va huquqlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Ozuqa, ust-bosh, uy-joy, sharoit adolat yuzasidangina emas, balki insoniyat yashab qolishi uchun kerak. Uchinchidan, odam jonli tana, tabiiy organizm sifatida yashash haqiqatidan chiqadigan xulosa shuki, u hayotning hamma qonunlariga, eng avvalo iqtisodiyot qonunlariga bo'ysunadi. Insonning tabiiy-biologik "o'lchovi" bilan ehtiyot bo'lish kerak. Inson biologiyasi – o'zi bir olam va u nisbiy mustaqil. Inson organizmining ekologik balansining har qanday nisbati buzilsa, falokatli oqibatga olib kelishi, odamning yashashi uchun xavf tug'ilishi mumkin. To'rtinchidan, odamning jismi uning ruhi bilan chambarchas bog'liq. Beshinchidan, insonni narsa deb qarash

falsafa uchun muhim. Chunki insonni narsa bo'lishi, uni ishlab chiqarish va muammoga undaydi. Tabiiy ehtiyoj va ishlab chiqarish o'rtasida dialektik aloqadorlik bor. Demak, tabiiy jism (tana) sifatidagi inson borlig'i bilan sotsial borliq o'rtasida dialektik birlik bor.

INSON BORLIG'INING XUSUSIYATLARI

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyati uch muhim o'lchov bilan xarakterlanadi. Alohida odam fikrlovchi va his etuvchi narsa (jism)dir. Bu inson mavjudligining birinchi o'lchovi. SHu bilan birga odam aqlli mohiyat, xomosapiensga tegishli. Bu ikkinchi o'lchov. Uchinchi o'lchov odam sotsial-tarixiy mavjudot ekanligidadir. Odam ongdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda yashaydi. Biroq odamlar borlig'i, ong borlig'idan holi emas, chunki u tabiiylik, jismlilik, ma'naviylik, individuallik, shaxsiylik va ijtimoiylik birligidan iborat.

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. SHunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson shunday murakkab va ko'pqirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir - biridan farqlanadi.

Inson o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalaniish, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashi kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta'qiqlash) shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi. Insonga xos bo'lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish psixologik xususiyatlarni bo'rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir

yoqlamalikka olib keladi. Falsafa tarixida inson to'g'risidati ta'limotlarda biologizm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo'nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sotsiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma'naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga biryoqlama asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir - biridan farqlash muhimdir. SHaxs o'zida sotsial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi.

O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatini his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. SHaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

SHaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yanticha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda xarizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmokda.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli

butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi, o‘z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta‘minlashi, barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ‘ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishini ruh bilan bog‘laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo‘lgan biror bir xususiyatga alohida urg‘u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko‘proq e‘tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta‘riflagan. Vladimir Solov’ev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig‘inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o‘zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig‘inish insongagina xos.

Insonni o‘rganadigan fan – antropologiya deb yuritiladi. Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o‘rnini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Antropologiyaga inson mohiyatini to‘laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalari qo‘llaniladi. «Men» - insonning o‘zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. «Men» ong tufayligina o‘zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo‘lib tuyuladi. SHaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o‘z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig‘ining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma‘nosi faqat moddiy ne‘matlardan bahramand bo‘lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo‘yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o‘ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. SHu bois unda ma‘rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliyhimmatlik, vatanparvarlik kabi ma‘naviy fazilatlar shakllanadi.

Yuksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir. Insonning ma'naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, yetilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy-badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, saxiy va oliyhimmat bo'lishga undaydi.

Antropologiya insonning ma'naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Insonning olijanob fazilatlari yetuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko'rinadi.

Alohida odam borlig'i hamda insoniyat borlig'i o'ziga xos hodisadir. SHuningdek, ularning har ikkalasiga xos bo'lgan umumiylik ham bor. Inson tanasi tabiatniki, shu ma'noda u jismlar ichidagi jismdir. Uning tabiatga tegishli bo'lgan jismi o'tkinchi. Odam umrini nechog'lik darajada uzaytirishga urinmaylik, birinchi galda u tabiat jismi bo'lib qolaveradi. Ayni vaqtda odamning insoniy mohiyatga egaligi, ijtimoiy munosabatlarni o'zida gavdalantirganligini hisobga oladigan bo'lsak, uni "narsa" yoki "obyekt" tushunchalari bilan belgilash unchalik to'g'ri emas. Ming afsuski, sovet zamonida inson ishlab chiqarishning oddiy murvatiga aylantirilgan edi. Mustaqillik tufayli insonning haqiqiy mohiyati, milliy qiyofasi, tarixiy o'zni tiklanmoqda.

Biologik jihatdan odam tanasi, jismi oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va

boshqa moddiy ne'matlarga katta ehtiyoj sezadi. Inson borlig'i nechog'lik o'ziga xos bo'lmasin, birinchi galda u tana va jon birligi, jonli mavjudotning turi sifatida yashashi uchun zaruriy moddiy ehtiyojlarni qondirishi zarurdir. Tana yashamasa, odam yashay olmasligini isbot qilish shart emas. Ayni vaqtda insonning fikrlashi uchun tanasiga zarur moddiy oziq lozim. Bundan har bir individ o'zining shaxsiy hayotini saqlab qolish huquqi kelib chiqadi. Bunday huquqning boshlang'ich nuqtasi hayotni, individ hayotini ta'minlash va nihoyat insoniyat yashab qolishiga erishishdan iboratdir.

Bir butun yaxlit borliq birligida inson borlig'ining o'rni qanday ahamiyatga ega? O'qituvchi bu savolni talabalar bilan birga yoritishi kerak. Inson o'z borlig'ini anglash va u haqda g'amxo'rlik qilishi kerak. Borliqning yagona tizimida inson o'zining ziddiyatli rolini yuksak anglamog'i lozim. SHuning uchun undan yuksak mas'uliyat talab qilinadi. Ayniqsa, uning insoniyat oldidagi mas'uliyati juda katta. Odamning aqli, zakovati va ishonchi bor, shuning uchun ma'naviy ulug'vorlik yovuzlikdan ustun kelishi muqarrar. SHundan so'ng ma'naviyat borlig'i ustida to'xtalish kerak.

Biz uni ikkiga bo'lgan edik. Avval birinchisini, keyin ikkinchisini qarab chiqish kerak. O'qituvchi gapni individuallashtirilgan ma'naviyatdan boshlaydi.

INDIVIDUALLASHTIRILGAN MA'NAVIYAT BORLIG'I

Ma'naviy hayot inson borlig'ining muhim bir bo'lagi. Ma'naviyat inson bilimlari, axloqiy, huquqiy qarashlari sistemasi, badiiy ijodiyotining me'yor va mezonlari kabilardan iborat.

Ma'naviyat - ong va ongsizlik jarayonlari, tabiiy va sun'iy tillarning moddiylashgan shakllarida mujassamlashgan bilimlaridan iborat.

“Ong” – mayl, istak, taassurot, hissiyot, kechinmalar, fikrlar, g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, andoza va ko'rsatmalardan iborat, Olam borlig'i oshkopa, ko'rinib tursa, ong borlig'i yashirin bo'ladi, ko'zga ko'rinmaydi. Ammo u real mavjud bo'ladi.

Ongning o'ziga xosligi shundaki, ong odam miyasiga xos xususiyat. U hayot jarayonlarida paydo bo'ladi va odam bilan birga o'ladi. Ammo ong to'liq o'lib ketmaydi, obyektivlashtirilgan ong sifatida avloddan-avlodga o'tadi. Ong va o'z-o'zini anglash inson borlig'ining afzalliklaridan biri. O'z-o'zini anglash - inson o'z jinsini, o'z fikrlari ma'nosini, hissiyotini, jamiyatdagi o'z o'rnini boshqa odamlarga munosabatini, o'z mohiyatini anglash, o'zini shaxs sifatida bilishidir.

Ijtimoiy ong deb ijtimoiy borliqni aks ettiradigan ijtimoiy qarashlar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular, g'oyalar yig'indisiga aytiladi. Ijtimoiy ong individual ongning mexanik yig'indisi emas. Ijtimoiy ong individ ongidan o'zining umumiyliigi, butun jamiyatga tegishli ekanligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyati uning ijtimoiy borliqqa ko'ra nisbiy mustaqilligida namoyon bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, u, birinchidan, ijtimoiy borliqdan orqada qolishi yoki ilgarilab ketishi mumkin. Ijtimoiy borliq tez, ijtimoiy ongning ayrim shakllari esa sekin o'zgaradi. Masalan, axloq, din kabi ijtimoiy ong shakllari o'ta yashovchan bo'ladi. Diniy va axloqiy qarashlar kishilarning ma'naviy mulki bo'lib qolganligi tufayli ularni keltirib chiqargan sharoit yo'q bo'lib ketsa ham, ular an'anaga, odatga aylanib uzoq davrlar saqlanib qoladi. SHuningdek, ijtimoiy ongning ayrim shakllari (masalan, badiiy adabiyot, fan nazariyalari) mavjud ijtimoiy borliqdan oldinlab ketishi ham sir emas. Ilg'or mutafakkirlar jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlarini analiz qilish asosida kelajakda bo'ladigan hodisalarni oldindan aytib

beradigan nazariyalar yaratishlari mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy ong o'z rivojlanishida vorislik tamoyillariga suyanadi. Yangi ijtimoiy g'oyalar o'tmish merosga asoslanib rivojlanadi. Ijtimoiy borliqda o'zgarish bo'lsa ham odamlar o'tmishda yaratilgan ma'naviy boyliklardan, axloq, fan adabiyot, san'at, falsafa va boshqa ijtimoiy ong shakllaridan keng foydalanadi. Bunday vorislik bo'lmagan ma'naviyat, ijtimoiy ong shakllari rivojlana olmaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy ong shakllarining jamiyat taraqqiyotidagi faol o'rni ular (g'oyalar, nazariyalar)ning inson turmushini yaxshilanishidagi ahamiyati bilan tasdiqlanadi. Ilg'or g'oyalar kishilarni birlashtiradi, muayyan vazifalarni bajarishga da'vat etadi. Yetilgan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Eskirgan qoloq g'oya va qarashlar jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Binobarin, "toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi".

Ijtimoiy ong haqida so'z yuritilganda, kundalik ong, nazariy ong tushunchalarini ham tavsiflash zarur. Kundalik ong kishilar amaliy faoliyatining tashqi, nazariy ong uning ichki, muhim tomonlarini aks etiradi. Amaliy, kundalik va nazariy ong bir-biri bilan uzviy bog'langan, ammo ular bir-birining o'rnini bosa olmaydi.

Ijtimoiy ongning xilma-xil shakllari mavjud: axloq, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy, ekologik qarashlar, demokratik ong, iqtisodiy ong va boshqalar.

Jamiyat - tabiatning bir qismi, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident SH.M.Mirziyoyevning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar, moddiy hayotni tadqiq etishga ko'proq e'tibor berilardi. Holbuki, jamiyat mohiyati uni

tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo‘lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma‘naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa ziddir. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida jamiyatning moddiy va ma‘naviy manfaatlarini uyg‘unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekani ta‘kidlangan. Inson ma‘naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. SHuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma‘naviyatini yuksaltirishga, milliy g‘oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e‘tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo‘lgani uchun ilmsiz bo‘lmaydi, balki, aksincha, ilmsiz bo‘lgani uchun qashshoq bo‘ladi. SHuning uchun yurtimizda xalq ma‘naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta‘minlashga katta e‘tibor berilmoqda.

Kishilarni oila va jamoa bo‘lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardan oq ulug‘ mutafakkirlar e‘tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish - uni ilohiy kuch, Alloh bilan bog‘lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko‘ra, odamlar o‘zlarining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo‘lib birlashishga intilgan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo‘lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o‘zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma‘naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari: oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa munosabatlarning barchasi bir so‘z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta‘lim-tarbiya, mahalla, vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Individuallashtirilgan ma'naviyatning yana bir xususiyati shuki, u ongsizlik hodisasini ham o'z ichiga oladi. Ongsizlikning bir qancha darajalari bor. Birinchi bosqich: inson jismi (tanasi)ning hayotini anglamagan holda psixik (ruhiy) nazorat qilishi. Bu nazorat avtomatik ravishda amalga oshadi, ya'ni ongsiz tarzda sodir bo'ladi. Ko'pgina mayl va istaklar ongsiz amalga oshadi: tush ko'rish bunga misol bo'ladi. Odamda ayrim holatlarda o'cib beruvchi qo'rqinch holati (psixozfobiya, parayoniya) va h.k. lar.

Ikkinchi bosqich: bedorlikdagi ongga o'xshash, ammo anglanmagan holatdir. Misol, biror bir fikrning pishishi, biror narsaning tug'ilishi, biror narsa haqida beixtiyor o'ylash.

Uchinchi bosqich: badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqa intuitsiyalarda sodir bo'ladi. Ongsizlik, onglilik bilan kirishib ketgan bo'ladi. Ong faoliyatining natijalari va konkret odamning ma'naviy faoliyati undan ajralib chiqishi ham mumkin. SHunda u ikkinchi tipdagi, ya'ni obyektivlashtirilgan ma'naviyatga aylanadi.

OBJEKTIVLASHTIRILGAN MA'NAVIY BORLIQ

Materializm ta'limotiga ko'ra ma'naviylik o'zining moddiy tashuvchisiz mavjud bo'la olmaydi. Madaniyat - ma'naviylikning moddiylashuvidir. Ular ichida eng universali ma'naviylikning tabiiy va sun'iy belgisi - ramziy shakllari bo'lib, ular keng tarqalgan.

Til hodisasi - individuallashtirilgan va obyektivlashtirilgan ma'naviylikning birligidan iborat. Til va ong, til va fikr aloqasining borlig'i mavjud. Ta'bir joiz bo'lsa, til fikrning voqeligidir deb aytish mumkin bo'ladi.

Obyektivlashtirilgan ma'naviy borliq qanday yashaydi? Ma'naviylikning ikki turi so'zlarda, tovushlarda, tabiiy va sun'iy tillarda qamrab olingan. Ma'naviylikning moddiy tashuvchisi - bu moddiy predmetlar va jarayonlardir. Masalan, kitoblar, loyihalar, chizmakashlik namunalari, rasmlarning rangi, naqqoshlik buyumlari, haykaltaroshlik asarlaridagi marmarlar, bronzalar va x.k.

Sotsial xotiralar saqlanadigan, uzatiladigan hozirgi zamon mashina va uskunalari va x.k. G'oyalar, fikrlar, qadriyatlar turlicha, ammo ular real mavjud. Moddiy tashuvchidan xoli bo'lgan sof g'oyalar bo'lishi mumkin emas. Obyektiv idealistlar (Platon, Gegel) materiyadan tashqari qaerdadir sof haqiqat, go'zallik va x. k. g'oyasi bor deb da'vo qilganlar. Qizig'i shundaki bu idealistik qarashlar ham bo'sh joyda paydo bo'lmagan. U real jarayonlardan kelib chiqqan, Masalan, ayrim narsalar yo'qolib ketsa ham, ularning g'oyasi saqlanadi: tegirmon, chig'ir, omoch, qorachiroq, Qo'qon arava, paranji, jinchiroq, sandal, xujra, xurjun va x k.

Borliq moddiy (tabiiy) va ruhiy olamdan iborat ekan, moddiy olam obyektiv, ruhiy olam esa subyektiv tasnifga egadir. Davr ruhi, ijtimoiy ong tarzidagi ruhiy olam individlarga nisbatan obyektivdir. Moddiy narsalarni bilishga nisbatan ruhiy borliqni bilish qiyinroqdir. Masalan, inson ichki olami, muayyan tarixiy davrdagi ruh, ijtimoiy ong yo'nalishi ham xuddi moddiy borliq kabi reallikdir. Muhabbat va nafrat, ishonch va ishonchsizlik ruhiy holati individlar xatti-harakati, o'zaro munosabatlarda moddiylashadi. Masalan, Adolf Gitlarning o'zini o'zi ulug'lashi, xokimiyatga intilishi, poraxo'rlik, vijdotsizlik, munofiqlik ham empirik voqelik bo'lib, kishilar boshiga cheksiz musibatlar keltirgan.

Insoniyatning ma'naviy hayoti, tsivilizatsiyasining ma'naviy boyligi, madaniyati, sotsial hayoti obyektivlashtirilgan ma'naviyatdir, "borliqning o'rni" – ma'naviyat olami bo'lib, ma'naviy axloqiy tamoyillar – g'oyalar, qadriyatlar (go'zallak, adolat haqiqat) jamiyatda alohida rol o'ynaydi.

Borliqni o'rganish olam birligini fahmlashning sharti, xolos. Biz endi shunga suyanib, olamning haqiqiy birligi muammosini o'rganishga kirishamiz. Bu masala ikkinchi mashg'ulotda qarab chiqiladi. U materiya, harakat, fazo va vaqt muammosidir.

Talabalarga materiya haqida tushunchalarni yakunlab, xulosa o'rnida quyidagilarni uqtirib o'tiladi. Har qanday individ hayoti davomida o'zi yashagan sotsial muhit ta'sirida va shaxsiy tajribasi asosida muayyan dunyoqarashga ega bo'lib, olamdagi narsa-hodisalarga ana shu dunyoqarashga muvofiq munosabatda bo'ladi. Materiya haqidagi tasavvurlarning kengayib, chuqurlashib borishi natijasida insoniyat olamning ichki sirlarini ochishga muvaffaq bo'lib boraveradi.

SHu bilan birga barcha fan moddiylik bilan ruhiylik o'rtasida mustahkam aloqa borligini isbotlamoqda. Tarixan bu har ikki tushunchaning bittasi mutloqlashtirilib, substantsiya masalasiga munosabatda ko'p tortishuvlar bo'lib keldi. Endilikda nazariy ongni parchalab, amaliyotda insonlar guruhlarini qarama-qarshi tomonlarga ajratib yuboradigan bunday qarashlarga barham berish, uning o'rniga "olam-odam" munosabatlarini insoniylashtirish borasida ilmiy bahs-munozara yuritishga o'tish maqsadga muvofiqdir. Biz yashayotgan olamda bitta tur bo'lgan odam zoti o'zaro hamkor, hamnafas bo'lib yashashga uzil-kesil o'tib olishi hamda turli ta'limotlar yordamida dushman obrazini yaratishdan tiyilish kerakligi bugungi tarixiy davr taqozosi bo'lib turibdi.

MATERIYA VA SUBSTANTSIYA TUSHUNCHASI

Substantsiya g'oyasi. Qadimgi falsafada vujudga kelgan borliqni talqin qilishga nisbatan o'zgacha yondashuv "haqiqiy borliq"ni biron-bir umumiy asosda, birinchi manbada, dunyoda mavjud hamma narsalarning birinchi sababidan izlashni nazarda tutadi. Gegel ta'biri bilan aytganda, bu yerda gap dunyoning umumiy asosini belgilovchi biron-bir narsaning «mavjud borlig'i» haqida boradi. Mazkur talqin dunyoning yagonaligi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lib, u dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsalar borliqqa ega ekanligi bilangina emas, balki mavjud barcha narsalar yagona asosdan kelib chiqishi va har qanday narsaga muqarrar tarzda xos bo'lgan ayrim umumiy, universal xossalar bilan tavsiflanishi bilan ham belgilanadi. Falsafada bunday asos **substantsiya** (lot. *substantia* – mohiyat, birinchi asos), narsalarning yagona asosdan ularning kelib chiqishi bilan belgilangan umumiy va uzviy xossalari esa – **atributlar** (lot. *attributum* – xos bo'lgan, qo'shib olingan) deb ataladi. SHunday qilib, biron-bir obyektning borlig'i deganda substantsional borliq, ya'ni obyektning substantsiyadan vujudga kelishi bilan belgilangan borliq tushunilsa, bu obyektни mavjud deb hisoblash orqali biz unda muayyan atributlarning mavjudligini taxmin qilamiz (holbuki "sof borliq"dan bunday borliqning tabiati haqida biron-bir taxmin kelib chiqmaydi).

Masalaga bunday yondashilganda borliq nima, degan savol substantsiya nima, uning atributlari qanday, degan savolga aylanadi. Falsafa tarixida bu masala yechimining turli variantlarini aks ettiruvchi ontologik kontseptsiyalar taklif qilingan.

Substantsiya tushunchasining mohiyati. 1. U yoki bu "narsa" nimadan iborat va qaerdan paydo bo'lgan? 2. Qarshimizda namoyon bo'ladigan narsalar rang-barangligida butun borliqning birinchi asosini tashkil etadigan, mazmunan umumiy, yagona nimadir bormi?

Falsafa tarixida *o'zining mavjudligi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo'lmagan shunday birinchi asosni ifodalash uchun "substantsiya"* (lot. *substantia* – mohiyat, asos) kategoriyasi qo'llaniladi. **Substantsiya deganda barcha narsalarning muayyan umumiy birlamchi asosi tushuniladi.** Turli

narsalar va hodisalar vujudga kelishi va yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lsa, substantsiyani yaratish ham, yo‘q qilish ham mumkin emas, u faqat o‘z borlig‘ining shaklini o‘zgartiradi, bir holatdan boshqa holatga o‘tadi. Substantsiya – o‘z-o‘zining sababi va barcha o‘zgarishlar asosi, borliqning eng fundamental va barqaror qatlami.

Ilk falsafiy yo‘nalishlarning vakillari barcha narsalar asosini tashkil etuvchi moddani birinchi asos sifatida tushunganlar. Odatda, bunday asos sifatida o‘sha davrda umumiy e’tirof etilgan birinchi stixiyalar: yer, suv, havo, olov yoki fikriy konstruktsiyalar, “birinchi g‘ishtlar” - apeyron, atomlar qaralgan. “Avesto”da birlamchi substantsiya olov deb atalgan. Keyinchalik substantsiya kategoriyasi o‘zgarmas, nisbatan barqaror va hech narsa bilan bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud o‘ta keng asosga aylandi. Inson idrok etadigan dunyoning butun rang-barangligi va o‘zgaruvchanligi substantsiya bilan bog‘langan. Bunday asoslar sifatida falsafada asosan materiya, Xudo, ong, g‘oya, efir va shu kabilar amal qilgan. “Substantsiya” tushunchasi o‘z-o‘zini to‘liq belgilovchi borliqni ifodalashga xizmat qiladi. Substantsiya kategoriyasida o‘zini asoslash uchun boshqa hech narsani talab qilmaydigan negiz, birinchi asos g‘oyasi mujassamlashgan. Niderland faylasufi Benedikt Spinoza (1632-1677) buni “causa sui” – “o‘z-o‘zining sababchisi” iborasida juda to‘g‘ri ifodalagan. Substantsiya deganda u o‘z holicha mavjud bo‘lgan va o‘zi orqali zohir bo‘lgan, ya’ni o‘zining mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj bo‘lmagan narsani tushungan. Bunda bir tomondan, substantsiya materiya sifatida tushuniladi, boshqa tomondan – u o‘zining barcha shakllari sababi va “subyekti” sifatida amal qiladi. Bu B.Spinozani substantsiyani bir vaqtning o‘zida ham tabiat, ham Xudo sifatida ta’riflagani va bu ikki tushunchani tenglashtirishganidan dalolatdir. B.Spinoza Xudoni tabiatga butunlay singdirib yuborgan, uni tabiiylashtirishga va ilohiy mazmundan ajratishga harakat qilgan. Uning panteizmi shundan iborat edi.

B.Spinoza ilgari surgan substantsiyani tabiiylashtirish g‘oyasini Golbax izchil rivojlantirdi. U barcha substantsiyali narsalarni tabiatga va faqat tabiatga bog‘ladi. “Tabiat hamma narsaning sababchisidir; u abadiy mavjuddir; tabiat o‘z-

o‘zining sababchisidir...”. “Tabiat qandaydir buyum emas; u doim o‘z holicha mavjud bo‘lgan; hamma narsa uning bag‘rida vujudga keladi; u barcha narsalar bilan ta‘minlangan ulkan ustaxonadir...”¹. SHu ma‘noda tabiat ham, substantsiya ham sirtidan hech qanday turtkiga muhtoj emas. Leybnits esa: “Har qanday haqiqiy substantsiya faqat va faqat ta‘sir ko‘rsatadi”², deganida haq bo‘lgan.

Modomiki, substantsiya hamma narsani o‘z ichiga oluvchi va o‘zi uchun boshqa hech qanday asos yoki shartni nazarda tutmaydigan birinchi sabab ekan, u o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud har qanday narsaning mavjud bo‘lish imkoniyatini istisno etadi. U xoh Xudo, xoh g‘oya, o‘zlik, ruh yoki ekzistentsiya bo‘lsin – substantsiya yagonadir! “Substantsiya” tushunchasi ko‘plikda qo‘llanilishi mumkin emas. Uning ko‘pligi g‘oyasi mazkur tushunchaning ta‘rifiga ziddir, chunki mazkur maqomga da‘vogar ikki yoki bir necha narsa mavjud bo‘lgan taqdirda, ularning birontasi ham substantsiya hisoblanmaydi. Substantsiyalilik paradoksi ana shundan iborat.

Alximiklar mazkur atamani ko‘plikda qo‘llab, “substantsiyali shakllar”, “substantsiyaga xos sifatlar” to‘g‘risida so‘z yuritganda, unga qo‘pol fizik ma‘no yuklaganlar. Ayni holda substantsiya moddaga tenglashtirilgan. Ular substantsiyaning xossa va shakllari o‘zgarmas, lekin tegishli ta‘sirlar natijasida bir-biriga aylanishi mumkin, degan noto‘g‘ri xulosaga kelganlar.

Substantsiyaning o‘z-o‘zidan amalga oshishi hodisalarning umumiy, uzviy xossalari – atributlarda va narsalarning muayyan, alohida xossalari – moduslarda sodir bo‘ladi. Substantsiya g‘oyasidan turli falsafiy ta‘limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o‘zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

SHuni ham aytib o‘tish zarurki, falsafaning “borliq” va “substantsiya” kabi ayniqsa, keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so‘z yuritar va muayyan faylasuflarning ularga bo‘lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, “falsafaning asosiy masalasi”ni uzil-kesil yechish tarafdorlari ilgari surgan

¹ Гольбах // Всемирная энциклопедия.-М.: Современный литератор, 2001.-С.246.

² Лейбниц // Всемирная энциклопедия.-М.: Современный литератор, 2001.-С.548

mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni ma'lum darajada shartlilik bilan monistlar, materialistlar, idealistlar, dualistlar va plyuralistga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa ko'p muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy g'oyalar, yo'nalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qo'yilayotgan bo'lsa, bunday ajratish mutlaqo o'rinlidir.

Monizm. *Dunyoning narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substantsiyadan iborat degan ta'limot "monizm" (yunon. monos – bitta, yagona) deb ataladi.* Dunyoning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar, shuningdek birinchi asos muammosiga nisbatan falsafa tarixidagi eng salmoqli yondashuvlar kurashi nuqtai nazaridan substantsiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialistik va idealistik monizmni qayd etish lozim.

Materialistik monizm deb tavsiflanadigan birinchi yondashuv *dunyo yagona va uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni shu moddiylik yotadi,* deb hisoblaydi. Bu kontseptsiyalarda ruh, ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o'ta rivojlangan ko'rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza, va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz. SHuningdek Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"ning "Yashtlar" qismidagi ko'pxudolik aqidalariga zid o'laroq "Gohlar" qismida yakkaxudolik g'oyalari targ'ib qilingan.

Idealistik monizm esa, *materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo'q bo'lmasligi va birinchi asosiga ega bo'lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli* deb hisoblaydi. Bunda obyektiv-idealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o'lmas g'oyalar, zardo'shtiylikda olov, o'rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o'z-o'zidan rivojlanadigan «mutlaq g'oya») va subyektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruktsiyalari, "elementlari"dan keltirib chiqargan. Max.) farqlash mumkin.

Substantsiyani barcha o'zgarishlar va o'z-o'zining sababchisi – "causa sui"

sifatida tushunish I.Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substantsiyani “hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o‘zgarmas asos”, deb ta’riflagan. Uningcha, substantsiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda bo‘ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o‘zgarish uning modusi, ya’ni o‘zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Dualizm. *Birinchi asos sifatida ikkita substantsiya olingan falsafiy yondashuv dualizm* (lot. dualis – ikki yoqlama) deb ataladi. Nemis faylasufi X.Volf XVIII asr boshida “dualizm” atamasini falsafiy muomalaga kiritgan. X.Volf dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g‘oyalar va aql-idrokning alohida o‘rnini aniqlash hamda ta’kidlashga harakat qilgan. Uning zamondoshlari – ma’rifatli absolyutizm g‘oyalarining tarafdorlariga ta’siri juda katta bo‘lgan. X.Volfning falsafaga oid qo‘llanmalari barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilgan va eskirgan (sxolastik) jihatlarni siqib chiqargan. Ular universitet ta’limining asosiy manbalari sifatida amal qila boshlagan.

Frantsuz materialist faylasufi J.Lametri (1709-1751) o‘zining “Ruhning tabiiy tarixi” deb nomlangan asarida dualizmni inkor qiladi. U o‘zida tajriba o‘tkazgan – bezgak kasalligiga chalingach, uning kechishini kuzatgan, pirovardida, insonning ruhiy holati uning jismoniy vujudiga bog‘liq, degan xulosaga kelgan. J.Lametri monistik-materializmni himoya qilib, cheksiz takomillashuvchi yagona moddiy substantsiya mavjud, degan g‘oyani ilgari surgan. Substantsiyaga xos sezish va fikrlash qobiliyati vujudli jismlarda mavjud bo‘ladi. Sezish va fikrlash qobiliyatining o‘zi tashqi jismlarning miyaga ta’siri bilan bog‘liq. SHu sababli aynan tashqi dunyo insonning “miya ekrani”da aks etadi, tana ehtiyojlari esa, J.Lametrining fikriga ko‘ra, “aql mezoni” sifatida amal qiladi.

Ikki asos, aytaylik, muhabbat va nafrat, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va zaruriyatning teng huquqliligi g‘oyasi ilgari surilgan har qanday falsafiy nazariya dualistik nazariya sifatida amal qilgan.

Rene Dekart falsafa tarixidan dualizmning yorqin vakili sifatida o‘rin oldi. R.Dekartning radikal mexanitsizmi uni materiyaning butunlay ruhsizligi haqidagi

yondashuvga olib keldi. R.Dekart nazarida, moddiy jismoniy substantsiya o'z atributi sifatida uzunlik, kenglik va chuqurlik ko'lamigagina ega. U mutlaq bo'shliqni istisno etadi, harakatlanish, ya'ni jismoniy zarralarni bo'lish, joydan-joyga ko'chirish va o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Ma'naviy hayot faylasuf nazarida moddiy hayotdan alohida, o'zining bilish va fikrlash faoliyati, intellektual intuitsiya va deduktsiya kabi o'ziga xos ko'rinishlarida namoyon bo'ldi. U ruhiy substantsiyaning butunlay jisimsizligini e'tirof etdi. Garchi R.Dekart yangi falsafa va fan asoschilaridan biri bo'lsa-da, uning g'oyalarida o'rta asr falsafasidan meros qolgan "substantsiya" atamasining alohida narsani tushunish uchun qo'llanilishiga, shuningdek, u ikki muhim - universal va cheksiz substantsiya – fikrlash va ko'lamni alohida erkin maqomga ega, deb e'lon qilganiga duch kelish mumkin. R.Dekartning "cogio ergo sum" – "men fikrlayapman, demak, mavjudman", degan iborasi falsafiy tafakkurni barcha narsalarning negizi sifatida tan olganligidan dalolat beradi. R.Dekart fikrlovchi substantsiyaning uzviyligini va har bir "Men", ya'ni aqlli jonzo'tga bevosita, ko'lamli substantsiya esa – bilvosita ochiqligini isbotladi. Ajralmas substantsiya (aql) metafizikaning o'rganish predmetini, ajraluvchi substantsiya (ko'lam) esa fizika predmetini tashkil etadi.

Ikki substantsiya – ma'naviy va moddiy substantsiyalarni farqlash, bu mantiqiy nuqtai nazardan noto'g'ri va ratsional ma'noda juda ko'p qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Fikrlash va ko'lamga ikki substantsiya tarzida, ya'ni bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil asoslar sifatida yondashilganida, "ruh" va "tana" o'z harakatlarida qanday uyg'unlashishi, umuman, "tana" qanday qilib fikrlash qobiliyatini kasb etishi mumkinligini tushunish qiyin. Mohiyat-e'tiboriga ko'ra, substantsiya butun mavjudot asosi, hamma narsani o'z ichiga oluvchi va o'zini namoyon qilish uchun hech narsaga muhtoj bo'lmagan yagona birinchi asos sifatida namoyon bo'lgan

Plyuralizm. *Dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko'proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limot plyuralizmdir.* "Plyuralizm" (lot. – ko'plik, ko'p xillik, ko'p sonlik) atamasini ham X.Vol'f 1712 yilda taklif qilgan. Bu tushuncha

ontologiyada ayniqsa, jiddiy qiyinchiliklar tug'dirgan. Chunki ayni shu ta'limotda borliqning ko'p sonli mustaqil va o'zaro bog'lanmaydigan asoslarini ilgari surish lozim edi.

Leybnitsning "monadologiyasi", ya'ni monadalar haqidagi ta'limoti plyuralizmning klassik ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko'ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substantsiyalardan tashkil topadi. Ammo, plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to'rt asosi haqidagi ta'limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi.

Ba'zan plyuralizmga mustaqil ta'limot sifatida emas, balki dualizmning o'zgargan ko'rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o'z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda yechimini topmagan ruh va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Materiya (lot. materia - modda) - borliqning moddiy shaklini ifodalovchi umumiy tushuncha. "Materiya" tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor Platon ishlatgan.

Olamda "umuman odam" bo'lmaganidek "umuman materiya" ham bo'lmaydi, balki materiyaning aniq, ko'rinishlari uchraydi. SHu tarzda fikr yuritgan faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumlashtirib ifodalash uchun materiya tushunchasini qo'llashgan.

Har qanday obyektning o'ziga xos bo'lgan, uning shunday obyekt ekanligini ifodalovchi ajralmas xususiyat (atribut)lari bo'ladi. Materiyaning ham bir qancha atributlari mavjud: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va h.k. Bu atributlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, moddiy olamdagi eng umumiy va universal aloqadorlikni ifodalaydi, materiyaning jonlantiradi, namoyon qiladi, shakl beradi, o'zgartiradi, rivojlantiradi¹.

Ilmiy muloqotda moddiy narsalar tarixan materiya kategoriyasi bilan izohlangan. Materiya narsalar xilma – xilligi mavjud bo'lgan obyektiv reallikni

¹ Фалсафа, Т., 1999; Философия. Курс лекций, Т., 2002.

ifodalovchi falsafiy kategoriyadir va odam ongidan tashqaridagi bu voqelik uning ongiga ta'sir etib, idrok qilinadi. SHu jarayonda odam ongida materiyaning konkret ko'rinishlari haqida tasavvurlar hosil bo'ladi. Materiya tushunchasini moddiy olamning substrati (asosi) sifatida Platon va Aristotel ishlab chiqqan, shu bilan birga materiya sof potentsiya (yashirin imkoniyat) deb tushunilgan.

Platon (Platon) Afinalik, Aflotun (haqiqiy ismi Aristokl; mil. av. taxm. 427.27.5 - Afina - 347) - yunon faylasufi, platonizm asoschisi. Sokratning shogirdi. Sokrat unga «Platon.» (keng yelkali, keng ko'krakli degan ma'noni beradi) deb nom qo'ygan.

Platon falsafasining asosiy mohiyati — “ideya” (“g'oya”, “eydos”)lar haqidagi ta'limotida bayon etilgan. Uning fikricha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning in'ikosidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bila olmaydi. Ularni biladigan zotlar juda kam uchraydi, bu zotlar ulkan akl egalari bo'ladi. Aksariyat kishilar soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi. Platon g'oyalar dunyosini narsalar dunyosidan ustun qo'yadi, chunki g'oyalar dunyosi ideal narsalardir. Inson g'oyalar dunyosi bilan soyalar dunyosi o'rtasidagi zotdir. Uning ruhi g'oyalar dunyosiga, jismoniy tanasi soyalar dunyosiga mansubdir. SHuning uchun ruh va tana birligidan iborat odam ikki olamga tegishlidir. Ruh insonning haqiqiy qismidir. Biz hayot deb ataydigan narsa ruh jismoniy tanada yashaydigan vaqtdir. Platonning bilish nazariyasi uning g'oyalar haqidagi nazariyasiga asoslanadi. Bilish - anamnesis, ya'ni jonning eydoslar haqidagi xotirasi. Eydosga bo'lgan muhabbat (eros) ma'naviy yuksalishga undaydigan sababdir.

Platon pedagog va tarbiya nazariyotchisi sifatida ham mashhur. Grajdanlarni tarbiyalash davlatning asosiy vazifalaridan deb hisobladi. Uning fikricha, bolalar hayotining birinchi kunidanoq maxsus muassasalarda tarbiyalanishi kerak: 3-7 yoshda o'yinlar maktablaridagi uylar yoki bog'chada ta'lim olishi; 7-17 yoshda maktabda yozuv, o'qish, musiqani o'rganishi; 17-20 yoshda harbiy-gimnastik ta'lim olishi; 20-30 yoshda kelajakda hukmdor uchun zarur bo'lgan falsafiy ta'lim olishi

lozim.

Platon qarashlarida jamiyat, davlat to'g'risidagi ta'limot markaziy o'rinlardan birini tashkil qiladi. U davlat fuqarolarini 3 tabaqaga bo'lgan: 1-tabaqa - davlatni boshqarib turadigan donishmand hukmdorlar; 2-tabaqa - davlatni dushmandan himoya qiladigan harbiylar; 3-tabaqa - davlatni va yuqoridagi 2 tabaqani moddiy jihatdan ta'minlab turadigan deqqonlar va hunarmandlar. Platon davlat boshqaruv shaklini oliy hokimiyat tanho amalga oshiriladigan monarxiyaga, tor doiradagi cheklangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan aristokratiyaga, butun xalq xokimiyatni boshqaradigan demokratiyaga ajratadi. Platon 4 asosiy fazilatni farq qiladi: donishmandlik, mardlik, aql bilan ish qilish va eng asosiysi - boshqa fazilatlar o'rnini to'ldiradigan va qo'shib ketadigan fazilat – adolat. Platonning ideal davlat to'g'risidagi orzulari asosida adolat g'oyasi yotadi. Uningcha, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. Qaerdaki, qonunlar hokim ustidan hukmron bo'lsa, hokimlar esa qonunga qul bo'lsa, o'sha davlat gullab yashnaydi. Agar davlat qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni o'rnatib qo'yadigan bo'lsa, u holda qonun hech qanday foyda bermaydi, aksincha, davlat uchun juda katta zarar keltiradi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyot polis (davlat)ning gullab yashnashi yoki tanazzuli omili hisoblanadi. Ishlab chiqarish siyosatni emas, siyosat ishlab chiqarishni boshqarishi kerak. Jamiyatni barqaror holatdan chiqaradigan har qanday o'zgarishlarga yo'l qo'yilmasligi zarur.

Platonning estetik qarashlarida borliq, hayot "abadiy g'oya"larning taqlidi, nusxasi; san'at esa borliq, hayotning taqlidi, ya'ni taqlidga taqlid, degan xulosaga asoslangan. U xudolarga bo'lgan e'tiqodni qo'llab-quvvatlagan, xudosizlarni qoralagan, davlatni boshqaruvchilar xudojo'y bo'lishlari kerak, deb hisoblagan.

Aristotel (Aristoteles), Arastu miloddan avvalgi 384-383 yilda tug'ilgan, Yunonistonning buyuk faylasufi. U qomusiy bilimlar sohibi, peripatetika maktabi asoschisi, uning ta'limoti ayrim, alohida fanlarni falsafiy nuqtai nazardan yoritib berdi. Fan sohalarini tasniflashda falsafiy tizim yaratish bilan Arastu insoniyat tafakkurini rivojlantirishga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Arastu ijodi o'z zamonidagi deyarli barcha bilim sohalarini qamrab oldi. O'zining "ilk falsafa"ga oid ("Metafizika") asarida Platonning g'oyalar nazariyasini tanqid qildi. "Platon g'oyalari moddiy predmetlarning oddiy nusxasi, aynan o'zi ekanini ko'rsatdi. Arastu ayrimlik va umumiylikning o'zaro munosabati masalasini hal etdi. Ayrimlik "biron-bir joy"dagina va "hozir"dagina mavjuddir, uni his bilan idrok etish mumkin. Umumiylik esa har qanday joyda va har vaqtda ("hamma yerda" va "hamma vaqt") mavjud, u muayyan sharoitda ayrim holda yuzaga kelib, shu ayrimlik orqali idrok qilinadi. SHuningdek, umumiylik - fan predmeti, uni aql vositasida bilib olish mumkin. Arastu olamdagi hodisalar va predmetlarning sabablarini to'rt guruhga bo'ladi: 1) moddiy sabab yoki materiya; 2) shakliy sabab yoki shakl; 3) yuzaga keltiruvchi sabab; 4) oxirgi sabab yoki maqsad. Garchi Arastu materiyanı dastlabki sabablardan biri, deb e'tirof etsa ham, uni faqat passiv asos, imkoniyat xolos, qolgan uch sababni esa - faol sabab, deb hisoblaydi. Macalan, uning fikricha, shaklsiz hech qanday narsaning bo'lishi aslo mumkin emas, shakl - borliq mohiyatidir, shakl - abadiy, o'zgarmas va moddiy sababdan ustunrokdir. Yuzaga keltiruvchi sabab harakat yoxud turg'unlik manbaidir. Harakat, deydi Arastu, biron-bir narsaning imkoniyatdan voqelikka o'tishidir. Harakatning to'rt turi bor, bular: sifatli harakat yoki o'zgarish; miqdoriy harakat yoki ko'payish va kamayish; joyni o'zgartirish yoki makondagi harakat; vujudga kelish va yo'q bo'lishdan iborat. Oxirgi sabab yoki maqsad - harakat, o'zgarish, inson faoliyatining oqibatidir. Arastu ta'limotiga binoan, xudo - o'z qonunlari bo'yicha rivojlanayotgan barcha shakllar, tabiatdagi jamiki hodisalar va hamma mavjud narsalarning oliy maqsadi, "shakllarning shakli", maqsadi, olamni harakatga keltiruvchi ilk kuchdir. Arastu nazariyasiga ko'ra, har qanday real mavjud bo'lgan ayrim narsa "materiya" bilan "shakl"ning birligidan iborat, "shakl" esa narsaning o'ziga xos "ko'rinishi"dir, unga ham "materiya", ham "shakl" deb qarash mumkin. SHu tariqa butun voqe olam "materiya"dan - "shakl"ga va "shakl"dan - "materiya"ga izchil ravishda o'tish jarayonidan iborat.

Materiyanı R. Dekart fazoviy ko'lam va bo'linadigan moddiy substantsiya deb ta'riflagan va u XVII-XVIII asrlarda materializmning asosi bo'lgan. Materiya

dialektik materializmning asosiy tushunchasidir. Materialist faylasuflar materiya tushunchasini biryoqlama bo'rttirib, borliq tushunchasi bilan aynanlashtirib talqin etishadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni umumlashtiruvchi tushuncha substantsiya (mohiyat) deb ataladi. Olamning asosida bitta substantsiya yotadi deb hisoblovchi oqim monizm, ikkita substantsiya yotadi deb hisoblovchi oqim dualizm, ko'p substantsiyalar yotadi deb hisoblovchi oqim plyuralizm deb atalgan.

Materiyani metafizik tushunish unga o'zgarmas, turg'un, ichki ziddiyatlar va o'zaro ta'sir hamda rivojlanishdan xoli deb qarashdan iboratdir. Bunday yondashuv fanning yangi hodisalarini tushuntirib berishga ojizdir va shu sababli ham inqirozga olib keldi. Bunga misol qilib XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi fizikadagi vaziyatni keltirish mumkin. Bo'linmas deb hisoblab kelingan atomlarning bo'linishi materiyaning tuzilishi haqidagi eski tasavvurlarni tubdan yemirib tashladi.

XIX asrning oxirlarigacha atom (a-inkor, tom-qism) "bo'linmas" ma'nosini bildirib, materiyaning oxirgi g'ishtchasi hisoblanib kelingan. Agar atom bo'linmasa materiyaning ham miqdori o'zgarmaydi. Nyuton fizikasida shu miqdor maxsus fizik kattalik bilan xarakterlanadi. Massa materiya miqdorining me'yori sifatida talqin etilgan. SHuningdek, massa energiyaning me'yori deb ham qaralgan. Bunday qarash ko'p zamonlargacha olamni ilmiy tasvirlashda asosiy narsa bo'lib keldi. Atomning bo'linmasligi tabiatda ularning miqdorining o'zgarmay qolishligini bildirar edi. Buni materiyaning saqlanishi deb talqin etildi.

Bunday qarash o'z navbatida yangi kashfiyotlarning to'g'ri talqin etilishiga to'siq bo'lib keldi. Masalan, A. Bekkerel tomonidan 1896 yilda kashf etilgan radioaktivlik hodisasi 6 yil mobaynida to'g'ri tushuntirib berilmadi. Agar uran moddasi va boshqa radioaktiv moddalar o'zidan doimiy energiya chiqarsalar, buni ular qaerdan oladilar? Ular hech qaerdan energiya olmay turib o'zidan energiya chiqaradi, deb aytilsa energiyaning saqlanish qonuni buzilar edi. Faqat 1902 yilga kelib Rezerford va S. Soddi bu ziddiyatlarni hal etdilar. Ular radioaktivlik hodisasi atomlarning o'z-o'zidan parchalanishining natijasi ekanligini, kimyoviy elementlarning bir-biriga aylanishi ekanligini isbotlab berdilar. Ular atomlarning

parchalanish g'oyasini ilgari surib materiyaning metafizik kontseptsiyasiga zarba berdilar. Materiya dialektik yondashuv esa atomlarning bo'linishi materiyaning yo'qolishi emas, balki materiya to'g'risidagi bilimlarimizning kengayishi deb tushuntirdilar. Elektron ham atom kabi bepoyon, tabiat benihoyadir. Bunday qarashga mashhur fizik Maks Boron yuksak baho bergan edi. Materiya berilgan ta'rif kishilarning dunyoqarashini shakllantiradi, olam to'g'risida to'g'ri va ilmiy tasavvur uyg'otadi, dunyo va uning mohiyati, odamning unda tutgan o'rni, o'z hayoti to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Falsafada materiya kategoriyasi yetakchi tushuncha hisoblanadi. Materiya bo'lgan munosabatga qarab falsafiy maktablarning mohiyatini anglab olish, uni qaysi oqimga mansubligini bilib olish mumkin. "Materiya obyektiv reallikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya bo'lib, uni inson o'z sezgilari bilan idrok qiladi, u sezgilarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, biz sezgilarimiz orqali, uning nusxasini olamiz, suratini hosil qilamiz va in'ikos etamiz". Mazkur ta'rifdagi muhim tomonlar quyidagilardir:

1. Materiya ongga bog'liq bo'lmagan holda mavjud.
2. Sezgilari orqali uning nusxasi, surati hosil qilinadi, in'ikos etiladi.
3. Materiya – falsafiy kategoriyadir.
4. Unda obyektiv reallik aks etadi.
5. Olamni bilish mumkin.
6. Agnostitsizm fosh etiladi.
7. Bilish — in'ikos jarayonidir.

Materiyaning mazkur ta'rifiga asoslanib falsafaning asosiy masalasini aytilganlardan kelib chiqadigan xulosaga tayanib materializm va idealizmning farqini yanada teran anglash mumkin.

Ya'ni, materiyaning substantsional harakteri shundaki, materiya obyektiv reallik sifatida olamning negizini, ibtidosini tashkil qiladi. Materiyaning yagona xususiyati uning obyektiv reallik ekanligidir. Materiya doimo bo'lgan, bor, bo'ladi. U abadiy, doimo o'zgarib, bir shakldan ikkinchi shaklga o'tib turadi. U

yaratilmas va yo‘qotilmasdir. Materiya absolyut va umumiydir. U bitmas va tuganmasdir. Materiyaning ajralmas xususiyatlari bor. Ular harakat, makon, vaqt va strukturadir. Materiya ularsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Materiya borlig‘i o‘tkinchimas, ammo uning konkret turlari o‘tkinchidir. Materiyaning bilishni istagan odam uning ayrim shakllarini o‘rganishi zarur. “Materiya va harakatni, - degan edi F Engels, - faqat ayrim moddalarni o‘rganish yo‘li bilangina bilish mumkin” (F. Engels, “Tabiat dialektikasi”).

Materializm dunyodagi narsa va hodisalar xilma-xil, ularni birlashtirib turgan narsa ularning obyektiv realligi, deb ta’lim beradi. Ana shu obyektiv reallik materiya kategoriyasida aks etadi. SHuning uchun materiya deyilganda biz obyektiv reallikni tushunamiz: Materiya sezgi organlarimizga ta’sir etib, sezgi uytotadigan narsadir, materiya biz sezgilarimiz bilan idrok qilinadigan obyektiv reallikdir. SHunday qilib, materiyaning barcha turlariga xos bo‘lgan umumiy belgi obyektiv real bo‘lishligida, bizning ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lishligidadir. Bu belgi materiyaning obyektiv qonunlariga bo‘ysunishi, uning doimo o‘zgarib, harakat qilib, rivojlanib turishini, dialektik jarayonni boshidan kechirib turishini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlarning manbai materiyaning o‘zida, ichki ziddiyatlarida ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Materiyaning ta’rifi tabiatshunoslik uchungina emas, balki ijtimoiy fanlar uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. U tarixni materialistik tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong mohiyatini anglab olishga ko‘mak beradi. Eng murakkab hodisalardan biri – bu ma’naviy hodisalardir.

Individual ong esa materiya taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keldi. Materiya va ong nisbati haqida gapirganda ularning qarama-qarshiligi falsafaning asosiy masalasi doirasidan tashqarida o‘z ahamiyatini yo‘qotishligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ularning qarama-qarshiligi nisbiy va ma’lum sharoitda ular bir-biriga o‘tadi. Ong materiya tufayli o‘z borlig‘iga ega bo‘ladi. U materiyaning xususiyati, u materiyaning tashqarida mustaqil mavjud bo‘la olmaydi. SHu boisdan “Onga materiya bilan birga bo‘lish qarg‘ishi tekkan”, - degan ibora mavjud. Olamda esa harakatlanuvchi materiyaning boshqa narsa yo‘qdir.

Materiya murakkab tuzilishga ega. Uning strukturaviy darajasi turlicha. Materiya bitmas-tuganmas. SHuning uchun uning turlari ko'p, xususiyat va holatlari xilma-xil. Amaliyot jarayonida ularni bilib boramiz.

Materiyaning tashkil topish darajalari.

Materiya - dunyodagi cheksiz barcha obyekt va sistemalar bo'lib, har qanday xususiyat, aloqa, munosabat va harakat shakllarining substrati (asosi)dir. Materiya tabiatda bevosita ko'z bilan ko'riladigan obyektlar va jismlarnigina emas, balki kuzatish vositalari va eksperimentning takomillashishi asosida kelgusida bilinishi mumkin bo'lgan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Materiya o'zining xossalari, xususiyatlari orkali namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, har qanday jism molekulalardan, molekulalar atomlardan, atomlar proton va neytronlardan tashkil topgan va h.k. Sifat jihatdan materiya ikki: moddasimon va nomodda ko'rinishida uchraydi. Moddasimon ko'rinishi modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifat o'zgarishi ro'y beradi, ya'ni modda nomoddiy ko'rinishga, nomodda esa moddiy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddiy ko'rinishi ham ikki: maydon va nurlanish shaklida uchraydi. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda moddiy zarralarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Materiyaning yuqorida qayd etilgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum emas.

Materiya tashkil topishining notirik, tirik va ijtimoiy materiya darajalari farqlanadi. Ular borliqning asosiy shakllari bilan mos keladi. Bunda turli darajalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayni vaqtda ularning tarkibida muayyan ierarxiya va soddaroq shakllardan (jonsiz materiyadan) murakkabroq shakllar (jonli va ijtimoiy materiya) sari yuksalish kuzatiladiki, bugungi kunda ularning mavjudligi faqat sayyoramizga nisbatan o'zining ilmiy tasdig'ini topgan. Jonsiz tabiatning tuzilishi va rang-barangligi haqidagi tasavvurlar esa, mikro-, makro- va megadunyolarni qamrab olib, tinimsiz kengayib va teranlashib bormoqda.

XX asrda bu borada ayniqsa katta yutuqlarga erishildi. Asr boshida modda diskret zarralardan iborat qandaydir uzluksiz narsa sifatida, maydon esa uzluksiz

moddiy muhit sifatida tushunilar edi. Endilikda, kvant fizikasi, nisbiylik nazariyasi va boshqa tabiiy-ilmiy g'oyalarning rivojlanishi bilan modda va maydon o'rtasidagi farq nisbiy tus oldi, kashf etilayotgan elementar zarralar esa o'zining rang-barangligi bilan kishini hayratga solmoqda. Bu sohada yechilmagan muammolar hali bisyor bo'lsa-da, fan materiya tashkil topishining «subelementar» darajasini o'rganib, elementar zarralarning yagona tabiatini tushunishda sezilarli darajada yutuqqa erishdi. Bu yerda so'nggi yillarda plazma, materiyaning alohida holati sifatidagi fizik bo'shliq hodisalari va materiyaning cheksizligi haqidagi g'oyani tasdiqlovchi boshqa jarayonlar kashf etildi va o'rganilmoqda.

Hozirgi davrda materiyaning uch tarkibiy darajasi farqlanadi:

- mikrodunyo – atom miqyosidan kichik bo'lgan elementar zarralar dunyosi.
- megadunyo – o'zaro gravitatsion doimiylik asosida yashovchi koinot dunyosi (sayyoralar, yulduzlar komplekslari, galaktikalar, megagalaktikalar);
- makrodunyo – barqaror shakllar va insonga mos kattaliklar dunyosi (unga molekullarning krisstallashgan komplekslari, organizmlar, organizmlarning hamjamiyatlari ham kiradi).

Materiya tarkibiy darajalarining aniq chegarasini aniqlash mushkul. Uni fan doimo qayd etavermaydi. Bizning bilimlarimiz tobora chuqurlashib, darajalarning yangi va yangi sifat chegaralarini aniqlaydi. Materiyaning tarkibiy darajalari to'g'risida so'z yuritilganida, subelementar, mikroelementar, yadroviy, atom, molekulyar, makroskopik va kosmik darajalar ham tilga olinadi. Materiyaning mikroskopik darajasida fizika taxminan 10-15 sm uzunlikda taxminan 10-22 ga teng vaqt ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Megadunyoda esa, kosmologiya taxminan 10¹⁰ ga teng vaqt (Koinot yoshi) ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganadi. Materiyaning tarkibiy darajalari g'oyasi metodologiya mutaxassislari tomonidan sababiyat va dunyoni bilish mumkinligi g'oyasi bilan bir qatorda juda yuksak baholanadi.

Ayni vaqtda shuni qayd etish zarurki, materiyaning tarkibiy darajalari tasnifi zahirida chiziqli ierarxiya tamoyili yotadi. Bu yerda «qism butundan kichkina» tamoyili amal qiladi. Lekin bu dunyolarning biri soddaroq, ikkinchisi murakkabroq,

degan ma'noni anglatmaydi. Dunyolar qism va butun sifatida taqqoslanmaydi, ular universumning o'ziga xos teran o'zgarishlarini ifodalaydi. SHu bois bu tasnifni mutlaqlashtirish kerak emas.

Yuqorida aytilganlarga ishonch hosil qilish uchun misol keltiramiz. Butun sonlar qatori 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, ... n ni olamiz, bu to'plamdan kichik to'plam – juft sonlar qatori 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14, ... n ni ajratamiz. Dastlab juft sonlar qatori butunning, ya'ni butun sonlar qatorining bir qismigina bo'lib tuyuladi. Ammo ularni taqqoslasak, juft sonlar qatori butun sonlar qatori kabi cheksiz ekanligini ko'ramiz. Binobarin, bu yerda qism butun bilan teng.

Bundan tashqari, mikrodunyoda o'tkaziluvchi barcha eksperimentlar g'ayrioddiy natijaga olib keladi. Mikrodunyo azaldan jumboqlarga to'la, deb aytish mumkin. Ikki elementar zarra to'qnashuvidan keyin hech qanday kichikroq elementar zarralar hosil bo'lmaydi. To'qnashgan zarralar bilan bir xil, ya'ni elementar zarralar, masalan, ikki proton to'qnashuvidan keyin boshqa ko'plab elementar zarralar, shu jumladan, protonlar, mezonlar, giperonlar vujudga keladi. Zarralarning «ko'plab tug'ilishi» hodisasini Geyzenberg quyidagicha tushuntirgan. Elementar zarralar to'qnashganida ko'p miqdordagi kinetik energiya moddaga, paydo bo'luvchi zarralarga aylanadi va biz zarralarning ko'plab tug'ilishi jarayonini kuzatamiz. Yarim asr muqaddam elementar zarralarning atigi uch turi - moddaning eng kichik elementlari – elektron va proton hamda energiyaning eng oz portsiyasi hisoblangan foton ma'lum bo'lsa, hozir 200 dan ortiq elementar zarralar kashf etilgan. Oddiy obyektlar tarkibini aniqlash uchun, «qandaydir kichikroq elementlardan tashkil topadi» formulasi mos kelsa, bu mikrodunyoni tavsiflashga mos kelmaydi.

Mikrodunyoning boshqa bir g'ayrioddiy effekti mikrozarraning ikki yoqlama tabiati, ya'ni u ham korpuskula, ham to'ldirib iborat ekanligi bilan bog'liq. SHu sababli bunday zarra makon va zamonda aniq o'rin olishi mumkin emas. Bu xususiyat Geyzenbergning nomuayyanliklarning o'zaro nisbati tamoyilida o'z aksini topgan.

Materiyaning tarkibiy darajalari ierarxiyasida inson markaziy o'rinni

egallaydi. Qadimdayoq Protagor «Inson hamma narsalarning o'lvchovidir», degan edi. Dunyoni o'zlashtirishda inson qadriyatlari shkalasini andoza sifatida qabul qiluvchi falsafiy ta'limot – «Antropologizm» zahirida ana shu tezis yotadi. Materiya tuzilishining inson tomonidan kuzatiluvchi darajalari odamlar yashovchi muhitning tabiiy shart-sharoitlarini, ya'ni bizning dunyoviy qonuniyatlarimizni hisobga olgan holda o'zlashtiriladi. Lekin bu bizdan ancha olisdagi darajalarda materiyaning mavjud shakllari va holatlaridan butunlay farq qiluvchi, mutlaqo boshqacha xossalr bilan tavsiflanuvchi «g'ayritabiiy» shakl hamda holatlari mavjud bo'lishi mumkin, degan taxminni istisno etmaydi. SHu munosabat bilan olimlar geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlarni farqlay boshladi.

Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Geotsentrik dunyo haqidagi tasavvur Yer miqyosidagi obyektlariga daxldor nazariyalarning umumlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan. Unda, aynan Yer dunyosi andoza va negiz sifatida qabul qilinadi. Geotsentrizm ta'limotiga ko'ra, moddiy tizimlarning atributlari barcha darajalarda biz Yer sharoitida duch keluvchi atributlar bilan bir xil bo'ladi. Geotsentrizm makon, zamon, sifat, sababiyat va boshqa atributlar ontologik ma'noda yagonadir, degan tasavvur tug'diradi.

Lekin materiyaning cheksizligi g'oyasidan kelib chiqib, atributlarning amaliyot bizni hozirgacha tanishtirgan turidan tashqari, «geotsentrik obraz»dan farq qiluvchi ko'plab boshqa turlari ham mavjudligini faraz qilish o'rinli bo'ladi. Bu atributlarning boshqa turlari, o'zga makon, zamon, harakat bilan tavsiflanuvchi obyektiv borliqning alohida turi sifatidagi nogeotsentrik tizimlar, ya'ni geotsentrik dunyoga uncha o'xshamaydigan dunyolar to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi.

Geotsentrik dunyo bu shunday dunyoki, atributlari universal mazmunining, inson tanasi mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmuniga mos kelishidir. Bu Nyuton vaqti (zamani), Evklid makoni dunyosidir.

Atributlarning universal mazmuni inson tanasining mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo'luvchi atributlarning universal mazmunidan farq qiluvchi moddiy obyekt nogeotsentrik dunyo deb ataladi. «Nogeotsentrik dunyo»

tushunchasi nonʻyuton vaqti (zamoni), noevklid makoni, umuman, borliqning nogeotsentrik turini nazarda tutadi. Mikrodunyo va megadunyoni nogeotsentrik dunyolar tomon mavjud boʻlgan «darcha»lar deb faraz qilish uchun asoslar mavjud. Ularning qonuniyatlari bizga oʻzaro taʼsirlarning oʻzga turini uzoq darajada boʻlsa ham tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda, makrodunyo bogʻlanishlari va oʻzaro taʼsirlari borliqning geotsentrik turini aks ettiradi. SHunga qaramay, universal mazmunning «geotsentrik andoza»dan ogʻish xususiyati toʻgʻrisidagi masalani faqat amaliyotda yechish mumkin. Bu yerda falsafadan koʻra aniq fanlarga asoslanish lozim.

Hozirgi zamon metodologlari pirovard maqsadga asoslanadigan va azaldan maqsadga muvofiq xususiyatga ega boʻlgan tizimlar bilan stixiyali xususiyatlarni namoyish etuvchi mutlaqo ochiq tizimlarni farqlashni taklif qiladi. Mazkur tasnif yangi narsa paydo boʻlishi mumkin boʻlgan maqsadni belgilash mexanizmiga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi.

Noorganik, organik va ijtimoiy tizimlar moddiy tizimlarning eng koʻp uchraydigan turlari hisoblanadi. Moddiy tizimning noorganik turini tasniflashda uning elementar zarralar va maydonlar, atom yadrolari, atomlar, molekulalar, makroskopik jismlar, geologik tuzilmalar kabi elementlari qayd etiladi. Moddiy tizim organik turining tuzilishi bir necha darajadan iborat: hujayrasiz daraja - DNK, RNK, nuklein kislotalar, oqsillarni; hujayrali daraja – mustaqil mavjud boʻlgan bir hujayrali organizmlarni; koʻp hujayrali daraja – toʻqimalar, organlar, funktsional sistemalar (asab sistemasi, qon eltuvchi sistema), yaʼni organizmlar (oʻsimliklar va hayvonlar)ni oʻz ichiga oladi. Organizmlardan yuqori tuzilmalar ham farqlanadi: bu umumiy genofond bilan bogʻlangan bir turga mansub jonzotlarning populyatsiyalari – biologik birliklar (oʻrmondagi boʻrilar toʻdasi, koʻldagi baliqlar galasi, chumoli uyasi yoki butazor va boshqalar)dir. Populyatsiyaning yaxlitlik darajasi uning tarkibiga kiruvchi ayrim organizmlarning xususiyatlari va koʻpayishini tartibga soladi. Masalan, chigirtkalar biomassasi muayyan chegaradan oshib ketsa, ularning koʻpayishini sekinlashtiruvchi mexanizmlar ishga tushadi. Jonli materiya tuzilishining organizmlardan yuqori darajasiga populyatsiyalardan tashqari

biotsenozlar kiradi. Biotsenozlarning yaxlit tizimida populyatsiyalar shunday bog‘langanki, ulardan birining hayot faoliyati mahsulotlari boshqasining yashash shart-sharoitlariga aylanadi. Masalan, o‘rmon muayyan biotsenoz hisoblanadi: unda yashovchi o‘simliklar, shuningdek hayvonlar, zamburug‘lar, lishayniklar va mikroorganizmlarning populyatsiyalari o‘zaro ta’sirga kirishib, yaxlit tizimni vujudga keltiradi.

Biosfera doirasida moddiy tizimning alohida turi - kishilik jamiyati rivojlangan. Bu ijtimoiy tizim ham alohida kichik tizimlar individ, oila, guruh, jamoa, davlat, millat va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Materiya tuzilishining alohida turi sifatidagi jamiyat odamlar faoliyati tufayligina mavjud bo‘la oladi. SHu sababli jamiyatga o‘z ehtiyojlarini qondirish va rivojlanish imkonini beruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq inson faoliyati substantsional negiz hisoblanadi.

Moddiy tizimlar turlarining tasnifini davom ettirib, rus olimi L.Gumilevning «Etnogenez va Yer biosferasi» asaridagi fikr-mulohazalarini esga olish mumkin. Muallif taklif qilgan tasnifning mantiqi quyidagicha: siz Yer sayyorasida yashaysiz. Bir qobiq ostida harakat qilasiz – bu litosfera. Moddiy tizimlarning boshqa bir turi organizmingizning barcha hujayralariga kirib boradi – bu gidrosfera. Uchinchi turi bilan siz nafas olasiz – bu atmosfera. To‘rtinchisi – biosfera. Bu yerda siz barcha tirik o‘simliklar, mikroorganizmlar bilan yashaysiz.¹

Bu tasnifni geo-, bio- va noosferalarni ajratishni taklif qilgan V.I.Vernadskiy tasnifiga yaqinlashishni sezish mumkin.

Asosiy muammo shundan iboratki, ilgari surilgan nazariyalar va ularni amalda sinash, ya’ni ularning ishonchliligini tasdiqlashi yoki pirovard natijada ularni rad etishi mumkin bo‘lgan tegishli eksperimentlar o‘tkazish yo‘li bilan tekshirish imkoniyatlari o‘rtasida ulkan tafovut mavjud.

Dunyoning birligi va rang-barangligi. Dunyo cheksiz yaxlitlik sifatida o‘zgarmas va ayni vaqtda o‘zining ayrim qismlari va ko‘rinishlarida o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘zini muttasil shakllanish va o‘zgarish jarayonlarida namoyon etadi. U

¹ Гумилев Л. Этногенез и биосфера Земли.- М.: Современные тетради, 2002. –С.58.

nafaqat shakllanish va o'z tuzilmasini murakkablashtirish yo'lida, balki aksincha – buzilish va tanazzul yo'lida ham harakatlanadi va rivojlanadiki, bu uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari muttasil o'zgarishida aks etadi.

SHunday qilib, dunyo, bir tomondan, o'z rang-barangligida bir jinsli emas, boshqa tomondan esa, o'zining barcha tarkibiy qismlarining uzviy birligini tashkil etib, muayyan universal yaxlitlik hisoblanadi.

Biroq, dunyoning birligi masalasi aniq-ravshan emas. Sinchiklab o'rganish jarayonida u ko'p sonli boshqa javobsiz savollarni, balki umuman yechimsiz muammolarni yuzaga keltiradi. Dunyo birmi, agar bir bo'lsa, uning birligi nimadan iborat, degan masala atrofidagi qizg'in falsafiy munozaralar va jiddiy ixtiloflar ayni shu hol bilan izohlanadi.

Dunyo birligining fundamental asoslari. Ko'rsatilgan muammoning yechimi u yoki bu faylasuf dunyoqarashi, uning mazkur dunyoqarashga asoslangan pozitsiyasiga bevosita bog'liq. Ruh (Xudo, o'lmas g'oyalar, ong va sh.k.) moddiy va ko'lamli tabiatdan tashqaridagi asos deb hisoblaydigan faylasuflar dunyoning birligi muammosiga boqiy, yaratilmagan va turli atributlarga ega bo'lgan materiyani butun borliqning asosi sifatida e'tirof etadigan faylasuflarga qaraganda butunlay boshqacha yondashadilar.

Birinchi holda idealistlar to'g'risida so'z yuritiladi. Ularning qarshisida butun dunyo ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisi – ideal (chin) dunyo, ikkinchisi – moddiy, ashyoviy (o'tkinchi) dunyo. Bu yerda dunyoning birligini tasdiqlovchi nuqtai nazarlar ham, mazkur birlikni rad etuvchi nuqtai nazarlar ham bo'lishi mumkin.

Bunday qarashlarga zid o'laroq, materiyani birdan-bir substantsiya sifatida e'tirof etuvchi materialistik monizm tarafdorlari dunyoning birligini uning o'zidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladilar. Bunda ular dunyoga o'ziga to'q, o'z borlig'ini saqlash uchun hech kim va hech narsaga muhtoj bo'lmagan, borliqning butun rang-barangligini o'zidan yaratuvchi deb qaraydilar. Ayni holda yechishga to'g'ri keladigan eng og'ir vazifa bugungi kunda (balki umuman) o'rganilgan mikrodunyo va anglab yetilgan Koinotning muttasil surilib borayotgan chegaralari

ortiga nazar tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda dunyoning cheksizligi (yoki chekliligi)ga shak-shubhasiz dalillar keltirishdan iboratdir.

Mazkur yondashuvning hech narsaga ishonmaydigan tarafdorlari bu va boshqa shunga o'xshash savollarga o'z javoblarida faqat oqilona asoslash va unga muvofiq bo'lgan tajribani dalil sifatida tan oladilar va bunda umuminsoniy amaliyotga va tabiati o'ta oqilona xususiyatga ega bo'lgan fanga tayanadilar. Fan falsafadan ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida uzil-kesil ajralib chiqib, inson faoliyatining mustaqil jabhasiga aylangan. XVIII asrdan boshlab uning yordamida dunyoning birligini ilohiy kuchlarga murojaat etmay yanada ishonchliroq dalillar bilan himoya qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, sayyoralar dastlabki "tumanlik"dan tabiiy kelib chiqqanini tushuntiruvchi Kant – Laplas nazariyasi Quyosh sistemasi kosmik jismlarining birligi to'g'risida so'z yuritishga asos bo'ldi; energiyaning saqlanish va o'zgarish qonuni tabiatda amal qiluvchi barcha kuchlar universal harakat namoyon bo'lishining turli shakllari ekanligini namoyish etdi; jonli organizmlar hujayrali tuzilishga ega ekanligi haqidagi nazariya butun tiriklikni strukturaviy birlashtirish imkonini beradi; D.I.Mendeleyevning davriy qonuni barcha kimyoviy elementlarni birlashtirdi, CH.Darvinning hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqidagi nazariyasi esa nafaqat butun tiriklikning birligini tushuntirib berdi, balki ideal ong tabiatini jonli modda bilan uzviy bog'liq deb tushunish uchun imkoniyat yaratdi. Mazkur nazariya ayrim narsalarni o'rganishdan jarayonlar va holatlarni o'rganishga, tabiatni qismlarga ajratishdan uni yagona sistemaga birlashtirishga o'tish bilan tavsiflanadiki, bu keyinchalik inson va uning ongi genezisini yaxshiroq tushunish, ularning dunyodagi haqiqiy o'rnini belgilash va pirovard natijada inson va tabiatning birligini ko'rsatish imkonini berdi.

XX asrda nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasining yaratilishi dunyo yagona va hamma narsa bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi va mustahkamladi. XX asrning ikkinchi yarmida qudratli teleskoplar va tezlatgichlar paydo bo'lishi bilan hozirgi zamon fani makro- va mikrodunyolarni o'rganishda yanada ko'proq olg'a siljidi. U koinot kengliklariga kirib, dunyoning fundamental asoslari haqidagi tasavvurlarimizni boyitdi. Hozirgi

zamon fani maydon va moddaning, korpuskulyar va to‘lqinli moddiy obyektlarning birligini isbotlab berdi, materiya, harakat, makon va vaqtning uzviy birligini asosladi.

Dunyoning birligi g‘oyasi tabiiy-ilmiy dalillardan tashqari tarixiy asoslashni ham taqozo etadi. Bunday asoslashni falsafasiz amalga oshirish mumkin emas, chunki u butun dunyoga yaxlit sistema sifatida yondashib, rang-baranglikda birlikni va birlikda rang-baranglikni ko‘radi.

Olamning chekliligi va cheksizligi. Falsafada olamning chekliligi va cheksizligi bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir konkret narsaning chekli ekanligi, umumiy olamning cheksiz va chegarasizligi e‘tirof etiladi. Cheksizlikni ifodalash uchun ichki (intensiv) va tashqi (ekstensiv) shakllar mavjudligi ko‘plab falsafiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Materiyaning ichdan nihoyasizligi **intensiv** cheksizlik haqidagi tasavvur bilan qamrab olinadi. Intensiv cheksizlikning mavjudligi tabiatda ichki tuzilishga ega bo‘lmagan, mutlaqo elementar obyektlar yo‘qligini ko‘rsatadi. Intensiv cheksizlik mikrozarralarni o‘rganish jarayonida materiyaning kichikroq qismlarga cheksiz bo‘linishi sifatida qaralishi mumkin emas. Zarralarning bir-biriga aylanuvchanligi ular ancha murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ekstensiv cheksizlik ichdan emas, balki sirtdan cheksizdir. U mazkur obyekt doirasidan tashqarida, “katta” dunyoda kuzatiladi va obyektidan tashqaridagi cheksizlikni ifodalaydi. Bu yerda obyekt xossalari va sifatlarining atrofdagi narsalar bilan o‘zaro ta’sirlar tizimiga bog‘liqligi muammosi muhimroqdir. Amalda cheksizlik mavjud bo‘lib, u bilish qaratilgan yo‘nalishdan kelib chiqib, intensiv yoki ekstensiv deb tushunilishi mumkin. Ekstensiv va intensiv cheksizlik – haqiqiy cheksizlikning o‘ziga xos proektsiyalaridir. Ularni geometrik shaklning koordinatalar o‘qidagi proektsiyalariga o‘xshatish mumkin.

Kosmologiya cheklilik va cheksizlikning talqiniga juda ko‘p yangiliklar kiritdi. U ilmiy fan sifatida olamning tuzilishi va xossalarini o‘rganadi, makon va zamonning cheksizligi muammosini o‘rganishga harakat qiladi. Dunyoning makon va zamonda cheksizligi haqidagi tasavvurlar asrlar davomida shakllangan. Uning

ildizlari antik naturfalsafa va kosmogoniyaga borib taqaladi. Nyutoncha fizikaga asoslangan XVIII asr kosmologiyasida cheksizlik g'oyasining ancha asosli nazariy dalillari ta'riflab berildi. Nisbiylik nazariyasining paydo bo'lishi kosmologiya muammolarini butunlay o'zgartirib yubordi. Umumiy nisbiylik nazariyasi ta'sirida yuzaga kelgan va XX asrning ikkinchi o'n yilligida jadal rivojlangan relyativistik kosmologiya doirasida olamning makon va zamonda cheksiz hamda chekli modellarini tuzishga muvaffaq bo'lindi.

Olamning relyativistik kontseptsiyasi bo'lishi ehtimol tutilgan butun moddiy dunyoni qamrab olgani sababli, uning "ibtidosi" g'oyasida cheksizlik g'oyasi butunlay inkor etilib, fanda to'ntarish yasalishiga olib keladigandek bo'lib tuyuldi. Relyativist kosmologlarning kengayib borayotgan olam – Metagalaktikaning yagonaligi va u hamma narsani qamrab olishi haqidagi ta'limoti o'tmishda ko'p karra takrorlangan olamda Yerning yagonaligi, Quyosh sistemasi yoki Galaktikaning yagonaligi haqidagi g'oyalarni eslatadi. Amalda olamning kosmologik modellari, garchi butun dunyoni tushuntirish uchun tuzilgan bo'lsa-da, uning ayrim qisminigina tushuntirgan. Mazkur sohaga taalluqli, butun dunyodagi makon va vaqtga nisbatan tatbiq etilmaydi, deb talqin qilingan makon va zamonning chekliligi hamda cheksizligi haqidagi kosmologik tasavvurlar cheksizlik g'oyasini inkor etmagan.

Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi *relyativistik kosmologiya*ning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Relyativistik kosmologiya butun dunyoni mukammal tavsiflashga da'vo qilmaydi, lekin cheklilik va cheksizlikni biz yashayotgan olamga tatbiqan, uning fizikaviy-makon tuzilishi tomonidan o'rganadi. Relyativistik kosmologiya asoschilari A.Eynshteyn va A.Fridman hisoblanadi.

A.Eynshteyn 1917 yilda nisbiylikning umumiy nazariyasini yaratgach, oradan bir yil o'tib olamning birinchi *relyativistik modelini* tuzdi. U bunda quyidagi taxminlardan kelib chiqdi.

1. Modda va nurlanish olamda bir tekis tarqalgan. Bundan olam maydoni bir xil va izotrop tuzilishga ega, degan xulosa kelib chiqadi. Garchi og'ir obyektlar yaqinida makon-vaqt geometriyasi o'zgarsa-da, bu o'zgarish olamning o'zgarmas

egrilikka ega bo'lgan bir xil izotrop maydonidan chetga ahamiyatsiz og'ishdir, xolos.

2. Olam turg'un, vaqtda o'zgarmasdir. SHu bois maydon geometriyasi evolyutsiyaga ega bo'lishi mumkin emas. A.Eynshteyn dunyosi, odatda, «tsilindrsimon dunyo» deb ataladi, chunki uni cheksiz ko'lamli to'rt o'lchovli tsilindr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. TSilindrning yasovchisi bo'ylab vaqt o'qi o'tadi, u o'tmishga ham, kelajakka ham cheksiz qaratilgan. TSilindr kesimi maydonni beradi. Mazkur modelda bu o'zgarmas musbat egrilikka ega uch o'lchovli doirasimon maydon bor. U chekli hajmga ega. Buning ortida hech narsa mavjud bo'lmagan dunyoning qandaydir chekkasi bor, deb tushunmaslik kerak. Ayni holda maydon «o'z-o'zida tutashadi» va bu unda hech qachon to'siqqa uchramasdan cheksiz aylanish imkonini beradi.

Biroq A.Eynshteynning «tsilindrsimon dunyo»si o'tmishda qolgan. Uning olamning turg'un modelini yaratishga urinishlari, hozirgi davrda olamning abadiyatda o'zgarmas holda mavjudligi haqidagi an'anaviy tasavvurlarga hurmat sifatida qoraladi. Olamning turg'un modelini A.Eynshteyn maxsus taxmin asosida yaratganini ham e'tiborga olish kerak.

Mazkur muammoning yangi yechimini A.Fridman taklif qilgan va uni belgiyalik kosmolog M.Lemetr rivojlantirgan. A.Fridman dunyoning turg'unligi haqidagi taxmindan voz kechdi, lekin uning bir xilligi va izotropligi haqidagi postulatni saqlab qoldi. Bu muammoning uch xil yechimini taklif qilish imkonini berdi:

1. Agar olamda modda va nurlanishning zichligi ayrim kritik kattalikka teng bo'lsa, maydon evklid maydoni bo'ladi, ya'ni egriligi nolga teng bo'ladi va dunyo cheksiz bo'ladi.

2. Agar zichlik kritik kattalikdan kichkina bo'lsa, olam maydoni Lobachevskiy geometriyasi bilan tavsiflanadi, u manfiy egrilik va cheksiz hajmga ega, ochiq va bel ko'rinishida bo'ladi.

3. Agar olamda moddaning zichligi kritik darajadan katta bo'lsa, maydon musbat egrilikka ega, lekin hajmi cheklangan bo'ladi. Dunyo berk va chekli bo'lib,

Riman geometriyasi bilan tavsiflanadi.

Kosmologiya muammosining taklif qilingan yechimlariga nisbatan munosabat bir xil emas. Ayrim olimlar cheksiz *kengayuvchi Olam* gipotezasini qabul qilganlar va «Katta portlash» kontsepsiyasiga ko'ra, taxminan 17-20 milliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o'ta zich singulyar holatda bo'lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan "katta portlash" olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o'zgargan, maydonning egriligi to'g'rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, kengayish o'rnini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. SHu asosda *harakatlanuvchi Olam* gipotezasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra taxminan har 100 milliard yilda yangi tsikl "katta portlash"dan boshlanadi. Aqlga sig'maydigan gipotezalarning birida "dastlabki portlash" natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko'plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko'rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida topologiyali (o'lchovlar miqdori har xil bo'lgan mahalliy ochiq yoki mahalliy yopiq) makoni va o'z kosmologik vaqtiga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Hozirgi "ko'p sonli dunyolar" kontsepsiyalarida olamning ajabtovur manzarasi chiziladi. Bu fundamental falsafani moddiy dunyoning makon va vaqtdagi cheksizligini metrik cheksizlik ma'nosida emas, balki materiyaning makon va vaqt strukturalarining benihoya rang-barangligi sifatida tushunish lozim, degan asosiy qoidasi bilan hamohangdir.

Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Ammo "qizil siljish" hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proportsional tezlikda har yoqqa "tarqalayotgani"ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan fakt hisoblanadi. 1912 yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani – "qizil siljish"ni aniqladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach (1929 yilda) Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, "qizil siljish" kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan

qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga yetishini aniqladi.

SHunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

CHeklilik va cheksizlikning ziddiyati. CHeklilik, uning ziddi bo'lgan cheksizlik singari, umumiylik va zarurlik maqomiga ega bo'lgan umumiy va universal tushunchalar – falsafiy kategoriyalar sifatida tushuniladi.

CHeklilik – narsalar, jarayon va hodisalarning muayyanligini va obyektning mavjudlik chegarasini qayd etuvchi tavsifni ifodalash uchun mo'ljallangan falsafiy kategoriya. CHeklilik chegarasi obyekt intihosini boshqa obyektдан ajratib turadi va ularni bir-biriga bog'laydi. G.Gegelʼ cheksizlik har narsa o'z chegarasiga ega ekanligi, bu yerda u barham topishi, yo'qlikka aylanishini ta'kidlagan¹. Umuman olganda, barcha tug'ilgan narsalarning muqarrar o'limi haqida fikr yuritmagan birorta ham atoqli faylasuf yo'q.

Inson borlig'i chekliligining “kashf” etilishi nafaqat mavjudlikning qat'iy chegaralarini, balki cheksizlikni - bir-birini almashtiruvchi avlodlarning hamisha bir xil safini ham ko'rsatdi. Kundalik hayotda biz narsalarni farqlash va ularning holatlari vaqtda o'zgarishini kuzatish, masalan, kunni tundan farqlash, Eshmatni Toshmat bilan adashtirmaslik imkonini beruvchi muayyan chegaralarni ko'p qayd etamiz. SHunday qilib, *muayyanlik* va *chegara* cheklilikning asosiy, eng muhim jihatlari hisoblanadi.

Falsafada makon-miqdor chegaralari (masalan, davlatning hududiy chegaralari) va sifat chegaralari (yosh davrlari) farqlanadi. Ammo chegara nafaqat ajratadi, balki birlashtiradi, aloqa qilish, chegara orqali o'tish imkonini beradi. Bu qarama-qarshilikni ifodalash uchun F.Gegelʼ I.Kant o'zgacharoq ma'noda ishlatgan “narsa o'zida” va “narsalar biz uchun” tushunchalarini muomalada qo'llagan.

¹ Гегель Г. Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литератор, 2001. –С. 207

CHeklilikni qotib qolgan, harakatsiz narsa deb tushunmaslik kerak. CHeklilikning mohiyati shundan iboratki, u o'zini o'zi inkor etadi, intiho sari harakatlanadi. SHu sababli cheklilik harakatdan tashqarida emas, balki faqat harakatda tushunilishi mumkin.

CHeksizlik cheklilikning inkori hisoblanadi. Falsafa va fanga cheksizlik bilan birga “ziddiyat” tushunchasi ham kirib kelgan. Klassik yunon tafakkurida cheksizlik salbiy tushuncha sifatida amal qiladi: cheksizlik chegara va shakldan mahrum, u belgilanmagan, binobarin, inson aqli uni tushunib yetishga qodir emas. CHeksizlikni anglab yetishga urinish o'z yo'lida muqarrar tarzda aporiyalar, antinomiya, paradokslarga duch kelgan. Fanda Horror infiniti – “cheksizlik dahshati” degan ibora ham mavjud bo'lgan. Ong cheksizlikni idrok etishga ham, tasavvur qilishga ham qodir emas, u bu borada doimo ikkilanadi. Inson ko'proq cheklilik bilan ish ko'radi, uni tez anglaydi, biron-bir chegara izlaydi. CHeksizlik – amaldagi qonunlarga bo'ysunmaydigan, ularni aksioma tarzida qo'llab bo'lmaydigan, qism butunga teng bo'lib qoluvchi borliqdir.

Zenon aporiyalarining bosh mohiyatini ham cheklilik va cheksizlik o'rtasidagi ziddiyat tashkil etadi. Masalan, «Dixotomiya» aporiyasida to'g'ri yo'l nazarda tutiladi. Bu yo'ldan o'tish uchun uning yarmini, so'ngra yarmining yarmini, keyin bu yarimning yana yarmini bosib o'tish kerak bo'ladi. Xullas, yo'l cheksiz miqdordagi yarim bo'laklarga bo'linib ketadi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqilsa, bu yo'ldan nafaqat o'tish, balki harakatni boshlash ham mumkin emas. Yo'ldan o'tishda eng oldin bosib o'tish lozim bo'lgan masofaning dastlabki “yarmining yarmini” qanday topish mumkin? Bu empirik dalil kabi butun cheksizlikni qamrab oluvchi shak-shubhasiz harakatni nazariy tavsiflash qiyinchiliklar tug'diradi.

CHeklilik intihoning dastlabki nuqtasi sifatida amal qilsa, cheksizlikning asosiy xossasi sifatida ko'pincha “*cheklanmaganlik*” tushunchasi qabul qilinadi. CHeksizlik g'oyasi inson tafakkurida biron-bir obyekt yoki jarayonda chegaralarning yo'qligi haqidagi intuitiv tasavvur sifatida mavjud bo'ladi. SHunday qilib, cheksizlik ayrim cheklanmagan jarayon yoki ketma-ketlik ko'rinishida tasavvur qilinadi

Xulosalar. Inson tajribasi doimo cheklangan, u cheksizlikni empirik yo‘l bilan aniqlay olmaydi. Cheksizlikni qayd etish uchun sezgi organlari ma’lumotlariga tafakkur faoliyatini ham qo‘shish lozim. Cheksizlik intiholi narsalar orqali mavjud bo‘ladi. Inson aqli ayni shu aloqa va ketma-ketlikni, intiholi narsalar umumiyligining cheksizlikka teng bo‘lgan ayni shu shaklini aniqlaydi.

HARAKAT VA RIVOJLANISH

O‘zgarishlarning umumiy xususiyati. Bizni qurshagan dunyoning yana bir muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o‘zgarishlardir.

Tabiatning o‘zgaruvchanligi falsafa paydo bo‘lishidan ancha oldin yaxshi ma’lum bo‘lgan, falsafa vujudga kelgach esa, masalalarning mazkur doirasi alohida o‘rganish predmetiga aylandi va vaqt o‘tishi bilan uning negizida falsafiy bilimlarning maxsus bo‘limi – dialektika yuzaga keldi. Uning (yaxlit ta’limot sifatidagi) ildizlari qadimgi yunon falsafasiga, xususan “Hamma narsa oqib, o‘zgarib turadi”, “Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi” kabi mashhur iboralar muallifi Geraklit ijodiga borib taqaladi. SHundan beri obyektiv borliqning turli-tuman miqdor va sifat o‘zgarishlarini ifodalash uchun “harakat” va “rivojlanish” kategoriyalari qo‘llaniladi.

Harakat va harakatsizlikning o‘zaro nisbati. Falsafada harakat nafaqat turli jismlarning fazoda mexanik siljishi sifatida, balki tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o‘zgarishi sifatida ham tushuniladi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o‘zaro ta’sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko‘payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo‘ladi.

Agar biz biron-bir tabiiy obyekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo‘lsak, “harakat” tushunchasini chetlab o‘tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtai nazaridan bu noto‘g‘ri, zero, Alp tog‘lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo‘lib, bu yerda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galaktik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir.

Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo‘lgan elementar zarralardan tashkil

topadi. Temperatura o'zgarishlari, kimyoviy tarkib o'zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko'rinishlari hisoblanadi. SHuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolyutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit'alar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo'laklari kabi Yerning qaynoq magmasi bo'ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

SHunday qilib, harakat abadiy va yo'q bo'lmas, materiyadan ajralmas va mutlaqdir. Harakatsizlik esa nisbiy bo'lib, o'tkinchi xususiyatga ega. Harakat shuning uchun ham mutlaqki, u umumiy ahamiyat kasb etadi va (harakatsizlikdan farqli o'laroq) biron-bir tashqi omilga bog'liq bo'lmaydi. Oqilonalik nuqtai nazardan u boqiydir, chunki dunyoda uning boshi ham, oxiri ham ko'rinmaydi va zamirida kamida ikki kuch – tortish va itarish yotuvchi har qanday borliqning o'z-o'zidan harakati sifatida amalga oshadi.

Falsafa tarixida harakat haqidagi tasavvurlar. Harakatni dialektik tushunish kurtaklariga Geraklit asarlaridayoq duch kelamiz. U olovni barcha o'zgarishlar substantsiyasi sifatida tavsiflab, birinchi moddiy asos doimo o'zi bilan birga, ayni vaqtda, doimiy o'zgarish holatida bo'lishi haqidagi fikrni sodda obrazli shaklda ifodalagan. Geraklit harakatni miqdor jihatidan oddiy joydan-joyga ko'chish sifatida emas, balki uzlukli va uzluksiz, barqaror va o'zgaruvchan narsa va jarayonlarning o'zaro nisbati nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Antik davrdayoq Geraklit, undan keyin Epikur har qanday harakat manbaini ichki jarayonlarning qarama-qarshiligidan topgan.

Ayni shu antik davrda tushunchalar mantig'ida harakat jarayonini mantiqiy dalillar yordamida tushunib yetish bilan bog'liq qiyinchiliklar qadimgi faylasuf va matematik Zenonni mashhur aporiyalarni ta'riflashiga turtki berdi. *Aporiya* – muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo'lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo'lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo. Zenonning “Axilles va toshbaqa”, “Uchayotgan kamon o'qi” kabi aporiyalari, hissiy tasavvurlarga zid o'laroq, harakat materiyaning atributi ekanligiga shubhalanishga majbur qilgan. “Axilles va

toshbaqa” aporiyasi mazmuniga ko‘ra, chopqir Axilles hayvonot olamining eng uquvsiz yuguruvchisi toshbaqani quvib boradi, deb faraz qilinadi. Bundan Zenon Axilles hech qachon toshbaqaga yeta olmaydi, degan mantiqiy xulosa chiqaradi. Zenon bu aporiyasida quyidagicha fikr yuritadi: “Biror odam “A” nuqtadan “V” nuqtaga borishi lozim bo‘lsin. U “V” nuqtaga yeta oladimi?” Zenon bu savolga yo‘q, deb javob qiladi. Chunki “A” nuqtadan “V” nuqtaga qarab yo‘l olgan odam, avvalo, shu masofaning teng yarmidan o‘tishi zarur. Bu masofaning teng yarmiga yetishi uchun esa, shu yarim masofaning yana yarmini o‘tishi zarur. Yarim masofaning yarmiga yetishi uchun esa, qolgan masofaning yarmidan o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Xullas, oraliq masofa cheksiz miqdordagi yarim bo‘laklarga bo‘linib ketadi. Cheksiz yarim bo‘laklarni bosib o‘tish uchun esa cheksiz vaqt lozim. Hech kim cheksiz vaqt yashay olmaydi. Shunday ekan, hech qachon u “A” nuqtadan “V” nuqtaga yetib bora olmaydi. Bularning hammasi harakat jarayonini formal-mantiqiy tavsiflash mushkulligini ko‘rsatadi.

Ayrim faylasuflar Zenon aporiyalarini rad etish uchun sezgi organlariga suyanmalarida, bunda ham ancha asosli e‘tirozlar topilgan. Sezgi harakatni “ko‘rishi” qadimgi falsafa vakillari—eleatlar tomonidan tan olingan, lekin aql uni “tushunish”ni xohlashi va tushuna olmasligi qayd etilgan. Aql mohiyatni, sezgilar esa hodisalar va ko‘z ilg‘aydigan narsalarni o‘rganishini hisobga olsak, eleatlar mantiqiga ko‘ra, aynan mohiyatda harakat mavjud emas. Zenon harakatni ziddiyatsiz tarzda tavsiflash mumkin emasligini ko‘rsata olgan e‘tirof etilgan. Binobarin, harakat qarama-qarshilik demakdir. Zenon aporiyalarining alohida qimmat shundaki, ular amalda mavjud qarama-qarshiliklarni ko‘rsata olgan. Balki, shuning uchun bo‘lsa kerak, ko‘plab qadimgi manbalarda Zenon dialektika asoschisi sifatida qayd etiladi. Zenonning o‘zi asarlarini Parmenidning “Hamma narsa bir” degan shiorini “Hamma narsa ko‘pdir” degan qarama-qarshi yondashuvdan himoya qilish uchun yozganini ta’kidlagan. Zenon ko‘pgina asarlarining dunyoga kelishiga uning bahsga o‘chligi sabab bo‘lganini aytishni xush ko‘rgan.

Harakatni o‘rganishning muhimligini barcha faylasuflar teran anglagan. Aristotel harakatni bilmaslik sabablarni bilmaslikka olib keladi, deb hisoblagan va

borliqning turlari qancha bo'lsa, harakat va o'zgarishlarning turlari ham shuncha, deb qayd etgan. Uning fikricha, "Miqdor uchun ko'payish va kamayish, sifat uchun – o'zgarish, makon uchun – ko'chib yurish, mohiyat uchun – vujudga kelish va yo'q bo'lish mavjud"¹. Harakatning vujudga kelish, yo'q bo'lish, o'zgarish, ko'payish, kamayish, ko'chib yurish kabi turlarini farqlash lozim. Ammo Aristotel² jonsiz, passiv materiya kontseptsiyasini rivojlantirib, pirovard natijada, muayyan birinchi harakatlantirgich – har qanday faollikning negizi sifatidagi sof shakl harakat manbaidir, degan xulosaga keldi. Binobarin, harakat materiyaning atributi emas, balki uning modusi, ayrim xossasi va belgisidir; u faqat birinchi turtki vositasida beriladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, falsafiy tafakkur rivojlanishining keyingi ancha uzoq davri mobaynida harakat materiyaning atributi sifatida qaralmadi, balki uning ayrim va qo'shimcha xossasi hisoblandi.

O'rta asr SHarq mutafakkiri Forobiy fikricha, harakat va sukunatning ibtidosi, biron-bir narsaga yoki irodaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atash mumkin. Harakat vaqt bilan belgilangan. Harakat ibtido va intiho bilan chegaralanmagan.² Ibn Sino fikricha harakat vujudi mumkinning ichki mohiyatidan kelib chiqadi va osoyishtalik bilan mavjud bo'ladi. Harakat bu ashyolar, voqealarda sodir bo'ladigan o'zgarishdir³.

Uyg'onish davri mutafakkirlari har qanday borliq – olamdan tortib mayda zarragacha – unga xos bo'lgan ruh tomonidan harakatga keltiriladi, degan fikrni ilgari surdilar. Ular panpsixizm – butun olamni ilohiylashtirish ta'limotiga asoslandilar.

Yangi davr mexanikasi mazkur yondashuv mutlaqo asossizligini ko'rsatdi. Mexanika nuqtai nazaridan, biron-bir jismni harakatga keltirish uchun unga qandaydir tashqi kuch ta'sir ko'rsatishi lozim. XVII-XVIII asrlarda mexanikaning jadal rivojlanishi, u ayrim nomexanik hodisalarni (masalan, issiqlik hodisalari, hattoki, fiziologik hodisalarni) tushuntirishda erishgan yutuqlar shunga olib keldiki,

¹ Аристотель Органон. –М.: 1990. –С. 159

² Қаранг.Форобий //Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2005. -Б.431

³ Қаранг Ибн Сино//Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ. 2005,-Б140

harakatga ancha tor ma'noda mexanik harakat, ya'ni makonda oddiy ko'chib yurish sifatida qarala boshlandi. Umuman olganda, metafizik yondashuvlarning nomukammalligi so'zning o'z ma'nosidagi harakatni, uning alohida turi – ko'chib yurish bilan tenglashtirish; harakatga atribut emas, balki modus sifatida qarash; birinchi turtkning zarurligiga ishonch bilan bog'liq edi.

Bunday yondashuvlarning nomukammalligini ko'pgina mutafakkirlar tan olgan. Masalan, ingliz faylasufi Jon Toland (1670-1722) dinni tanqid qilar ekan, harakatni materiya atributi, deb hisoblaydi. U “Men harakatni materiyaning muhim xossasi, deb bilaman. Boshqacha aytganda, o'tkazmaslik va ko'lamlilik materiya tabiatiga qanday xos va u bilan uzviy bo'lsa, harakat ham materiya tabiatiga shunday xos va u bilan uzviydir. Binobarin, harakat materiya ta'rifidan uning tarkibiy qismi sifatida o'rin olishi lozim”, deb yozgan. J.Toland harakatning barcha shakllarini mexanikaga bog'lamagan, balki uni umumiy ichki faollik sifatida tushungan. Harakatning atributliligini frantsuz faylasufi Deni Didro (1713-1784) ham isbotlashga harakat qilgan. Uning fikriga ko'ra, “Mutlaq harakatsizlik tabiatda mavjud bo'lmagan abstrakt tushunchadir”, “Harakat materiyaning uzunlik, chuqurlik, kenglik kabi haqiqiy xossasidir”. D.Didro mexanitsizmni, ya'ni harakatni makonda ko'chib yurishgagina bog'lashni rad qilishga harakat qildi. U tabiat abadiy harakat va rivojlanishda bo'ladi, deb hisoblagan. Uning fikricha, borliq bir shaklda halok bo'ladi va boshqa shaklda vujudga keladi, materiyaning faolligini o'z-o'zidan harakat g'oyasi bilan tushuntirish mumkin.

O'z-o'zidan harakat g'oyasi materiyaning ichki ziddiyatliligi, shuningdek, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Materiya son-sanoqsiz har xil sifatli elementlardan tashkil topadi. Ularning to'qnashuvi va o'zaro ta'siri abadiy harakat, o'zgarish va rivojlanishni tushunishga yordam beradi.

Frantsuz materialistlari asosiy e'tiborni harakatning ichki manbaiga qaratib, “harakat” tushunchasining eng mazmunli ta'rifini topishga harakat qildilar. P.Golbax harakat mexanizmini yoritar ekan, uning ikki turini farqlashni taklif qildi. Birinchi – “jismlarning joydan-joyga ko'chishidan iborat bo'lgan massalar harakati”; bunday harakatni biz bevosita kuzatishimiz mumkin. Masalan, biz tosh

qanday tushayotgani, sharning yumalayotgani, qo‘l harakatlanayotgani yoki holatini o‘zgartirayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi – “muayyan jismga xos energiyalarga, ya’ni mohiyatga, bu jism tashkil topgan materiyaning ko‘rinmas molekulalari uyg‘unligi, ta’siri va qarshi ta’siriga bog‘liq bo‘lgan ichki va yashirin harakat”. Harakatni u “muayyan jism o‘z o‘rnini o‘zgartirishi yoki o‘zgartirishga urinishiga yordam beruvchi kuch”¹, deb ta’rifladi.

Harakat tiplari. Fanda obyektiv borliq narsalari va hodisalari harakatining ikki asosiy tipi: progress va regress farqlanadi. Ularning biri materiya, energiya, axborotning makonda siljishi bilan bog‘liq bo‘lib, harakatlanuvchi narsalar o‘z muhim xossalari o‘zgartirmasligi, ya’ni o‘z sifatini yo‘qotmasligi bilan tavsiflanadi. Bular miqdor o‘zgarishlari, makondagi ko‘chishlar yoki o‘rin almashuvidir. Bunga yurib ketayotgan odam, qorong‘i osmon fonida proyektor nurining harakati va hatto xayolda ayrim obyektlardan boshqa obyektlarga o‘tish misol bo‘lishi mumkin. So‘nggi zikr etilgan holda fikrning muayyan (masalan, formal mantiq nuqtai nazardan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri) yo‘nalishdagi harakati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ammo harakatning qayd etilgan tipi dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarning butun rang-barangligini qamrab olmaydi. Aksariyat hollarda ular narsalarning ichki strukturasidagi qayta qurish bilan birga kechadiki, bu dastlabki narsa sifatlarining o‘zgarishi va u butunlay boshqa narsaga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Orqaga qaytmaslik va muayyan yo‘nalishga egalik xos bo‘lgan mazkur harakat tipi rivojlanish deb ataladi. Bunda narsa yoki hodisa strukturasining murakkablashuvi, ular tashkil topish darajasining yuksalishi yuz berishi mumkin bo‘lib, bu odatda taraqqiyot (progress) sifatida tavsiflanadi.

Agar harakat teskari yo‘nalishda – *barkamolroq va rivojlanganroq shakllardan uncha rivojlanmagan shakllarga, murakkabdan oddiyga qarab yuz berayotgan bo‘lsa, bu holda regress to‘g‘risida so‘z yuritish odat tusini olgan.* Ammo progress va regressning ko‘rsatilgan xususiyatlarini mutlaqlashtirish

¹ Гольбах //Всемирная энциклопедия.. -М.: Современный литератор., 2001. –С. 246.

yaramasligini e'tiborga olish lozim. Masalan, boshqaruv apparati tuzilmasining murakkablashuvi va byurokratiyaning o'sishi doim ham progressni anglatavermaydi, nisbatan soddaroq va ayni vaqtda samaraliroq va ishonchliroq mashinalar, asboblari va mexanizmlar yaratilishining regressga hech qanday aloqasi bo'lmaydi va ko'proq buning aksidan dalolat beradi.

Rivojlanish. Jonsiz tabiatda rivojlanishga yulduzlarda yuz berayotgan evolyutsiya jarayonlari; jonli tabiatda – turli organizmlarning o'sishi; jamiyatda – fan, texnika, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi va shu kabilari misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. “Rivojlanish” tushunchasi nafaqat moddiy, balki ideal dunyoga, xususan, inson tafakkuriga nisbatan, masalan, umuman ongning yoki ayrim fikr, g'oya, nazariyaning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda, qo'llanilishi mumkin. Fikrning rivojlanishi uning “pishib yetilishi”ni, ya'ni murakkablashuvi, takomillashuvi, yanada aniqroq ma'no kasb etishi va shu kabilarni anglatadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, narsalar va hodisalarning obyektiv dunyosidan farqli o'laroq, subyektiv konstruktsiyalar (tafakkur, g'oyalar, nazariyalar) harakati va rivojlanishiga nisbatan ko'lam ko'rsatkichlari tatbiq etilishi mumkin emas. Ayni vaqtda ideal narsalar va hodisalar darajasida rivojlanish jarayonlari, xuddi moddiy narsalar dunyosidagi kabi vaqtda kechadi.

Hozirgi zamon falsafasida “harakat” tushunchasi. “Keng” ma'noda umuman har qanday o'zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Harakatni umuman o'zgarish sifatida tushunish harakat turlarining butun rang-barangligini uning muayyan bir turiga bog'lash to'g'ri emasligi haqida ogohlantiradi va harakat shakllarining umumiy xususiyati va bir-biriga aylanish qobiliyatiga ishora qiladi. “Umuman o'zgarish” deganda, bizning ular haqidagi fikr-mulohazalarimizdan qat'iy nazar, obyektiv mavjud bo'lgan barcha o'zgarishlar, turli jarayonlar nazarda tutiladi.

O'z-o'zidan harakat yo butun tabiatga, yo uning yuksak darajada uyushgan tarkibiy qismi – tirik organizm va jamiyatga xos xususiyatdir. Qotib qolgan materiyaga mansub ayrim narsa yoki obyektga nisbatan o'z-o'zidan harakat, o'z-

o'zidan rivojlanish holati xos deb aytish o'rinli emas. Chunki, ushbu obyektning muayyan element sifatida o'z ichiga olgan tabiat o'z-o'zidan rivojlanuvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

O'z-o'zidan harakat biron-bir narsaning unga ichdan (immanent tarzda) xos bo'lgan omillar ta'sirida o'zgarish va rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi kategoriya sifatida amal qiladi. "O'z-o'zidan harakat" tushunchasi butun borliqning substantstsional negizi sifatidagi materiya harakat va o'zgarish jarayoni yuz berayotganida o'z faolligining pirovard sababi sifatida amal qiladi. O'z-o'zidan harakat shakli sifatidagi faollik sirtidan olib kirilgan tashqi kuch sifatida tushunilmasligi kerak. Shu munosabat bilan: «Bu qanday yuz berishi mumkin?», degan savol yaxshi rivojlanmagan, nodialektik tafakkur uchun ancha mushkul masala hisoblanadi. Shakllanish jarayonini qadimgi mashhur "panta rei" – "hamma narsa oqadi" ta'rifida ifodalagan Geraklit an'anasiga, shuningdek, nemis faylasufi F.Gegelga xos yetuk metodologiyaga ko'ra, o'z-o'zidan harakatning manbai ziddiyat hisoblanadi. Bunda ziddiyat narsalar, hodisalar va jarayonlarning qarama-qarshi tendentsiyalari hamda tomonlarini taqozo etuvchi, nazarda tutuvchi, ayni vaqtda, inkor etuvchi o'zaro ta'sir sifatida tushuniladi.

O'z-o'zidan harakat tabiatshunoslik va falsafaning eng qadimgi g'oyasi hisoblanadi. Uning yuzaga kelishi borliq harakatining sababini tushuntirish, o'z-o'zidan yuz berayotgan doimiy umumiy o'zgarishni tan olish asosida butun olamdagi o'zgarish jarayonlarining manbaini aniqlashga urinishlar bilan bog'liq. Antik falsafada barcha jismlarga xos bo'lgan, chetdan aralashuvsiz yuz beradigan tabiiy harakatni belgilovchi intilish to'g'risida atroflicha so'z yuritilgan. Dunyo zamirida materiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan qandaydir intilish, qandaydir haqiqiy, lekin g'ayritabiiy kuch yotadi va uning o'z-o'zidan harakatiga turtki beradi, deb qaralgan. Ayni vaqtda, o'z-o'zidan harakat g'oyasi barcha faylasuflar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinmaganini ham qayd etib o'tish lozim. Parmenidning: "Borliq mavjud, yo'qlik mavjud emas", degan mashhur tezisi barqarorlik, o'zgarmaslik, muayyanlikning mutlaqligini tan olishni anglatgan. Boshqacha aytganda, bunda o'zining boshqa holatiga aylanish sifatidagi o'z-o'zidan harakat

g'oyasiga o'rin yo'q bo'lgan dunyo tan olingan. Keyinroq ta'riflangan neoplatonik Proklning tezi uning muqobili sifatida amal qilgan. Prokl harakat, o'z-o'zidan harakat va harakatsizlikni farqlashni taklif qildi. U "Mavjud hamma narsalar yo harakatsiz, yo harakatdadir, – degan. – Agar narsa harakatda bo'lsa, u o'zi bilan o'zi yoki boshqa narsa bilan harakatdadir. Agar u o'zi bilan o'zi harakatda bo'lsa, o'z-o'zidan harakatda, boshqa narsa bilan harakatda bo'lsa – boshqacha harakatdadir. Binobarin, hamma narsalar yo harakatsiz, yo o'z-o'zidan harakatda, yo boshqacha harakatda bo'ladi"¹.

SHunday qilib, o'z-o'zidan harakat g'oyasi dunyoni tushunish kontseptsiyalari maydonida bir necha muqobil yondashuvlar bilan birga amal qiladi. Butun borliqning to'xtovsiz harakati haqidagi tezis o'z-o'zidan harakat g'oyasining "sherik-raqiblari"dir. "Qarama-qarshiliklar birligi" sifatidagi rivojlanishdan farqli o'laroq, rivojlanishga "kamayish va ko'payish sifatida, takrorlanish sifatida" qarovchi yondashuv ikkinchi muqobilga aylandi. Birinchi muqobil metafizik, ikkinchisi – dialektik kontsepsiya deb nomlandi va u mutlaqlashtiriladi. Sobiq sovet davri falsafasida bunday mutlaqlashtirish quyidagicha izohlangan: "Harakatning birinchi kontseptsiyasida o'z-o'zidan harakat, uning harakatlantiruvchi kuchi, manbai va sababi panada qoladi. Ikkinchi kontseptsiyada asosiy e'tibor aynan "o'z-o'zi"dan harakat manbaini bilishga qaratiladi. Birinchi kontsepsiya jonsiz, bo'sh, yuzaki. Ikkinchisi – hayotiy. Faqat ikkinchi kontsepsiya "butun borliq"ning o'z-o'zidan harakatini tushunib yetish, "sakrashlar", "tadrijiylikning uzilishi", "qarama-qarshilikka aylanish", "eskining yo'q bo'lishi va yangining vujudga kelishi" mohiyatini anglash imkonini beradi"². Aslida bu qarashlarni falsafiy tafakkur rivojida qo'lga kiritilgan yondashuvlar sifatida tushunish ma'qul.

Harakatning umumiyliigi, universalligi va atributliligini tan olish boshqa bir savol tug'ilishiga sabab bo'ladi. Harakat jarayonini qanday qamrab olish, uni tushunchalar mantig'ida qanday ifodalash va tavsiflash mumkin? Harakatni tushunchalar vositasida, nazariy aks ettirishda harakat jarayonining uzluksizligini

¹ Прокл. //Всемирная энциклопедия. –М:Современный литератор, 2001.-С.836.

² Чумаков А.Н. Бучило Е. Философия. -М.: Современный литератор, 2007.-С.54

ifodalash asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Bilish tarixi harakatni umumiy tushunchalarda uni to‘xtatmaydigan, qo‘pollashtirmaydigan tarzda ifodalash vazifasi naqadar og‘ir ekanligini ko‘rsatadi. Jism bir joyda turadi va so‘ngra boshqa joyga ko‘chadi, deb aytish jismning o‘rnini shunchaki qayd etish, demakdir. U harakatlanayotgan paytda birinchi joyda boshqa turmaydi, lekin ikkinchi joyga ham hali yetib kelmagan bo‘ladi; agar jism shu ikki joydan birida turgan bo‘lsa, u harakatsiz holatda bo‘ladi. Jism ikki joy o‘rtasida, deb aytish hech narsa demaslik bilan barobardir, chunki bu holda u yana bir joyda bo‘ladi; demak, ayni holda yuqorida zikr etilgan qiyinchilik tug‘iladi.

“Harakatlanish shu joyda bo‘lishni va ayni vaqtda, unda bo‘lmaslikni anglatadi; bu makon va zamonning uzluksizligidir, aynan u harakatni yuzaga keltiradi”. Harakatning uzluksizligi uning umumiylikni namoyon etadi, uzluksizlik uning alohida jihatini ko‘rsatadi. Harakatdagi umumiylik uning mohiyatini aks ettiradi, binobarin, harakatni tushunish va ta’riflash, uning mohiyatini anglab yetish uchun harakatning uzluksizligini tushunmoq darkor.

Harakatning bir qarashda g‘ayrioddiy tuyuluvchi va ayni vaqtda uning uzluksizligini aks ettirishga urinish kuzatiluvchi “muayyan joyda bo‘lish va ayni vaqtda unda bo‘lmaslik”, degan ta’rifini yangi zamon dialektikasi asoschisi F.Gegel o‘ziga xos tarzda quyidagicha ifodalagan: “Muayyan narsa “hozir shu yerda” bo‘lgani uchun emas, balki boshqa “hozir u yerda” bo‘lgani uchun harakatlanadi, modomiki, u ayni bir “hozir” shu yerda va shu yerda emas ekan, u “shu yerda” ham mavjud, ham mavjud emasdir”¹. Harakatning ta’rifini topish yo‘lidagi izlanishlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar harakatni jonsizlantirmasdan va qo‘pollashtirmasdan tushunchalar mantiqida ifodalash naqadar mushkul ekanini yana bir karra tasdiqlaydi.

Klassik metafiziklar harakat deganda, jismning shu vaqtda shu joyda, boshqa vaqtda boshqa joyda bo‘lishini tushunadi. Bunday yondashuvlarning noto‘g‘riligi shundaki, ular harakatning o‘zini emas, balki uning natijasini tavsiflaydi; ular

¹ Ф.Гегель // Всемирная энциклопедия. М. Современный литератор, 2001. –С.207.

harakat imkoniyatini ko'rsatmaydi va o'zida bunday imkoniyatga ega ham bo'lmaydi; harakatni harakatsizlik holatlari yig'indisi, ularning bog'lanishi sifatida tasvirlaydi, harakatning ziddiyati yashirin, e'tibordan chetda, panada qoladi yoki unutiladi.

Dialektika tarafdorlari harakatning ziddiyatli ekanligini yakdillik bilan tan oladi. Bunda ayrim dialektiklar asosiy ziddiyatni vujudga kelish va yo'q bo'lishda ko'rsa, ayrimlar makon va zamonning qarama-qarshiligida, ya'ni makon jihatini aks ettiruvchi "o'rinning o'zgarishi"da hamda vaqt ko'rsatkichlarini tavsiflovchi "holatning o'zgarishi"da ko'radi. Ayrim dialektiklar esa, harakatning asosiy ziddiyati sifatida uning uzluksizligi-uzlukliligini qayd etadi. Ba'zan harakatning asosiy ziddiyati sifatida barqarorlik va o'zgaruvchanlik jarayonlari ko'rsatiladi. Ammo bunda harakatning, o'zgarishning mutlaqligini tan olish obyektlar yoki jarayonlarning abadiy o'zgarmasligi sifatidagi mutlaq harakatsizlik holatini to'la istisno etishini, lekin muqarrar tarzda harakatning tashqi qarama-qarshiligi emas, balki uning ichki ziddiyatli mohiyatining ifodasi hisoblanuvchi nisbiy harakatsizlik holatini nazarda tutishini tushunish muhimdir. Mutlaq harakatsizlik, abadiy muvozanat va sokinlik hech qaerda yo'q. Har qanday harakatsizlik, muvozanat nisbiydir, chunki ular harakatning muayyan holatlari hisoblanadi. Ziddiyatni olib isbot qilishda, ya'ni muayyan jism mutlaq harakatsizlik holatida deb faraz qilishda mazkur jism bu holda hech narsa bilan o'zaro ta'sirga kirishmasligi, unda hech qanday ichki va tashqi o'zgarishlar yuz bermasligi, u o'zini hech qanday tarzda namoyon etmasligi, binobarin, bunday jism amalda yo'qligini tan olish kerak. Bu nol ("0") holatini mutlaqlashtirish demakdir. Dialektika esa nolni tan olmaydi. Barqaror jismlar sifatida namoyon bo'luvchi barcha moddiy obyektlarda muqarrar tarzda zarralar, atomlar va molekulalar harakati yuz beradi. Har bir obyekt o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, bu o'zaro ta'sir esa muayyan turdagi harakatni o'z ichiga oladi. Yerga nisbatan harakatsiz holatdagi har qanday jism u bilan birga Quyosh atrofida, Quyosh bilan birga Galaktikaning boshqa yulduzlariga nisbatan harakatlanadi. Galaktika ham boshqa yulduzlar sistemalariga nisbatan harakatda bo'ladi va o'zgaradi.

Harakatsizlikni harakatdan tashqaridagi emas, balki uning o'zidagi nisbiy muvozanat holati sifatida tushunish lozim. Nisbiy harakatsizlik nafaqat harakatni istisno etadi, balki, aksincha, uning muayyan holati hisoblanadi.

Harakatsizlik va harakatning qarama-qarshiligi ilgari “narsalar” va “jarayonlar”ni keskin qarama-qarshi qo'yishda ifodalangan. Mikroduyo sohasidagi bilimlar rivojlanishi bilan bu metafizik qarama-qarshi qo'yish o'z ma'nosini yo'qotdi. Narsa sifatida mikroobyekt olingan bo'lsa, bunda shu narsa va jarayonning birligi, yaqqol ko'rinadi. Mikroobyektning korpuskulyar va to'lqin xossalari bir vaqtning o'zida ham narsa, ham jarayon sifatida amal qilishini tasdiqlaydi. SHu sababli “voqea” tushunchasi nisbiylik nazariyasida fundamental tushunchaga aylangan.

Vaqtinchalik barqarorlik va muvozanat holati sifatida tushuniluvchi nisbiy harakatsizlik materiyaning har qanday muayyan holatiga xos. U materiyaning sifatini namoyon etadi. Nisbiy tinchlik tufayli narsalarning chegaralari mavjud bo'ladi, dunyo sifat va miqdor o'zgarishlarining rang-barangligi sifatida namoyon bo'ladi. Materiya harakati shuning uchun ham mutlaqki, u sirtidan hech narsaga bog'liq emas. SHu ma'noda “Dunyoda abadiy harakatdagi materiyadan boshqa hech narsa yo'q” tarzidagi fikrlar o'rinli va asoslidir.

Harakat shakllari. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. Masalan, XIX asrda materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: *mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy* harakat qayd etgan.

Harakatning mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda har bir keyingi harakat o'zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog'lanmaydi. Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog'lashga urinishlar falsafa tarixida “mexanitsizm”, “reduksionizm” (lot. *reductio* – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik kontseptsiyalarida mavjud.

Dunyoning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi hozirgi tasavvurlar nuqtai

nazaridan ko'rsatilgan shakllar harakatning mavjud va taxmin qilingan usullarining butun rang-barangligini aks ettirmaydi. Xususan, elementar zarralarning o'zgarish jarayonlari, XIX asrda noma'lum bo'lgan mikro- va makrodunyo darajasidagi boshqa o'zgarishlar materiya harakati mexanik, fizik va kimyoviy shakllarining o'zaro nisbatiga doir masalani endi yangidan qo'yimoqda. Bu yerda mexanik shakl endi barcha fizik jarayonlar negizi sifatida qaralmaydi. Endilikda biologik harakatning elementar zarralari, ilgari taxmin qilinganidek, oqsilli molekulalar emas, balki XX asrda kashf etilgan DNK va RNK hisoblanadi. Ayrim olimlar yer po'sti hamda Yer ostida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi hozirgi tasavvurlarga asoslanib harakatning geologik shaklini farqlamoqdalar.

XIX asr oxirlarida materiyaning harakat shakllari tasnifi ishlab chiqilayotganida, ilmiy davralarda fanlarni tasniflashga nisbatan kontcha (O.Kont) yondashuv shakllangan edi. Pozitivizm asoschisi O.Kont har bir fan predmetini materiya harakatining alohida shakli tashkil etishi, turli fanlarning obyektlari esa bir-biridan keskin farq qilishiga ishonchi komil edi (mexanika, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya va hokazo). Mazkur muvofiqlik fanlarni muvofiqlashtirish tamoyili deb nomlandi. Bunda turli fanlar o'rganadigan obyektlar bir-biri bilan qanday bog'langanligi va bir-biriga o'tishiga e'tibor berildi. Quyidan oliyga, oddiydan murakkabga sari yuksalib boradigan harakatlanuvchi materiyaning progressiv rivojlanish jarayonini aks ettirish g'oyasi tug'ildi. Mexanika fizika bilan bog'lanishi va unga o'tishi, fizika kimyoga, kimyo biologiya va ijtimoiy fanlarga o'tishini nazarda tutuvchi yondashuv (mexanika → fizika → kimyo → biologiya → ijtimoiy fanlar) subordinatsiya tamoyili deb nomlanadi. Darhaqiqat, qaerga nazar tashlamaylik, biz harakatning boshqa shakllariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan biron-bir harakat shaklini topa olmaymiz, hamma joyda bir harakat shaklining boshqa harakat shakliga aylanish jarayonlarigina mavjud. Materiya harakat shakllarining o'zaro ta'siri va bir-biriga aylanishi uzluksiz-uzlukli jarayonida mavjud bo'ladi.

O'sha davrda noorganika sohasiga nisbatan tatbiq etilgan (mexanik, fizik, kimyoviy) "energiya" tushunchasi fandan mustahkam o'rin olgan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan jonli va jonsiz tabiat o'rtasida aniq chegara bo'lishi mumkin emasligi

ayon bo'ldi. O'tuvchi shakl va jonli ziddiyat - virus buning yorqin dalili bo'ldi. U organik muhitga tushgach, o'zini xuddi tirik jism sifatida tuta boshlaydi. Holbuki, noorganik muhitda virus o'zini bunday namoyon etmaydi. XIX asrda materiyaning bir harakat shakli boshqa harakat shakliga o'tishi olimlar tomonidan bashorat qilingan, deb aytish mumkin, chunki bu davrgacha mexanik va issiqlik shakllari o'rtasidagi o'tishlarga o'rganilgan edi. Tez orada buyuk kashfiyotlar aynan fanlar tutashgan joyda, chegaradosh sohalarda yuz berishi haqidagi taxmin ham diqqatga sazovor bo'ldi. Ba'zi faylasuflar tomonidan tabiat va jamiyatni bog'lovchi shunday chegaradosh sohalardan biri o'rganilib, antroposotsiogenezning mehnat bilan bog'liq nazariyasi taklif qilindi. O'z vaqtida Darvin inson va maymunni anatomik jihatdan qiyosiy o'rganish asosida insonning sof hayvoniy nasl-nasabi haqidagi xulosaga kelgan edi. Boshqalar esa ijtimoiy omillar roliga, xususan, inson va kishilik jamiyatining shakllanishi – antroposotsiogenez jarayonida mehnatning alohida roliga baho berdilar. Bu asosda materiyaning harakat shakllarini tasniflashning quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan:

- materiya harakatining har bir shakli muayyan moddiy tashuvchi bilan bog'liq bo'lishi lozim;

- materiyaning harakat shakllari sifat jihatidan turlicha va o'zaro bog'lanmaydi;

- tegishli shart-sharoitlarda ular bir-biriga aylanadi;

- materiyaning harakat shakllari murakkablik darajasiga ko'ra farq qiladi, oliy shakl quyi shakllar sintezi sifatida tushuniladi. Bunda oliy shakllarning quyi shakllardan uzoqlashishiga ham, oliy shakllarning quyi shakllarga mexanik bog'lanishiga ham yo'l qo'ymaslik muhimdir;

- moddiy tizimlarning har bir turida bosh, oliy va ikkinchi darajali va quyi shakllar farqlanishi lozim;

- materiya harakat shakllarining tasnifi fanlar tasnifining negizi hisoblanadi.

Materiya harakat shakllarining tasnifi: materiya harakatining mexanik shaklini boshqa har qanday shaklga kiruvchi eng sodda shakl sifatida;

- fizika o'rganuvchi issiqlik, yorug'lik, elektr kuchini;

- kimyoviy jarayonlarni;

- organik hayotni qamrab oladi. Ular tabiatdagi asosiy shakllar hisoblanadi.

Ulardan yuqorida ijtimoiy-tarixiy jarayon, materiya harakatining ijtimoiy shakli, shuningdek, fikrlash jarayonlari turadi.

Materiya harakati asosiy shakllarining keltirilgan tasnifi fan tabiat rivojlanishining teran aloqalarini endigina aniqlay boshlagan XIX asrning saksoninchi yillarida yaratilgan edi. O'sha davrda hali ko'p narsa noma'lum, ko'p narsalarni aniqlash lozim edi.

Sobiq ittifoq davrida materiya harakati beshta shakldan iborat degan tasnifga jiddiy aniqliklar kiritishga harakat qilindi. Masalan, B.Kedrov materiya harakatining oltita subatom-fizik harakat, kimyoviy harakat, molekulyar-fizik harakat, geologik harakat, biologik harakat, ijtimoiy harakat kabi shakllarini taklif qilgan.

Hozirgi zamon metodologiyasi nuqtai nazaridan materiya harakat shakllarining oddiy chiziqli joylashuvi to'g'ri emas. U har bir bo'g'inda ikkiga – rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali tarmoqlariga bo'linishi zarur. Birinchi – asosiy tarmoq rivojlanish jarayonini kelajakda mazkur sifat bosqichi doirasidan tashqariga olib chiquvchi shakllar vujudga kelishidan dalolat beradi. Ikkinchi tarmoq mavjud harakat shaklining rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Masalan, kimyoviy birikmalar organik va noorganik birikmalarga ajrala boshlaydi. Mazkur divergentsiyada (ikkiga bo'linishda) birinchi – organik shakl imkoniyatli shakl sifatida rivojlanish jarayonini materiya harakatining yangi shakli – biologik shaklga olib keladi, imkoniyatsiz tarmoq hisoblangan ikkinchi shakl biz yashayotgan zamin, uning qobig' va yuzasini tavsiflaydi. Materiya harakatining biologik shakli darajasida o'simliklarning quyidan oliyga rivojlanishi imkoniyatsiz tarmoq sifatida qaralishi mumkin, chunki bu rivojlanish jarayoni o'z tabiati chegaralaridan chetga chiqishigacha olib kelmaydi. Hayvonlarning rivojlanishi sifat jihatidan yangi obyekt – inson paydo bo'lgungacha davom etadi. Bu materiya harakatining sifat jihatidan boshqa shakli vujudga kelganidan dalolat beradi. Materiya harakatining har bir shaklida makro va mikrodarajalarni farqlash, shuningdek, umumiy hamda xususiy qonuniyatlarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Fan rivojlanishining hozirgi tendentsiyalarini kelajakka nisbatan tatbiq etib, insoniyat borliqning yangi shakllarini va harakatning yuqorida zikr etilganidan o'zgacha usullarini kashf etishini ancha ishonch bilan taxmin qilish mumkin. Ayni holda shuni ta'kidlash lozimki, har qanday sxemalashtirish, harakatning u yoki bu shakllari, tiplari, usullarini farqlash doim to'liq bo'lmaydi va borliqni bilishda erishilgan darajanigina aks ettiradi. Bunday sxemalarni mutlaqlashtirish yaramaydi. Zero ular bilishning muayyan maqsadlariga xizmat qiladi. Binobarin, ular muttasil rivojlanishi, ularga aniqlik kiritilishi va ular takomillashtirilishi mumkin va lozim.

Boshqacha yondashuv ham mavjud bo'lib, unga asosan dunyoning butun rang-barangligini materiya harakatining uch shakli: asosiy, xususiy va kompleks shakllarga keltirish mumkin. Asosiy shakllarga fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllar kiradi. Ular materiya harakatining eng keng shakllaridir. Ayrim mualliflar materiya harakatining yagona fizik shakli mavjudligiga shubha bildiradilar. Ammo bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Barcha fizik obyektlar ikki eng umumiy fizik xossa – massa va energiyaga ega. Fizik narsalar dunyosiga keng qamrovli umumiy energiyaning saqlanish qonuni xosdir.

Materiya harakatining geologik shakli mavjudligi haqidagi taxminni qabul qilsak, materiyaning mazkur shakli mexanik, fizik va kimyoviy o'zaro ta'sirlarni o'z ichiga olgan dastlabki sintez sifatida amal qiladi. Bu qadimgi "xaos" kategoriyasida o'z aksini topadi. Mazkur kategoriya nafaqat tartibga solinmaganlik va tartibsizlik dalili sifatida, balki stixiyali shakllanish tamoyili sifatida ham talqin qilinadi. Bu holda organik dunyo vujudga kelishidan oldingi tabiat mexanik, fizik va kimyoviy jarayonlarning olg'a qarab rivojlanishidan emas, balki ularning umumiy, differentsiatsiyalanmagan o'zaro ta'siridan tashkil topadi. Ayni paytda bunda geologik va geografik omillar Yerda hayot vujudga kelishi uchun tarixiy shart-sharoit yaratgan, deb ta'kidlash lozim bo'ladi.

Zilzilalar Yerning qattiq qobig'ida katta siljish, sinish yoki o'pirilishlar yuzaga kelishi va ta'sir energiyasining tez tarqalishi natijasida ro'y berishi haqidagi tadqiqotlar materiya harakatining geologik shakli mavjudligining dalili hisoblanadi. SHved olimlarining fikricha, yer qobig'i muttasil harakatdagi plitalar bloklaridan

tashkil topadi. Ular bir-birining ustiga chiqib, tsunami va zilzilaga o'xshash tabiiy anomaliyalarni vujudga keltiradi. Masalan, SHveytsariya ikki plita – Afrika va Yevropa plitalari tutashgan yerda joylashgan. Afrika plitasi yiliga 6-11 mm/tezlikda siljib, SHveytsariyaning hududiy yo'qotishlari "sababchisi" bo'lmoqda. Qadimgi Ural ham har yili 3-5 sm tezlikda G'arbiy Yevropaga yaqinlashmoqda.

Qadimgi olimlar yer qobig'ining harakatini ustki suvlar va yer ostidagi issiqlik faoliyati bilan tushuntirganlar. Dunyoviy moddaning harakati kosmik sabablar ta'sirida ham yuz bergan, jumladan, olis o'tmishda Yer vujudga kelganidan keyin uning yuzasi ulkan asteroidlar urilishidan larzaga kelgan, suvning 1,5 kmgacha balandlikka ko'tarilishi esa rel'efni buzgan, degan fikrlar ham bor.

Ba'zan "materiya harakatining geologik shakli" tushunchasi boshqa sayyoralarga nisbatan tatbiq etilgan. Bunday taxmin harakatning universalligini namoyish etgan, ammo bu aynan Yer sayyorasini ko'rsatuvchi va unda zarur komponentlar: suv, kislorod, mo'rtadil harorat rejimi mavjudligini nazarda tutuvchi "geo" atamasiga zid bo'lgan. Ushbu komponentlar majmui boshqa sayyoralarda uchramasligi mazkur fikrning isboti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Materiya harakatining xususiy shakllari asosiy shakllar tarkibiga kiradi. Masalan, fizik materiya bo'shliq, maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar, molekulalar, makrojismlar, yulduzlar, galaktikalar, metagalaktikani o'z ichiga oladi.

Materiya harakatining kompleks shakllariga astronomik (metagalaktika – galaktika – yulduzlar – sayyoralar), geologik (planetar jism sharoitidagi materiya harakatining fizik va kimyoviy shakllaridan iborat), geografik (litosfera, gidrosfera va atmosfera doirasidagi materiya harakatining fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllarini o'z ichiga oladi) shakllar kiradi. Materiya harakati kompleks shakllarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda pirovard natijada materiyaning quyi shakli – fizik materiya yetakchilik qiladi; geologik jarayonlar fizik kuchlar, chunonchi, gravitatsiya, bosim, issiqlik bilan tavsiflanadi. Geografik qonunlar fizik va kimyoviy shartlar hamda Yer yuqori qatlamlarining o'zaro nisbatlari bilan belgilanadi.

Xulosalar. Hozirgi zamon olimlari materiya harakatining texnik, kibernetik

va informatsion shakllari to'g'risida so'z yuritmoqdalar. Bu masalalar ko'p jihatdan bahslidir. Ammo shu narsa shubhasizki, obyektiv borliqni yanada chuqurroq o'rganish nafaqat mavjud tasniflarning mufassallashuvi va takomillashuviga, balki materiya harakatining yangi shakllari to'g'risidagi g'oyalar va nazariyalar paydo bo'lishiga ham olib keladi. Zero, har bir shakl butun olam universal rivojlanish jarayonining imkoniyatlaridan birini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

FAZO VA VAQT

Fazo va vaqt borliqning fundamental shakllari sifatida. Bizni qurshagan dunyo mazmuni, borliqning umumiy xossasi bo'lgan borliq haqida so'z yuritarkanmiz, fazo va vaqt tushunchalarini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Zero, har qanday jism, narsa, hodisa doim borliqning boshqa predmetlari va hodisalari bilan yonma-yon keladi, ko'lamlilik xususiyatiga ega bo'ladi. SHuningdek ular o'z ichki va tashqi holatlarini bir-biriga nisbatan o'zgartiradi va bu turli hollarda har xil tezlik, marom, sur'at va davomlilik bilan yuz beradi. Alohida holda ayrim yagona deb qaraladigan bu ko'rsatkichlar majmui bizga vaqt haqida tasavvur beradi. Fazo va zamon o'z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Fazo va vaqt falsafa tarixida. Fazo va vaqt mohiyati haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davridayoq falsafadan ko'lamli shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyliigi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtai nazaridan ham alohida e'tibor qaratilgan. Keyinchalik "fazo" va "vaqt" kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog'liq ko'p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog'liq holda keladimi? SHu munosabat bilan falsafa tarixida shakllangan ikki muhim va bir-biridan butunlay farq qiladigan yo'nalish – substantzial va relyatsion yo'nalishlarni farqlash mumkin.

Substantsional yo'nalishda makon va zamon materiya va ongga bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substantsional kontsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo'yicha) va Platon (zamonga nisbatan yondashuvlarda) makon va zamonni materiyaga ham, bir-biriga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar

harakatlanuvchi bo'shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo'shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo'shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo'ladi, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta'limotiga ko'ra, makon obyektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin – u o'tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substantsiyalarga ajratuvchi bu g'oyalar keyinchalik Nbyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi. XVIII-XIX asrlarda substantSIONAL kontseptsiya – mutlaq makon va vaqt kontseptsiyasi falsafada, tabiatshunoslikda yetakchilik qildi. Bu o'z mohiyatiga ko'ra metafizik kontseptsiya edi, chunki u harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini e'tiborga olmas edi. Mazkur kontseptsiyaga ko'ra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan vaqt mavjud bo'lishi mumkin edi. SHunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdagi tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa o'rtasida bevosita aloqa kuzatilmaydi. Obyekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon o'zgarmaydi va yo'qolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u obyektlarga bog'liq emas. SHuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyoni o'rganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo dialektik tafakkur sohibi bo'lgan F.Gegel bunday yondashuvlarni qat'iy inkor etgan. U makon mustaqil bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: "...hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o'zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir". Bu e'tirozlarida F.Gegel haq edi. Umuman, Gegelning obyektiv idealizmida makon va zamonga e'tibor qaratmagan, chunki u vaqtdan tashqari, boqiy, "sof mantiqiy"

xususiyatga ega bo'lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

Ikkinchi – **relyatsion** (lot. relativus – nisbiy) **yo'nalish** makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo obyektlari va jarayonlari o'rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog'lanadi. “Vaqt nima?”, degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan “oldin” va undan farq qiluvchi “keyin” mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o'zaro mos kelmaydigan “hozir”ni farqlaymiz. Vaqt shu “hozir”ning ketma-ketligi, ularning almashuvi, sanog'i, hisobi, “oldingi va keyingiga bog'langan harakatlar soni”dir. Aristotelda makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan.

Mazkur nuqtai nazardan ko'rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo'lmaydi. Bu yo'nalishning atoqli namoyandasi G.Leybnits (1646-1716) hisoblanadi.

Makon va vaqt talqinidagi bu ikki tendentsiya, ya'ni makon va vaqt borliqning mustaqil, obyektiv hamda moddiy mazmunga bog'liq bo'lmagan asoslari sifatida yoki harakatlanuvchi materiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilish keyinchalik o'z rivojini topdi. Birinchi substantSIONAL kontseptsiya ayrim o'zgarishlar bilan yigirma asrdan ko'proq davr amal qildi. Nьyutonning materiya joylashadigan harakatsiz, uzluksiz va bir xil uch o'lchovli joy sifatidagi makon to'g'risidagi fikri o'z mohiyatiga ko'ra, Demokritning makon haqidagi g'oyalari bilan bir edi. Nьyuton kontseptsiyasiga ko'ra, makon absolyut bo'lib, cheksiz ko'lamga ega. SHuning uchun u o'zida barcha materiyaning sig'dira oladi va turli jarayonlarga bog'liq emas. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, vaqt ham absolyut bo'lib, turli o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda kechadigan teng davriylikdir. Unda barcha narsalar paydo va yo'q bo'lib turadi. Muxtasar qilib aytganda, Nьyuton makon va vaqt bir-biridan ajralgan va materiya bilan harakatga bog'liq bo'lmagan mustaqil narsa, deb tushungan.

Falsafa tarixida aksariyat faylasuflar u yoki bu tarzda to'qnash keladigan yana bir muhim masala shunday yangraydi: makon va vaqt borliq ko'rsatkichlarimi, ya'ni

ular obyektiv xususiyat kasb etadimi yoki bizning ongimiz xususiyatlaridan kelib chiqadimi va o'z tabiatiga ko'ra subyektivmi? SHu munosabat bilan mazkur kategoriyalarning materialistik va idealistik mazmunlari haqida so'z yuritish mumkin.

Makon va vaqt muammosini obyektiv idealizm nuqtai nazaridan yondashuvni o'rta asrlar falsafasida ham kuzatish mumkin. Bu yerda faqat Xudo makon va vaqtdan tashqarida deb fikrlanadi. Mazkur nuqtai nazarning shakllanishiga Avliyo Avgustin (354-430) salmoqli hissa qo'shgan. Idealistik qarashlar makon va vaqtning obyektivligini rad etish va ular ongning turli shakllariga qaramligini tan olish bilan bog'liq. Masalan, subyektiv idealizm vakillari (Berkli, Yum, Max va boshqalar) makon va vaqtga individual ong shakllari sifatida yondashadi. Xususan, D.Yum (1711-1776) uchun ular faqat idrokda mavjuddir. I.Kant (1724-1804) ham makon va vaqtga subyektiv deb qaraydi, ammo ularni aprior, ya'ni insonga tajribaga qadar berilgan hissiy mushohada shakllari sifatida tushunadi. I.Kant makon va vaqtni inson hissiyoti shakli – kuzatish shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, aynan dunyoni bilishga harakat qilayotgan subyekt o'ziga berilgan dunyoning muayyan makon va vaqtdagi shakl-shamoyilini yaratadi.

Materialistik yondashuv o'zining aniq ifodalangan shaklida shu bilan tavsiflanadiki, u makon va vaqtni ongdan tashqarida va undan qat'iy nazar mavjud deb hisoblaydi, ya'ni ular mavjudligining obyektiv xususiyatini qayd etadi. Mazkur yondashuv asosan tabiatshunoslikning I.Nyuton (1643-1727) va A.Eynshteyn (1879-1955) kabi atoqli namoyandalari ilgari surgan g'oyalarga tayanadi.

Makon va vaqt tabiati haqidagi metafizik yondashuvlarni rad etuvchi tabiiy ilmiy dalillar XIX asr oxirida fizikada elektromagnit nazariyasi yuzaga kelishi bilan shakllana boshladi. Uning rivojlanishi faylasuflarni bo'shliq haqidagi tasavvurlardan voz kechishga majbur qildi. Dastlab u "efir" to'g'risidagi g'oya bilan almashtirildi. Efir hamma joyda to'liq, lekin mutlaq va hech narsaga bog'liq bo'lmagan makonning shakli vazifasini bajardi. Keyinchalik bu tasavvurlardan ham voz kechildi.

Ammo substantSIONAL va relyatsION kontseptsIyalar, Gegelning obyektiv

idealizmi doirasidagi makon va vaqt haqidagi tasavvurlar singari, makon va zamonning obyektiv mavjudligiga shubha qilmas edi. Falsafadagi butun subyektiv-idealistik yo‘nalish uchun makon va vaqt – tasavvurlarning joylashuv usuli, binobarin, ular o‘z kelib chiqishining psixologik manbaiga ega. Berklidan Maxga qadar makon va vaqt - sezgilarning tartibga solingan qatorlari shakllaridir, degan yondashuvni asoslovchi dalillar majmui amal qildi. Ingliz faylasufi Pirson fikriga ko‘ra, makon va vaqt amalda mavjud emas, ular narsalarni idrok etishning subyektiv usuli, xolos. Makon – narsalarni idrok etish tartibi yoki kategoriyasi bo‘lsa, vaqt voqealarni idrok etish kategoriyasidir. A.A.Bogdanov makon va zamonni tashkil etuvchi va uyg‘unlashtiruvchi inson tafakkuri mahsuli deb hisoblaydi.

Makon va vaqtni mutlaqo mustaqil atributlar sifatida qayd etuvchi metafizik substantsional kontsepsiya XIX-XX asrlarda fanning rivojlanish jarayonida o‘z ahamiyatini butunlay yo‘qotdi. Lobachevskiy makon va zamonning evklid geometriyasi tavsiflamagan xossalari mavjud, degan taxminni ilgari surdi. Bu taxmin absolyut makon kontsepsiyasini inkor etadi, chunki makon faqat geometrik tavsiflanishi lozim edi. Asosiy g‘oyalari A.Eynshteyn tomonidan 1905 yilda ta’riflangan maxsus nisbiylik nazariyasida makon va vaqtning geometrik xossalari ularda gravitatsion massalarning taqsimlanishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Uning fikricha og‘ir obyektlar yaqinida makon va vaqtning geometrik xossalari evklid geometriyasi tamoyillaridan uzoqlasha boshlaydi, vaqtning o‘tish sur’ati esa susayadi. A.Eynshteyn (1916 yilda) o‘zining umumiy nisbiylik nazariyasi bilan nafaqat makon va vaqtning substantsional kontsepsiyasiga, balki makon va vaqt mohiyatining subyektivistik aprioristik talqinlariga ham qaqshatqich zarba berdi. U makon va vaqt xossalari moddiy tizimlar harakati va o‘zaro ta’siriga bog‘liq ekanligini ko‘rsatib berdi. A.Eynshteyn o‘z nazariyasining mohiyatini tushuntirar ekan, shunday deb qayd etdi: “Ilgari qandaydir mo‘‘jiza yuz berib, barcha moddiy narsalar birdan yo‘q bo‘lib qolsa, makon va vaqt qoladi, deb hisoblashgan. Nisbiylik nazariyasiga ko‘ra esa, bu holda narsalar bilan birga makon va vaqt ham yo‘q bo‘lib

ketgan bo‘ladi”¹.

Hozirgi zamon tabiatshunosligi va falsafiy xulosalar nuqtai nazaridan obyektiv borliq makon, vaqt, harakat hamda modda va maydon turlari o‘zaro ta’sirining uzviy bog‘lanishidan iborat. Hozirgi olimlar yagona va obyektiv makon va vaqt kontinuumi to‘g‘risida so‘z yuritishni ma’qul ko‘radilar. Makon va vaqt moddiy jismlar mavjudligining o‘zaro bog‘langan shakllari sifatida tushuniladi. Makon – materiya borlig‘ining ko‘lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o‘zaro ta’sirlarini ifodalovchi shakli. Vaqt – materiya borlig‘ining barcha obyektlar mavjudligining davomiyligini va keyingi holat o‘zgarishlarini tavsiflovchi shakli.

Dunyoda mavjud barcha jismlar makonda aynan uch yo‘nalish bilan chegaralangani, barcha shakllarning eng yassisi ham uzunlik, kenglik va balandlikka ega bo‘lgani sababli, makonimizning uch o‘lchovlilik empirik jihatdan hamma joyda namoyon bo‘luvchi dalil hisoblanadi. O‘z makonimizda biz uning o‘lchamlarini geometrik ifodalovchi uch perpendikulyarni bilamiz. Ammo jism makonda, aniqrog‘i, uning makrodarajasida harakatlanmasdan, balki doimo vaqtda harakatlanadi SHu ma’noda, voqealarni ularning ketma-ketligi tartibida ajratuvchi masofani vaqt deb nomlash mumkin. Bu masofa o‘tmishdan kelajak sari yo‘nalishda bosib o‘tiladi, mazkur yo‘nalishni makonda tasavvur qilsak, u makon va vaqt kontinuumining to‘rtinchi mezoni (o‘lchovi) sifatida amal qiladi. Bundan dunyoda yuz bergan muayyan voqeani aniqlash uchun to‘rt son zarur, degan xulosa kelib chiqadi. Vaqt nafaqat vaqt tartibini vujudga keltiradi, balki makon va vaqtning birlashgan tartibini belgilab beradi hamda Olamning kauzal (sababiy) tuzilishini ifodalaydi.

Makon va vaqt nisbiylik nazariyasi nuqtai nazaridan. Makon va vaqt haqidagi hozirgi falsafiy qarashlar tabiiy va aniq fanlar sohasidagi so‘nggi yutuqlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning tabiatiga nisbatan materialistik va relyatsion qarashlar asosli ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Eynshteynning nisbiylik nazariyasiga muvofiq makon va vaqt o‘z holicha ham, bir-biridan ajralgan holda

¹ Эйнштейн А. Физика в жизни моего поколения . -М.: 1963.-С. 53

ham mavjud bo'lmaydi, balki materiya bilan shu darajada uzviy bog'liq bo'ladiki, pirovardida hech qanday mustaqillikka ega bo'lmaydi va yagona rang-barang yaxlitlikning atributlari sifatida amal qiladi. Yagona makon va vaqt kontiniumini tashkil etar ekan, ular moddiy jismlar harakatining tezligiga ham bog'liq: jism harakatining nisbiy tezligi oshganida uning ko'lam ko'rsatkichlari qisqaradi, uning vaqti esa o'z oqimini sekinlashtiradi. Eynshteyn nazariyasi Riman, Lobachevskiy, Gauss va Puankarening ilg'or g'oyalariga qo'shilgan holda, makon va vaqtning gravitatsiya bilan uzviy aloqasini ham asoslab berdi.

SHunday qilib, nisbiylik nazariyasida makon, vaqt va harakat materiya mavjudligining atributlari, asosiy shakllari sifatida qaraladi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda, materiya kabi, mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi. Muttasil harakatda bo'lgan dunyo esa muqarrar tarzda faqat makon va vaqtda mavjud deb qaraladi.

Makonning ko'p o'lchovliligi. Nisbiylik nazariyasini rivojlantiruvchi va kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion o'zaro ta'sirlarga nisbatan yaxlit yondashuvchi hozirgi tabiiy-ilmiy kontseptsiyalar makonning uch o'lchovliligi va vaqtning bir o'lchovliligi (u o'tmishdan kelajakka qarab oqishi) ni moddiy jismlar borlig'ining ehtimol tutilgan hollaridan biri sifatida talqin qiladi va bizning Metagalaktikamiz bilan bir qatorda o'zga dunyolar ham mavjudligini faraz qilib, makon va vaqtning ko'p o'lchovliligi g'oyasini ilgari suradi. Boshqa olamlarda makon va vaqt butunlay o'zgacha tuzilish, ko'lamlilik va shakllarga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Makon va vaqt ko'rsatkichlari nafaqat mikro-, makro- va megadunyo darajasida, balki jonli tabiat, ijtimoiy borliq darajasida ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Erda hayot paydo bo'lishi bilan go'yo jonsiz tabiat makon va vaqti doirasida joylashgan alohida, biologik makon va vaqt o'lchovi yuzaga keladi. SHu munosabat bilan jonli va jonsiz tabiatdagi simmetriklik muammosi hayotni o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tiborini o'ziga tortdi. Jonli organizmlar simmetriyasi va asimmetriyasi hodisalarini L.Paster, I.Kant, V.I.Vernadskiy va boshqalar o'rgandi.

Ular jonsiz tabiatga xos bo'lmagan asimmetriya molekulyar darajada atomlar guruhlarida "so'l" va "chap" qanotlar ko'rinishida namoyon bo'lishi, organizmlar darajasida esa ularning tuzilishi va dinamikasida aks etishini aniqladilar.

Makon va vaqtning umumiyliigi, ular universumning barcha strukturalarini qamrab olgan holda, mavjudligini anglatadi. SHu munosabat bilan makon va vaqtning nafaqat makro-, mikro- va megadunyoda, balki jonli va ijtimoiy materiyada ham namoyon bo'lish shakllarini qayd etib o'tish lozim. Biologik vaqt, psixologik vaqt, ijtimoiy makon va vaqt maxsus tahlil qilinadi. Makon va vaqtning obyektivligi ular o'zini idrok etishi mumkinligi va yoki albatta, mumkin.

Makonning uch o'lchovliligi. Makonning uch o'lchovliligi hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan aniq isbotlanmagan. *Makon va vaqtning cheksizligi hamda tuganmasligi, makonning uch o'lchovliligi, vaqtning bir yo'nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim.* Biz makroskopik tajribada ko'radigan obyektlar uch o'lchovli ko'lamlilikka – uch o'lchovdagi o'lchamlilikka ega. Makonning har qanday nuqtasi uch soni yordamida beriladi. Ammo makonning uch o'lchovliligi faylasuflar uchun amalda jumboq bo'lib qolamoqda. Ular uchun bu asoslashga urinishlar natija bermayotgan empirik postulat sifatida qabul qilinadi. Makonning uch o'lchovliligini ta'riflab bergan Aristotel pifagorchilarning g'oyalari yordamida uni asoslashga harakat qilgan. U uch o'lchov eng mukammal va tugallangan bo'lib, aynan 3 soni shunday xususiyatga ega ekanligini qayd etgan.

Sxolastlar Pifagor va Aristotel g'oyalariga tayanib, uch o'lchovlilikni dunyoning mukammalligi nuqtai nazaridan tushuntirganlar. Bunda uzunlik chizig'iga kenglik tutashadi va yuza hosil bo'ladi, so'ngra balandlik tutashadi va jism dunyoga keladi. Bundan boshqa o'lchovlarga o'tishni aniq tasavvur qilish mumkin emas. Uch o'lchovlilik dunyoning mukammalligidan dalolat beradi.

G.Galiley uch o'lchovlilikni asoslashga nisbatan mazkur yondashuvni tanqid qilgan. G.Galiley dialoglarining amalda muallif fikrini ifodalovchi qahramonlaridan biri shunday deydi: «3 soni mukammal ekanligi va uch o'lchovli hamma narsaning mukammalligidan darak berishga qodirligini tan olishga hech bir asos

ko'rmayapman».

Nemis faylasufi I.Kant o'z faoliyatining tanqidiy bosqichidan oldingi davrda makonning uch o'lchovliligini tabiat kuchlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qilgan bo'lgan. U makonning uch o'lchovliligini fizik dalil sifatida tushunishga uringan. Ammo keyinchalik I.Kant makon va zamonning aprioristik tabiati haqidagi xulosaga kelib uni hissiy kuzatish shakllari sifatida tavsiflagan.

SHunday qilib, makonning uch o'lchovliligi empirik postulatdir, u haqdagi xulosa bizning intuitsiyamizga asoslanadi, fikrlashning qulayligi, maqsadga muvofiqligi, tejamliligiga intilish, estetik moyilliklar yoki dunyoning mukammalligiga ishonchdan kelib chiqadi, degan ma'noni anglatmaydi. Makonning uch o'lchovliligi moddiy o'zaro ta'sirlar bilan belgilanadi.

Biz yashaydigan makon uch o'lchovlidir. Bu boshqa makon mavjud bo'lishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi, lekin boshqa makonda atomlar ham, molekulalar ham, Quyosh sistemasi ham bo'lmasligi mumkin. Agar makon uch o'lchovli bo'lmaganida, amaldagi barcha fizik qonuniyatlar buzilgan bo'lar edi; narsalar biron-bir sababsiz paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi mumkin edi (ularning sabablari boshqa o'lchovlarda bo'lar edi); atomlar mavjud bo'lishi mumkin emas edi, chunki elektronlar darhol yadrolar ustiga tushar edi. Butun dunyo boshqacha bo'lishi lozim bo'lar edi.

Demak, bizning dunyomizda har qanday voqea to'rt son: makonning voqea yuz bergan joyni qayd etuvchi uch koordinati va uning vaqt ko'rsatkichi bilan belgilanadi. SHunday qilib, moddiy dunyo obyektlarining «3+1» ko'rinishidagi makon va vaqt tuzilishiga mansubligi ularning universal xossasi hisoblanadi.

Makon va vaqtning metrik xossalari. *Metrik xossalarga makon va vaqtning ko'lamlilik hamda davomlilik kabi miqdor ko'rsatkichlari kiradi. Ko'lamlilik joy va o'rinning mavjudligini nazarda tutadi. Joy – makon chegarasi va u qamrab oluvchi muayyan hajmning birligi. O'rin – bir joyning boshqa joylarga nisbatan koordinatsiyasi. Joy va o'rin makon tuzilishini belgilaydi. SHunday qilib, biz makon tuzilishi haqida so'z yuritganda uning joy va o'rnini tavsiflashimiz shart.*

Davomlilik va lahza vaqtning asosiy metrik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Lahza – davomlilikning boshqa parchalab bo'lmaydigan atomi, davomlilik kvanti. Davomlilikning o'zi bunda muayyan chegaraga solingan lahzalar majmui sifatida tushuniladi. Muayyan obyekt mavjudligining dastlabki va pirovard lahzalari ana shunday chegara sifatida amal qiladi. Davomlilik – obyekt mavjudligining davomiyligi va saqlanishidir. Davomlilik voqea-hodisalarning ayni bir vaqtda yuz berishi – sinxroniya yoki ketma-ketlik – diaxroniya munosabatlari bilan tavsiflanishi mumkin.

Makon va vaqtning topologik xossalari. *Topologik xossalarga sifat ko'rsatkichlari, makon va vaqtning uzluksizligi, bog'liqligi, vaqt tartibi, yo'nalishi va o'lchamliligi kiradi.* Makonning topologik xossalari – makonning bir xilligi, izotropiligi (jarayonlar ayni bir sharoitda bir xil kechishi) hamdir. Vaqtning topologik xossalari - bir yo'nalishlilik, muayyan o'lchovlilik, orqaga qaytmaslik. Bu ko'rsatkichlarning hammasi hanuzgacha faylasuflar shug'ullanadigan qator muammolarni tashkil etadi va falsafiy jihatdan ilmiy-nazariy asoslashga muhtojdir.

Vaqt tartibi va yo'nalishi. Vaqt shakllanishi yoki o'tishining obyektiv xususiyati to'g'risidagi masala qadimdan hozirgi kungacha qizg'in bahsga sabab bo'layotgan muammodir. Vaqt tartibi va yo'nalishi to'g'risida so'z yuritilganida, odatda, uning o'tmishdan hozirgi vaqt orqali kelajakka o'tishi nazarda tutiladi. Vaqt bir yo'nalishli, nosimmetrik va orqaga qaytmaydigan jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Borliq hodisalarini vaqtda tartibga solish uchun “vaqt” tushunchasining ikki majmuidan foydalanilgan: “O'tmish – hozirgi vaqt – kelajak” tushunchasining sifati va mazmunini ifodalashda vaqtning psixologik tavsifi ko'proq mos keladi. Vaqtning miqdoriy tahlili uchun: “oldin – ayni bir vaqtda – keyin” tushunchalari qo'llaniladi. Masalan: 4 minut oldin, 5 minut keyin va h.k. miqdor tahlili kabi. Ammo tilimizning tuzilishiga ko'ra 4 soat “o'tmish”, 5 minut “kelajak” qabilida gap tuzish imkoni yo'q. Vaqtni tushunishning bu ikki xil jihati 1908 yilda J.Mak-Taggart tomonidan aniq tavsiflangan. U “vaqt” tushunchasining ikki majmui haqidagi tasavvurni ilmiy muomalaga kiritdi.

Tushunchaning ikki majmuini ajratish ayrim muammolar ta'rifini aniqlash imkonini beradi. Bir tomondan, vaqt harakatchan yoki muvaqqat yo'l, oqim va tranzitivlikning ifodasi sifatida tushuniladi. O'tmish, hozir va kelajakda mavjud voqealar vaqtning mazkur holatiga nisbatan uzluksiz o'zgaradi. O'tmishdagi voqealar yanada o'tmishga chekinadi, bo'lajak voqealar esa yaqinlashadi. Vaqt shakllanishining mazkur jarayoni ko'pincha "vaqt daryosi", "vaqt oqimi" kabi ibora va o'xshatishlar orqali ifodalanadi. Ayni vaqtda, uzluksiz o'zgaruvchi voqealar o'zgarmas tartibda yuz beradi.

Makon va vaqtning dinamik va statik kontseptsionalari. Falsafa tarixida vaqt tartibi hamda yo'nalishini tushunib yetishning dinamik va statik kontseptsionalari shakllangan. Geraklitning "panta rei" (hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaradi) tezisi bilan bog'liq yondashuv vaqtning dinamik kontseptsionalasiga asos bo'lgan.

Dinamik kontsepsiya vaqt jarayonlarining, shu jumladan vaqt oqimining obyektiv borlig'ini, ya'ni o'tmish, hozir va kelajak voqealari o'rtasida real fizik farqlar mavjudligini tan oladi. Ayni vaqtda, mazkur kontsepsiya nuqtai nazaridan, haqiqiy borliqqa hozirgi vaqt voqealarigina ega bo'ladi. O'tmish xotiralarda mavjud, kelajak voqealari amalda ro'y beradimi, yo'qmi - noma'lum. Faqat hozirgi vaqtda ehtimol tutilgan voqealar o'tmishdagi sabablar asosida real borliqqa aylanishi mumkin. So'ngra ular ham o'z davrida muayyan iz qoldirib, o'tmishga aylanadi.

Statik kontsepsiyasi vaqt tartibi va yo'nalishini tushunib yetishning ikkinchi kontsepsiyasi - obyektiv vaqt jarayonlari mavjudligini inkor etmagan holda, vaqtning o'tmish, hozir va kelajakka bo'linishini rad etadi. Unda "oldin – keyin" vaqt nisbati obyektiv deb e'tirof etiladi. Ushbu kontsepsiya tarafdorlari B.Rassel va T.Gold fikriga ko'ra, kuzatish e'tibordan soqit etilsa, dunyoda har qanday holat yuz berishi mumkin. G'arb falsafiy adabiyotlarida bu kontsepsiya "Sovib qolgan olam kontsepsiyasi" deb ataladi.

Ammo statik kontsepsiyaning vaqtning harakati va oqimi subyekt – kuzatuvchiga bog'liqligi haqidagi asosiy tezisiga qo'shilish qiyin. Ko'pgina jarayonlar kuzatuvchidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi va yuz beradi. Eng katta

muammo – hozirgi vaqtni qanday tushunish mumkinligida. Statik kontseptsiyaga ko‘ra, hozirgi vaqtning istalgan lahzasida olamning o‘tmishdagi barcha holatlari mujassam, bo‘lajak holatlari esa yashirin shaklda mavjud bo‘lsa, qanday qilib yangi holatning paydo bo‘lishi haqida gapirish mumkin? Bu yerda o‘tmish va kelajak voqealari o‘rtasida go‘yo to‘liq simmetriya mavjudligi haqidagi yondashuv ilgari suriladi, vaholanki, voqealarning haqiqiy ketma-ketligi amalda nosimmetrik tarzda ro‘y beradi.

Nemis faylasufi va mantiqchisi Gans Reyxenbax “Vaqt nima?”, degan savolga javob berishga harakat qilib, quyidagi ta’riflarni ishlab chiqqan:

1. Vaqt o‘tmishdan kelajak sari harakatlanadi;
2. “Hozir” o‘tmishni kelajakdan ajratuvchi hozirgi vaqtdir;
3. O‘tmish hech qachon orqaga qaytmaydi;
4. Biz o‘tmishni o‘zgartira olmaymiz, lekin kelajakni o‘zgartirishga qodirmiz;
5. Biz o‘tmishning tarixiy “bayoni”ga ega bo‘lishimiz mumkin, lekin kelajakni bayon qilish, bu bilan bog‘liq imkonga ega bo‘lishimiz mumkin emas;
6. O‘tmish ma’lum, kelajak ma’lum emas¹.

Bu ta’riflarga qo‘shilmaslik qiyin, ularda sog‘lom fikrning oddiy mantiqi mujassamlashgan. Ammo vaqt bilan bog‘liq muammolar majmuida aniq yechimi topilmagan masalalar bo‘lib, vaqt nisbatlari tiplarining rang-barangligi ana shunday masalalardan biridir. Vaqt nisbatlarining turlari: tizimning ichki va tashqi vaqti; inson borlig‘i vaqti; davrning madaniy-tarixiy vaqti; astronomik vaqt; fizikaviy vaqt; biologik vaqt va h. k. kabilardir.

Nisbiylik nazariyasidan jismlarning harakat tezligi oshganida va u yorug‘lik tezligiga yaqinlashganida massa ortishi va harakatsizlik holatlariga nisbatan vaqt jarayonlari sekinlashishi ma’lum. Vaqt ritmlarining pasayishi juda kuchli gravitatsiya maydonlari ta’sirida ham yuz beradi. Tirik organizmlarda turli funktsional tizimlarning kun va tun, yil fasllari, quyosh faolligi tsikllarining almashuviga bog‘liq bo‘lgan bioritmlari ham amal qiladi. Davriy ritmlarga

¹ Рейхенбах Г. // Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литератор, 2001. –С. 468.

asoslangan biologik soatlar har qanday organizmda, hattoki, o'simliklarda ham mavjud deb taxmin qilinadi. Kibernetika asoschisi Norbert Viner insonda vaqt sezgisi uning miya ritmlari, xususan, miya faolligini tavsiflovchi "alfa" ritm bilan bog'liq, degan taxminni ilgari surgan. Ba'zan vaqt sezgisi almashinuv jarayonlari bilan bog'lanadi. Qarilikda moddalar almashinuvining faollik darajasi pasaygani sababli, ichki hayot mexanizmining harakati ham sekinlashadi.

Yaxlit organizm sifatidagi jamiyat ham o'z vaqt munosabatlari va rivojlanish ritmlariga ega. Ular ijtimoiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish va fanning rivojlanishiga qarab yo tezlashishi, yo sekinlashishi mumkin, ba'zan hatto muayyan ijtimoiy jarayonlarning stagnatsiya holati to'g'risida ham so'z yuritiladi.

Hozir "Ijtimoiy vaqt mavjudmi" degan masala bahsli emas. Muammo uning mazmunida qanday ustuvorliklar va konstantalar mavjudligida. Ijtimoiy vaqt individ vaqti va avlod vaqtiga bo'linadi. U kishilik jamiyatining o'zgaruvchan informatsion sig'imiga bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda vaqt jarayonlariga makon xossalarining kirishi, ya'ni ijtimoiy vaqt uzunligi – hayot tsikllari bosqichlarining ketma-ketligi sifatida, kengligi – faoliyat turlarining miqdoriy rang-barangligi sifatida, chuqurligi – individning o'zi ishtirok etayotgan faoliyat turlaridagi faollik darajasi sifatida ko'rsatilishi bilan bog'liq fikrlarga ham duch kelish mumkin. Makon va vaqt aloqasi hamma joyda har xil bo'lgan "mahalliy vaqt" tushunchasida yorqin namoyon bo'ladi.

Bularning hammasi makon, vaqt va materiya jarayonlari o'zaro bog'liq ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Nazariy jihatdan esa, makon va vaqt munosabatlarining relyatsion va dinamik kontseptsiyalari rivojlanishining ahamiyatini yanada oshiradi, bu borada tadqiqotlar olib borish zaruratini namoyon qiladi.

Ijtimoiy makon. Makon va vaqt munosabatlarining yanada murakkabroq manzarasi ijtimoiy tuzilmalarda kuzatiladi. Bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyati va amaliyotining o'ziga xos xususiyatlariga tarixiy bog'liq bo'lgan ijtimoiy makon to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi. U alohida insoniy ma'no kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o'rin

oladi, shu bilan birga inson yaratgan infratuzilma, o'zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko'inishida ulardan ajralib turadi. Bunda ko'lamli strukturalar o'z holicha, xaotik tarzda vujudga kelmaydi, balki jamiyat evolyutsiyasi obyektiv jarayonlarining mahsuli hisoblanadi va muayyan xalqlarning turmushi va madaniyatini, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini, ma'lum vaqt ruhini o'zida aks ettiradi. Bularning barchasi pirovardida "ikkilamchi tabiat"ni tashkil etadigan tegishli arxitektura, o'zgartirilgan landshaft va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Ijtimoiy vaqt ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u, biologik va planetar-kosmik vaqtdan farqli o'laroq, notekis oqadi. Insoniyat shakllanish jarayonining dastlabki bosqichida boshlangan ijtimoiy vaqt keyingi davrlarda deyarli o'zgarishsiz kechdi va fan-texnika taraqqiyotining ilk alomatlari paydo bo'lishi bilan, XVII-XVIII asrlardan e'tiboran jadalroq sur'at kasb eta boshladi. XX asrda yuz bergan fan-texnika inqilobi ijtimoiy makonni keng qamrab oldi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga alohida tus berib, vaqt harakatini misli ko'rilmagan darajada jadallashtirdi. Yer kurrasi "kichrayib", insoniyat uchun tor bo'lib qoldi, uning bir chetidan narigi chetiga o'tish endilikda soatlar bilan (Oy, Mars, Venera va boshqa kosmik jismlarga uchish tezligi va vaqtini hisobga olmaganda) o'lchanmoqdaki, XX asrda buni hatto tasavvur qilish ham mumkin emas edi.

Ijtimoiy vaqtda muayyan odamlar, ijtimoiy jamoalar, ayrim hamjamiyatlar, millatlar, davlatlar va pirovard natijada butun insoniyat borlig'ining vaqt ko'rsatkichlarini farqlab, ijtimoiy vaqt strukturasining murakkabligi to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Ulardan har birining yashash vaqti va sur'ati har xil bo'lib, o'z xususiyatiga ega. Aslini olganda, turli mamlakatlar va xalqlar jamuljam holda butun insoniyatni ifoda etsa-da, amalda turli tarixiy davrlarda: kimdir o'tmishda, kimdir hozirgi davrda, kimdir esa kelajakda yashaydi. Bunga, xususan, amerikalik taniqli futurolog E.Toffler e'tiborni qaratadi. Uning fikricha, "Er aholisining 70% o'tmishda (turli o'tmishda), 25% - hozirgi davrda, 3% - kelajakda yashaydi,

qolganlar esa marginallar bo‘lib, ular har qanday vaqtdan tashqaridadir”¹.

Xulosalar. Makon va vaqt haqidagi falsafiy qarashlarni umumlashtirib va bu kategoriyalar mazmunini dunyo haqidagi hozirgi tabiiy-ilmiy bilimlar bilan boyitib, yuqorida aytilganlar nuqtai nazaridan makon va zamonning asosiy vaqt asosiy xossalarini qayd etib o‘tamiz. Jumladan, makon ko‘lamlilik, bir jinslilik va ko‘p o‘lchovlilik bilan tavsiflanadigan mavjudlik tartibi, vaqt esa davomlilik, orqaga qaytmaslik va izotroplik, ya’ni mumkin bo‘lgan barcha yo‘nalishlarning teng huquqliligi xos bo‘lgan voqealarning harakat tartibi va ketma-ketligidir.

Makon va vaqtning muhim xususiyatlaridan biri vaqtning abadiyligi va makonning cheksizligidir. Makon va vaqtning hech bir tomonda, na oldinda, na orqada, na quyida, na yuqorida, na o‘ngda, na so‘lda - oxiri yo‘qdir. Makonning cheksizligi moddiy obyektlar va sistemalarning o‘zaro bir-biriga cheksiz qo‘shilishidan kelib chiqadi. Vaqtning adabiyliigi - moddiy olamning yashash va rivojlanishining boshi ham, oxiri ham yo‘q demakdir.

¹ Қаранг: Вестник Российского университета дружбы народов. Серия «Философия». 2006. №1(11). –С. 46.

ONG MATERIYANING XUSUSIYATI, VOQELIK IN'IKOSINING OLIY SHAKLI

Ong – psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik karashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo‘‘jiza tarzida talkin qilishga asoslanadi. Ko‘pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo‘lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo‘lsada, ular hamon o‘zining ko‘plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Ongning mohiyatini izohlashda ikkinchi yo‘nalish - bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog‘lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo‘nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo‘ldi. Vul‘gar materializm deb nom olgan oqim namoyandalarining fikricha, xuddi jigar safroni ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqarar emish. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, moddiy hodisa degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko‘rish mumkin, ammo ongni ko‘rib ham, ushlab ham bo‘lmaydi.

Aslida ong tarixi insonning inson bo‘lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va karashlaridan tashkil topgan. O‘z-o‘zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir.

Hozirgi zamon fani ong materiyaning uzoq davom etgan evolyutsiyasining natijasi ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo‘lib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan so‘nggi taraqqiyotining mahsulidir. Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo‘lishi uchun bir necha million yillar kerak bo‘lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materiyaning xossasidir, barcha materiyaning emas, balki oliy darajada tashkil topgan materiyaning, ya’ni inson miyasining mahsulidir. Lekin ongning bo‘lishi uchun miyaning o‘zigina yetarli

emas. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan va shu muhitning ta'sirida faoliyat ko'rsata oladi.

Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham amalga oshiruvchi elektron mashinalar yaratilgan, lekin ular ongning o'rnini bosa olmaydi, chunki ong o'ta murakkab obyektiv mavjudlikdir.

Ongsizlik (psixologiya) – ong ishtirokisiz sodir bo'ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ong, ko'pincha, badan harakatida, xotira, xayolda namoyon bo'ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo'zg'atgichlar vujudga keltiradigan javob taassurotlarida, asli ongli paydo bo'lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro'y beradi. Macalan, odam o'z o'y-xayollariga cho'mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo'ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyutsinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm va shu kabilar chog'ida yuz beradigan psixik faoliyat ham ong holatiga kiradi. 3. Freyd ongni sof irratsionalistik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan ongsizlik o'rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xatti-harakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Odam ongsizlikni anglashga va payqashga jur'at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir.

Ong anglangan borliq. Ong anglash, his qilish, tafakkur qilish demakdir. SHuning uchun ham ong voqelikni bilish va bilish jarayonida hosil bo'lgan bilimga yaqin turadi. Ong yuksak darajada tashkil topgan materiyaning, ya'ni inson miyasining xususiyati. Bunga hozirgi zamon fanlari yutuqlari, xususan oliy nerv sistemasi faoliyati to'g'risidagi I. P. Pavlov va boshqa fiziolog olimlarning ta'limotlarini misol sifatida keltirish o'ringi bo'ladi.

Ong voqelik in'ikosining oliy shaklidir. In'ikos deb ta'sir etuvchining ta'sirlanuvchida hosil qilgan o'zgarishlarga aytiladi. In'ikosning shakllari: mexanik, fizik, kimyoviy va biologik in'ikoslar. Biologik in'ikos - jonli organizmlarning tashqi ta'sirni o'zida in'ikos egishidir. Biologik in'ikos turlari: qo'zg'alish, seskanish, sezgi kabilardir. Organizm takomillasha borgan sari asab tolalarining

murakkablashib borishi bilan in'ikos shakllari ham o'zgarib boradi.

Inson paydo bo'lgach va uning miyasi orqali amalga oshadigan in'ikos shakllana boshlagandan so'ng ong elementlari vujudga kela boshladi. Ular insoniy hissiyot va tafakkurdir. In'ikos taraqqiyotidagi yangi bosqich sezgi, idrok va tasavvurdir. Ular ham in'ikos shakllari ekanligi, ammo ularning o'zi tanho ong bo'la olmasligini unutmaslik kerak. Bundan tashqari tafakkur ham in'ikos shakli hisoblanadi. In'ikosning bu shakli ham ong bo'la olmaydi, ular in'ikosning yuqori shakllari xolos. Hissiyot va tafakkur o'zaro qo'shilgach in'ikosning eng oliy shakli - ong paydo bo'ladi.

SHu o'rinda gilozoizmning kamchiliklarini ko'rsatib o'tish o'rinli. Gilozoizm – (gilo-modda, materiya, zoi-hayot), barcha materiya hayot, barcha moddalar fikrlaydi deb qaraydigan ta'limot.

GLOSSARIY

1. Falsafa- Yunoncha philo –sevaman, sophiya – donolik soʻzlaridan olingan boʻlib, donishmandlikni sevaman degani boʻlib, insoniyat tarixidagi qadimiy ilmlardan biri
2. Falsafaning asosiy masalasi- Falsafa borliqning, bilishning hamda inson bilan olam oʻrtasidagi munosabatlarning eng umumiy tamoyillari toʻgʻrisidagi taʼlimotdir.
3. Naturfalsafa- Tabiat hodisalarini, tabiatni insonga va insonning tabiatga boʻlgan munosabatlarini tushuntirish va izohlash.
4. Dunyoqarash- Insonning olamga munosabati, dunyodagi oʻrni, mohiyati, hayotiy yoʻnalishini va oʻzligini anglash.
5. Falsafiy dunyoqarash- Dunyoqarash shakllaridan biri. Unda insonning olam, odam, jamiyat va boshqalarga munosabatini ifodalovchi falsafiy bilimlar tizimi.
6. Ontologiya - Borliq haqidagi falsafiy taʼlimot, falsafaning borliq toʻgʻrisidagi fundamental tamoyillarini oʻrganuvchi sohasi.
7. Borliq- Olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya.
8. Tabiat borligʻi- Butun olamning namoyon boʻlishi, xilma xil koʻrinishdagi borliqni anglatuvchi falsafiy tushuncha. Bunda bir butun tabiat borligʻini, uning alohida narsalari, jarayonlari, xolatlari borligʻidan farq qilish kerak. U inson ongiga qadar, unga mutlaqo bogʻliq boʻlmagan holda mavjud.
9. Ijtimoiy borliq- Doimo oʻzgarishda, rivojlanishda boʻlgan jamiyat hayotining moddiy va maʼnaviy tomonlarini uzviy aloqadorlikda va oʻzaro taʼsirda ekanligini ifodalovchi falsafiy tushuncha.
10. Maʼnaviy borliq Borliq moddiy (tabiiy) va ruhiy olamdan iborat

ekan, moddiy olam obyektiv, ruhiy olam esa subyektiv tasnifga egadir. Ma'naviy borliqning individuallashtirgan va obyektivlashtirgan ikki turi so'zlarda, tovushlarda, tabiiy va sun'iy tillarda qamrab olingan. Ma'naviylikning moddiy tashuvchisi - bu moddiy predmetlar va jarayonlardir. Masalan, kitoblar, loyihalar, chizmakashlik namunalari, rasmlarning rangi, naqqoshlik buyumlari, haykaltaroshlik asarlaridagi marmarlar, bronzalar va x.k.

- 11. Inson borlig'i-** Inson borlig'i o'ziga xos xususiyati uch muhim o'lchov bilan xarakterlanadi: 1. Alohida odam fikrlovchi va his etuvchi narsa (jism). 2. Aqlli mohiyat, xomosapiensga tegishli. 3. Sotsial-tarixiy mavjudot ekanligi.
- 12. SHaxs -** Alohida kishi, ijtimoiy - axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ
- 13. SHuhratparastlik** (arabchada - mashhur bo'lishni sevish) o'zining fazilatlarini pesh qilib shon-shuhrat ketidan quvish, yuqori martabaga intilishni hayot mazmuniga aylantirish.
- 14. Olam -** Insonni o'rab turgan dunyo haqidagi keng qamrovli tushuncha, ma'lum ma'noda voqelikning ifodasi.
- 15. Ong -** Falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri bo'lib, aql, tafakkur deganidir. Yuksak darajada tashkil topgan materiya – kishi miyasining mahsuli.
- 16. Ongsizlik -** Subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyatining mavjud emasligi.
- 17. Ijtimoiy ong -** Jamiyatni salohiyat darajasini, siyosiy potentsialini belgilovchi falsafiy kategoriya. Ahloq, din, san'at, fan, huquq, siyosat kabi shakllari mavjud.

- 18. Milliy ong-** Millatning mavjudligi, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog‘liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta‘minlaydi.
- 19. Ruh -** Ma‘naviy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.
- 20. Milliy o‘z-o‘zini anglash-** Har bir millat (elat)ning o‘zini o‘zi real subyekt, muayyan moddiy va ma‘naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetish.
- 21. Ma‘naviyat -** Insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi.
- 22. Mavjudlik-** Falsafada borliq tushunchasi sinonimi bo‘lib, odatda mavjud narsalarning tafakkur yordamida aks ettiriladigan ichki mohiyatidan farqli ravishda tajriba asosida erishiladigan, ularning tashqi tomonlarini ifodalovchi tushuncha.
- 23. Obyektiv reallik** Inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan, undan tashqaridagi moddiy olam.
- 24. Obyekt -** Subyektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama qarshi turadigan narsa.
- 25. Subyekt -** Amaliy faoliyat va bilim bilan bog‘liq bo‘lgan, obyektни bilishga qaratilgan faollik manbai.
- 26. Materiya-** Borliqdagi moddiy narsalar, hodisalar va jarayonlarning umumiy xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha.
- 27. Mikro, makro, mega dunyolar-** Olam shu uch dunyolar sifatida namoyon bo‘ladi. U moddiy tabiatga ega. U dunyo esa boqiy bo‘lib, moddiy

emas. Moddiy dunyo, shartli ravishda molekulalardan boshlab, katta jismlarni makrodunyoga, molekuladan kichik zarralarni mikrodunyoga kiritish mumkin.

- 28. Makon va zamon (Fazo va vaqt)-** Olam mavjudligining umumiy shakllari. Makon va zamon dunyoning ajralmas qismi bo'lganligi uchun falsafaning asosiy tushunchalaridan bo'lib hisoblanadi. Makon narsalarning ko'lamini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli va uzluksizligini ifodalasa, zamon hodisalarning ketma – ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.
- 29. Harakat -** Butun mavjudotning yashash usuli. Mavjud bo'lmoq, eng avvalo, harakatlanmoq va o'zgarmoq demakdir.
- 30. Ijtimoiy harakat -** Harakatning o'ziga xos shaklini, ijtimoiy borliqdagi har qanday o'zgarishlar va o'zaro aloqalarni ifodalovchi tushuncha.
- 31. Me'yor -** Obyektning sifat va miqdoriy jihatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.
- 32. In'ikos -** Ta'sir etuvchining ta'sirlanuvchida hosil qilgan o'zgarishlar.
- 33. Asos -** Ilmda, turmushda, har qanday munozara va muhokamada, biror fikrni isbotlash yoki biror xulosaga kelish uchun foydalanadigan fikr.
- 34. Substantsiya -** Negiz, konkret asos ma'nosini anglatib, bosh asos, muayyan ashyolar va hodisalarning paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi shart-sharoitlarini belgilaydi.
- 35. Axloq -** Ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va

shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi.

- 36. Amoralizm -** Kishilar munosabatlarida axloq me‘yorlarini inkor etish, umume’tirof etilgan xulq-atvor mezonlariga yengil-elpi munosabatda bo‘lish.
- 37. Aqida -** (arabcha – ishonch) shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan bajarish, e’tiqod qilish lozim bo‘lgan ilohiy talablar.
- 38. Aql -** Insonning ma’naviy-ruhiy faoliyatida barcha ashyo-narsalar, hodisalarni qanday bo‘lsa aynan shunday holda bilish qobiliyati, mavhum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.
- 39. Tafakkur -** Predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.
- 40. Bilish -** Olamning inson ongida in’ikos etishi jarayoni.
- 41. Bilim -** Ijtimoiy tarixiy, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi; shu voqelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan in’ikosi.
- 42. Burch -** Axloqning fundamental kategoriyalaridan biri. Davlat, jamiyat, oilaning shaxs zimmasiga qo‘ygan talablari. Insonning axloqiy mas’uliyatini, majburiyatini, ularni bajarish ichki ma’naviy zaruriyat ekanligini anglash
- 43. Jon -** Falsafa tarixida nomoddiy substantsiya, ruh bilan ma’nodosh tushuncha.

44. Zo'rlik nazariyasi- Jamiyatni itoatda saqlab turish yoki kuch bilan o'zgartirish faoliyatini amalga oshiruvchi ishni izohlaydigan siyosiy ta'limotlardan biri: davlatning vujudga kelishi va amal qilishi to'g'risidagi ba'zi qarashlar, fikr va mulohazalarga asoslangan nazariya.
45. Istiqlool falsafasi- Mustaqil rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi. U istibdod mafkurasi va amaliyotiga qarshi, ozodlikka intilish zarurati tufayli paydo bo'ladi.
46. Iqtisod falsafasi- Iqtisodiyotning falsafiy nuqtai nazardan tadqiq, tahlil va talqin etilishi.
47. Milliy falsafa- Millatning xis-tuyg'ulari, maqsad-intilishlari, dunyoqarashi va ma'naviy-ruhiy xolati hamda kechinmalarini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha.
48. Qadriyat - Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy, sotsiologik va aksiologik tushuncha.
49. Aksiologiya - Qadriyatshunoslik, qadriyatlar haqidagi fan.
50. Voqelik - Bilish tufayli namoyon bo'lishi mumkin hisoblangan va muayyan vaqtda ro'y bergan barcha narsa va hodisalar.
51. Geografik muhit- Inson hayoti uchun bevosita va bilvosita zarur bo'lgan tabiat elementlari majmuasi, ijtimoiy munosabatlar kechadigan tabiiy makon.
52. Gnoseologiya - Bilish nazariyasi, bilishning umumiy qonuniyatlari, usullari to'g'risida bahs yurituvchi falsafaning alohida sohasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.A. Falsafa.-T.:2005.
2. Туленов Ж., Гафуров З. Фалсафа. Олий ўқув юртлари талабалари учун Т.: Ўқитувчи, 1997.
3. Хаитов Ш. Муроса ва Ўзбекистон фалсафаси тарихига кириш. - Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2010.
4. Фалсафа қомуси, М., 1960 й. 1 том.
5. "Фалсафа луғати". Тошкент, "Ўзбекистон", 1976.
6. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, Т., 2 – жилд.
7. Jumaboev Y. O'zbekiston falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -Т.: O'qituvchi, 1997.
8. Гольбах. Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.
9. Гумилев Л. Этногенез и биосфера Земли. -М.: Современные тетради, 2002.
10. Лейбниц. Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.
11. Гегель Г. Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.
12. Аристотель. Органон. -М.: 1990.
13. Чумаков А.Н. Бучило Е. Философия. -М.: Современный литератор, 2007.
14. Рейхенбах Г. Всемирная энциклопедия. -М.: Современный литератор, 2001.
15. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия «Философия». 2006. №1(11).
16. Эйнштейн А. Физика в жизни моего поколения . -М.: 1963.
17. Inson huquqlari: O'quv qo'llanmasi. -Т.: O'zbekiston, 1997.

18. Komil inson haqida to‘rt risola. -T.: 1997.
19. Ma’naviyat yulduzlari. -T.: A.Qodiriy nashriyoti, 1999.
20. Mo‘minov I.M. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. -T.: Fan, 1994.
21. Osnovi filosofii: Uchebnoe posobie dlya studentov. -T.: O‘zbekiston, 1998.
22. Akramov 3. M., Rafikov A.A. Proshloe, nastoyashchee i budуще Aral’skogo morya, -T., 1990;
23. Nig‘matov A.N. O‘zbekistan Respublikasining ekologik huquqi, -T., 2004;
24. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar, -T., 1997;
25. To‘xtaev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish, -T., 1994;
26. G‘ul o m o v P.N. Inson va tabiat, -T., 1990.
27. Karimov I. Falsafa fanidan va’z (leksiya) matnlari. -T. “Yangi asr avlodi”. 2004
28. Falsafa asoslari. Darslik. -T.: O‘zbekiston, 2005.
29. Saifnazarov I. O‘zbekiston istiqloli va yangi falsafiy ta’limot. -T.: Yangi asr avlodi, 2003.
30. Falsafa qomusiy lug‘at «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti». -T.: SHarq, 2004.
31. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. -T.: 2004.
32. G‘arb falsafasi. -T.: 2005.
33. “Falsafa” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi: Uslubiy qo‘llanma/ “Iqtisoiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan.-T.:TDIU, 2006.
34. “Falsafa” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua (bakalavriat bosqichi talabalari uchun): O‘quv-uslubiy qo‘llanma.-T.: TDIU, 2006.
35. Falsafa (ma’ruzalar matni).FDU, 2009.
36. Fayzullaev O.Falsafa va fanlar metodologiyasi.-T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.

37. SHermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: O‘zMU. 200
38. Turaev B. O. Vaqt muammolari. -T., 1986;
39. Turaev B. O., Prostranstvo. Vremya. Razvitie. -T., 1992.)
40. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. -T., 2001;
41. Ibn Sina, Izbrannyye filosofskie proizvedeniya. -M., 1980;
42. Fayzullaev A. F., Printsip ustoychivosti i izmenchivosti v prirode. -T., 2000.).
43. Xaitov SH. Murosa va O‘zbekiston falsafasi tarixiga kirish. -T.: Falsafa va huquq , 2010.

**QOSIMOV KOZIMJON ISOQOVICH
EGAMNAZAROV AZAMJON IMOMNAZAROVICH**

OLAMNING FALSAFIY MANZARASI

MONOGRAFIYA

Muharrir: M.Muqimov
Texnik muharrir: A.Ayubjonov
Sahifalovchi: Z.Karimova
Dizayner: B.Oripov

«ALPHA BRAND» nashriyoti

Tasdiqnoma raqami: № 062491

150100. Fargʻona shahri,

Ulugʻvor koʻchasi, 70-uy

Bosishga 22.08.2025 ruxsat etildi
Bichimi 60x84 1/16, Ofset qogʻozi
Nashriyot bosma tabogʻi: 7,06
Adadi: 100 nusxa.

Bosmaxona manzili:

«ALPHA BRAND» MCHJ da chop etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi, Fargʻona shahri, Ulugʻvor koʻchasi 70-uy



Bogʻlanish uchun:

+99855500-38-88

«ALPHA BRAND» MCHJ korxonasining buyurtmasi asosida tayyorlandi.
Copyright 2025 © «ALPHA BRAND» MCHJ. Barcha xuquqlar himoyalangan.